

**O'BEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TALIM VAZIRLIGI**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

«MAGISTRATURA» FAKULTETI

Ishmuxamedov A.E., Xaydarov M.T., Muxamedjanova G.Ya.,
Abdusattarova X.M.

«MAKROIQTISODIY SIYOSAT MUAMMOLARI»

O`QUV QO`LLANMA

Toshkent - 2005

Ishmuxamedov A.E., Xaydarov M.T., Muxamedjanova G.Ya.,
Abdusattarova X.M. - «Makroiqtisodiy siyosat muammolari» (o`quv
qo`llanma) - T.: TDIU 2005 y.

Ushbu o`quv qo`llanmada asosiy e'tibor bozor iqtisodiyoti sharoitida makroiqtisodiy siyosatni olib borishda davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga soluvchi faoliyati va sodir bo`ladigan jarayonlar ko`rib chiqilgan. Chunki hozirgi paytda gap sanoati rivojlangan mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotga aralashish zarurligi emas, balki, tartibga solish darajasi ko`rib chiqiladi.

Shuning uchun mantlarda makroiqtisodiy darajada tartibga solish maqsadlari, ob'ektlari, vositalari va ulardan foydalanish darajalari ko`rib chiqilgan. Bu borada iqtisodiyotni tartibga solishda davlat byudjetini, daromadlar siyosatini, tuzilmaviy o`zgarishlarni, moliyaviy bozor faoliyatini ta'siri alohida ahamiyatga egadir.

O`quv qo`llanmada «Makroiqtisodiyot» fanidan keng foydalanilgan va har bir BOB bo`yicha qisqacha xulosalar, nazorat va muhokama uchun savollar berilgan. O`quv qo`llanma Oliy va O`rta Maxsus Ta'lim O`quv yurtlarining «Makroiqtisodiyot va mintaqaviy iqtisodiyot» yo`nalishlaridagi bakalavr, magistr, aspirantlar o`qituvchilar uchun mo`ljallangan.

Mas'ul muharrir: i.f.d. prof. Mahmudov . N . M

Taqrizchilar:

1.Rashidov - Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti ,i.f.d.professor

2.Abirkulov K. - Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti , i.f.d.professor

KIRISH

Ushbu o`quv qo`llanmada mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanish subektlarini taminlash ko`p jihatdan yuritilayotgan makroiqtisodiy siyosat samaradorligiga bog`liq. Chunki respublika iqtisodiyotida yuzaga kelgan makroiqtisodiy muammolarni aniqlash, ularning tub sabablarini tahlil asosida o`rganish va echishning samarali yo`llarini ishlab chikish iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning yangicha boshqarish usullarini talab etmoqda. Muhim vazifalarimizdan biridir. Demak, bozor iqtisodiyoti yanada kengroq sharoitda iqtisodiyotga ko`p qirrali bilimga ega bo`lgan, shuningdek o`z ishini puxta egallagan mutaxassis bo`lishi shart. Ayniksa mintaqaviy iqtisodiyot kabi uta murakkab va nozik sohada band bo`lgan

amaliyotchilarga juda yuqori talablar qo`yiladi. Shu sababga ko`ra ham talabalarda makroiqtisodiy muammolarni tahlil kilish va ularni hal etish bo`yicha chora tadbirlar ishlab chiqish uchun talab etiladigan bilimda, hamda ko`nikmalarni shakllantirish yuqori malakali mutaxassis iqtisodchilar tayyorlash jarayonining ajralmas qismidir.

Bunday mutaxassislar tayyorlashda «Makroiqtisodiy siyosat muammolari» kursini o`qish muhim ahamiyat kasb etadi. Kursni o`rganish makroiqtisodiy jarayonlarning ilmiy asoslarini hamda ilg`or mamlakatlarda bu jarayonlarni tartibga solish borasida to`plangan boy tajribalarni o`zlashtirish imkonini beradi. Respublika iqtisodiyoti yangicha munosabatlarga o`tish bosqichida tutgan sharoitida bu masalalar ayniqsa ahamiyatlidir.

«Makroiqtisodiy siyosat muammolari» fan sifatida boshqa itisodiy fanlar nazariyasiga, matematik echimlarga tayanadi. Uning o`z uslubiyati ob'ekti mavjud. Mamlakat miqyosida makroiqtisodiy siyosat muammolari samarali tartibga solish bilan uning rivojlanishiga qulay iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy vaziyat yaratiladi. Sanoatlashgan rivojlangan mamlakatlarda davlat iqtisodiyotini tartibga solishbo`yicha makromodellar yaratilgan. Bu modellarni yaratishda har bir davlat o`z ichki xususiyatlaridan kelib chiqqan xolda milliy iqtisodiyotni rivojlantirishga erishiladi. Ushbu o`quv qo`llanmada MDH mamlakatlari rivojlangan mamlakatlar, shuningdek o`zbek modeli, haqida ko`p tuxtalib o`tilgan. Mazkur model iqtisodiyotni rivojlantirishning beshta muhim va mashxur tamoyili asosida olib borilmoqda. Ushbu tamoyillarni mazmuni birinchidan, iqtisodiyot siyosatdan ustun tarmog`i, ikkinchidan, o`tish davridan davlat bosh islohotchi bo`lmog`i, uchinchidan, butunyangilanish va taraqqiyot jarayoni qonunlarga asoslanmog`i, to`rtinchidan, ijtimoiy muhofaza sohasi turli chora - tadbirlarni amalga oshirish va nihoyat beshinchidan bozor munosabatlarini puxta uylab bosqichma-bosqich amalga oshirishdan iborat. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish uchun makroiqtisodiy siyosat muammolarni umumiy nazariyasi mavjuddir. O`zbekistonda milliy iqtisodiyotni tartibga solish, kelajak istiqbolini aniqlash, milliy iqtisodiy manfaatlarini xalqaro

ko`lamda himoya qilish uchun yangi bozor iqtisodiyoti «Institutlari» yaratilmoqda. Ularda ishlayotgan mutaxassislar baho muammolarni makroko`lamda ishlab chiqarishning barqarorlashtirish va muvozanatni ta'minlash, davlatning daromadlar siyosati, moliyaviy bozorni tartibga solish, tashqi iqtisodiy faoliyatni, paxtachilikni, davlat tomonidan tartibga solinish muammolarini bilan shug`ullanishi kerak.

Ushbu o`quv qo`llanmada makroiqtisodiyotni tartibga solish ob'ektlari va aqsadlari, vositalari, iqtisodiy siyosat sub'ektlari, davlat iqtisodiy dasturlari, resurslar bozori va uni tartibga solish, mehnat bozorini va moliyaviy bozorni, tashqi iqtisodiy faoliyatni

tartibga solish jarayondagi muammolarni bartaraf etish usullari va yondashuvlari yoritilgan. Bu vazifalarni hal etishda makroiqtisodiy siyosat muammolari ko`pgina iqtisodiy fanlar nazariyasiga ayniqsa «makroiqtisodiy», «Milliy iqtisodiyot», «Bozor iqtisodiyoti va biznes asoslari», «Strategik rejalashtirish», kabi fanlarga bevosita tayanadi. Chunki ushbu fanlarning barchasi uchun iqtisodiyot yagona tadqiqot ob'ekti hisoblanadi. Shuning uchun ushbu o`quv qo`llanma ko`proq iqtisodiy ta'lim yo`nalishi bo`yicha o`qiydigan magistratura talabalari, aspirantlari va o`qituvchilari uchun mo`ljallangan.

1-BOB.Iqtisodiyotni tartibga solish tushunchasi.

1.1.Davlat iqtisodiyotini tartibga solish zaruriyati.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish bozor xo`jaligi sharoitida qonun chiqaruvchi, bajaruvchi va nazorat tizimlariga faoliyat ko`rsatishdan iborat. Davlat va jamoa tashkilotlari mavjud ijtimoiy iqtisodiy tizimni o`zgarayotgan sharoitga muvoffiqlashtirish va moslashtirish ishlarini amallashtiradi.

Bozor xo`jaligining rivojlanishi bilan iqtisodiy va ijtimoiy muammolar kelib chiqadi va keskinlashtiradi. Ularni xususiy mulkchilik bazasida avtomatik ravishda hal qilish mumkin emas. Shu xoldan muhim investitsiyalar, kamrentabelli va rentabelsiz, shaxsiy kapitalni qiziqirmaydigan, lekin milliy masshtabda rivojlanishni davom ettirishi kerak: tarmoqlar va umumho`jalik krizislari, ishsizliklar, pul muomalasini bo`zilishi, jahon bozoridagi raqobatning keskinlashishi davlatning iqtisodiy siyosatini talab etadi.

(DITS)Nazariy jixatdan DIS davlat iqtisodiyotini tartibga solish dan

kengrok, chunki DIS davlatning ho`jalik hayotiga aralashmaslik tamoillariga asoslanishi mumkin. Hozirgi zamonda davlatning ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlariga aralashmasligi hayolga ham kelmaydi. davlat iqtisodiyotini tartibga solish kerakligi xaqida emas uning shakli, miqyosi va intensivligi haqida baxslar ketishi mumkin.

Shundan hulosa qilish mumkinki, davlat iqtisodiyotini tartibga solish va DIS ma'nosi bir xil. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning ob'ektiv imkoniyati shundan iboratki,uning faoliyati iqtisodiy rivojlanish, ma'lum darajaga etish ishlab chiqarish va

kapital kontsentratsiyasi paydo bo`ladi. Xozirgi zamon sharoitida davlat

iqtisodiyotini tartibga solish ishlab chiqarish jarayonining bir bo`lagi bo`lib hisoblanadi.

Ular bir qancha turli masalalarni echadilar. M: iqtisodiy o`shishni ra'batlantiradi, bandlikni tartibga soladi, tarmoqlar va regionlarni tuzilma ini o`zgarishini ra'batlatirad, eksportni qullab quvvatlaydi.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning moxiyati iqtisodiy va ijtimoiy muammolar bilan jahonda aniqlanadi. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning mexanizmining rivojlanishi ba'zi bir mamlakatlarda Garbiy Evropa (Frantsiya, Germaniya, Avstriya, Ispaniya) va Yaponiyada, tez rivojlanayotgan Osiyo va Lotin amerikasi. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish kam rivojlanganlarga AQSh, Kanada, Avstraliya, bu erda Evropaga qaraganda ijtimoiy - iqtisodiy o`zgarishlar bo`lmagan, ikkinchi jahon urushi ta'siri, sotsializm lagerlarining paydo bo`lishi, keyinchalik uning yo`q qilinishi va xususiy kapitalning juda kuchayib ketishi.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning roli ayniksa rivojlanayotgan mamlakatlarda katta.

Mustakil iqtisodiyotning vujudga kelishi, sobiq ijtimoiyistik mamlakatlar, davlat mulki shaklida rejalashtirishdan bozor xo`jaligining xususiy mulkchilik shakliga o`tishini amalga oshirishdan iborat.

Nazariy aniqki, erkin bozor tizimida hech qanday monopoliya turi uchun o`rin qolmaydi, amaliyotda ish qiyinroq kechsada. Bu erda asosiy o`rinni bozor munosabatlarini tartibga solishda davlatning iqtisodiy roli egallaydi.

Erkin bozor imkoniyatlari chegarasiz emas. U mavjud jamiyatning barcha ijtimoiy va iqtisodiy muammolarini echishga kafolat berilmaydi, shuning uchun qaerda erkin bozor natija berilmagan joylarda, davlatning iqtisodiy aralashuvi zarur.

Sterilli iqtisodiyotda ham erkin kapitalizm saqlanadi, shu jumladan, bozor mehanizimi uchun tegishli bo'lmagan quyidagi uch muammo mavjud:

1) Tashqi samaralarda davlat tomonidan tartibga solish.

Bozor makroiqtisodiy sistema qatnashchilari barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarini o'z ichiga olmaydi. Faoliyat va ishlab chiqaruvchilar hamda xaridorlar o'rtacha ham bo'lmagan pul me'yorga ega emas tashqi samaralarni keltirib chiqaradilar. Masalan, atrofni ifloslantirib turgan, bozor raqobatida qatnashadigan sanoat korxonalarini mavjud. Bu tashqi samaralarni bozor hech narsa

qilolmaydi. Bu erda davlatning ishtirokisiz hech nima qilib bo'lmaydi.

Ko'pgina mamlakatlarda biznesni tabiatni tiklashga kapital qo'yishga majbur qilish uchun davlat huquqiy va ma'muriy tayanchlardan foydalanadi.

Zamonaviy davlat doimiy erkin raqobat tizimidagidek, bozor iqtisodiyotida ham bo'zulib turadigan atrof-muhit sog'lom bo'lgan sharoitda inson hayotining javobgarligini o'z bo'yniga oladigan davlatdir. rivojlanishiga imkon yaratuvchi sharoitlarni yaratilishini oldini oladi.

- Davlatni tashqi iqtisodini tartibga solishni _ bu davlatning eksport va import strukturasi ta'sirining keng ko'lamdagi choralari va vositalari, tashqi savdo jarayonlari, davlat chegarasini kesib o'tuvchi tovarlar oqimi ustidan nazorat, davlatga kiradigan va chiqadigan mablag'lar xarakati, valyuta almashinuvidir.

Bunday tartibga solish mamlakat iqtisodiy qiziqishlarining ximoyalash maqsadlarini, tashqi iqtisodiy aloqalarni iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash samaradorligini oshirishni ko'zda tutadi. (3) davlatni iqtisodiy tartibga solishning asosiy shakllari mana shulardir. Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning mexanizmini tushinish uchun uning sub'ekti, ob'ekti, maqsadi, kuroli, mablag'i va rivojlanish etaplarini urganib chiqish lozim. iqtisodiy siyosatning sub'ekti bo'lib ho'jalik ishlarini olib boruvchilar va ko'rsatuvchilar hisoblanadi

1.2. Davlatni mikrodarajada iqtisodiyotga aralashishi mohiyati

Davlat qisman bozor muvozanatiga (mikroiqtisodiyot) tovarga soliqlar, ishlab chiqarish kvotlar, ishlab chiqarish xajmini chegaralashni stimullash orqali ta'sir etadi.

Odatda davlatni mikrodarajada iqtisodiyotga aralashish, davlat uchun zarar keltiradi, ayrim vaqtda esa (ishlab chiqarish kvotalar o'rnatilgan narxlarni ishlash turi) bu zarar sezilarlidir. Zarar- davlatni, mikroiktisodiy siyosat olib borayotgan vaqtda ko'zga to'tishni zarur bo'lgan, iqtisodiy samarasiz faoliyat shaklidir.

Lekin davlatni mikroiktisodiy siyosatni olib borish uchun keskin sabablar mavjud. Bo'lar asosan bozor xukimdorligini imkoniyatlari etarli emaslikdan kelib chiqadi. Bo'lar quyidagilar:

1. Tashqi omillar
2. Umumistimol tovarlarni ishlab chiqish
3. Bozor xukimdorligi-vaqt o'tish bilan raqobatlik pasayib monopoliya paydo bo'ladi.

4. Ma'lumotlarni etarlik emasligi

1. Tashqi omillarni ta'siri

Tashqi omillarni ta'siri - savdo yoki tijorat operatsiya natijasida uchinchi tarafni foyda yoki zarar ko`rishi mumkinligidan kelib chiqadi. Salbiy egri samara-atrof muhitni zararlanishi. Pozitiv samara ko`pro`q fan sohasida sodir etadi. Bunda fanning bir sohasida olib boriladigan ilmiy izlanuv ishlari boshqa sohalar muammolarini echishga olib keladi. Natijada, ilmiy izlanish ishlarini olib boruvchi soha, boshqa sohalarga etkazgan samara uchun, daromad xaqini olmaydi.

Boshqacha qilib aytganda, muvozanatlik ishlab chiqarish, mahsulot ishlab chiqarish sarflarini ko`rsata olmaydi. Amaliyotda sarflar muvozanati ishlab chiqarish xajmidan ko`proq.

Mahsulot ishlab chiqarishda chegaralangan resurslardan foydalanadi, ular esa ishlab chiqaruvchiga qaytarilmaydi, natijada jamoa zarariga olib keladi. Ishlab chiqarish va qayta taqsimlash funktsiyalarni bajarish davlatni iqtisodiyotga aralashtirish darajasini minimal va maksimal chegaralari bilan aniqlangan.

2. Umumistimol tovarlarni ishlab chiqarish.

Bozorda istemolchilar o`z pullari bilan qatnashadi, shuning uchun har birimizniki, pulimiz bo`lmasa, bozor istemolchilari qatoridan chiqarib tashlashi mumkin. Puli bo`lmaganlar uchun tovar bormi? Iqtisodchilar tovarlarni umumistimol tovarlar deyishadi. Masalan, mudofa. Umumistimol tovarlarni xususiy tovardan farqi quyidagicha:

1 Xususiy tovar istimol davrida raqobatdoshga ega. Masalan, uy joy olish bilan militsiya xodimlarini xizmatini taqqsolab ko`ring.

1. Xususiy mulk bo`linadi, alohida birlik sifatida mavjud va individual xaridor bilan sotib olinadi. Lekin Alisher Navoiy istioxat bog`ini, Amur Temur mo`zeyini, tarix mo`zeyini bo`dib bo`lmaydi.

2. Bozor puli bo`lmaganlarni iste'molchilar qatoridan chiqarib tashlaydi. Xususiy tovarni iste'mol qilish uchun uni ishlab chiqarish kerak.

Oddiy qilib aytganda bozorni umumsitimol tovar ishlab chiqarishga stimulyo`q. «Chipta olmaydiganlar» muammosi - ishlab chiqarishga o`z xissasini qo`shmasdan xissa oladigan odamlar. Bu muammo jamiyat ishlab chiqarishni bozor usulidan cheklab kollektiv echimlarga o`tganda echilishi mumkin. Umumiste'mol tovarlar bir tarafdin kollektiv talabni shakillanishi deyilsa, ikkinchi tarafda davlatni byudjet-soliq siyosati bilan bog`langan.

Umumiste'mol tovarlar kontseptsiyasidan davlatni iqtisodiy siyosati uchun quyidagi xulosalar kelib chiqadi:

1 Mamlakat aholisi umumiste'mol tovarlarni sotib olish narxi to`lanadigan soliqqa teng bo`lgani uchun, soliqlar va davlat byudjeti orasida muvozanat ushlab turishi lozim. (Veksel kriteriyasi)

2 Byudjet xaradatlarni to`zilmasi umumiste'mol tovarlar talab to`zilmasiga mos kelishi lozim.

3 Umumiste'mol tovarlarni taklif xajmini o`zgarishi davlat byudjetini xarajat qismini o`zgarishi bilan birga olib borilishi lozim.

1.3.Davlatni makroiqtisodiy funksiyalari

- 1 Iqtisodiy barqarorlashtirish-ishsizlik va inflyatsiya bilan kurashish
- 2 Daromadlarni xaddan tashqari diferenyiyalashishini oldini olish, aholini ijtimoiy ximoya qilish
- 3 Iqtisodiy rivojlanishni ustuvor yo`nalishlarini aniqlash
 - iqtisodiy o`rta va mehnat unumdorligini oshirish
 - fundamental ilmiy izlanishlarini olib borish
- 4 Texnologiya va fan sohasida strategik yo`nalishda ishlar olib borish, chuqur to`zilma o`zgarishlarni bajarish
- 5 Milliy va halqaro darajada davlat tartibga solish ishlarini olib borish
 - Milliy manfaatlarni halqaro darajada ximoya qilish.

O`rta iqtisodiyoti - ko`p sektorli iqtisodiyotni vujudga keltirib rejalik xo`jalik mexanizmini faoliyatini cheklash orqali bozor munosabatini tiklash demakdir.Tashqi samara ta'sirini cheklash, pul muomalasini tashkil etish, umumiste'mol tovarlarni ishlab chiqarish-davlat funksiyalari davlatni erkin bozor iqtisodiyotiga aralashish maksimum chegarasidir. Shu bilan birga davlat funksiyalari davlatni bozoriqtisodiyotiga aralashishini minimum chegarasini ham aniqlab beradi. Davlatni xo`jadik jarayonlarida ishtirok etishni aniqlovchi olimlar yig`indisi davlat iqtisodiyotiga aralashishini chegarasini aniqlab beradi.Davlatni funksiyalari umumiyashtirib davlatni iqtisodiyotga aralashishini maksimum limitini ko`rsatib beradi. Samarali ishlayotgan bozor mexanizmi Davlat iqtisodiyotini tartibga solish bilan birlikda faol ko`rsatish zamonaviy ijtimoiy iqtisodiy muammolarni echishga imkoniyat tug`diradi. Agar davlat bozor ajratib bergan aralashdan ko`paytirib yuborsa ishlab chiqarish resurslari taqsimlasa, iqtisodiyotni imkoniyatini xisobga olmasdan ijtimoiy ximoyani ko`patirib yuborsa, halq xo`jaligida orqaga qolgan ishlab chiqarish tizilmasi vujudga keladi. Mahsulotlarni sifati juda past bo`ladi. Natijada kishilar uchun davlat iqtisodiyotga aralashishi chegarasini oshirib yuborgan bo`lsa o`shalar ko`proq jabrlanadi.

Qisqacha xulosalar.

1.Davlatni iqtisodiyotini tartibga solish qonun chiqaruvchi, badaruvchi va nazorat qiluvchi o`rnatilgan choralar tizilmasi bo`lib ularni davlat tashkilotlari va jamoa tashkilotlar mavjud ijtimoiy iqtisodiy tuzilmasini o`zgarayotgan sharoitga moslash uchun ishlatadi.

2.Davlat iqtisodiyotini tartibga solish iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishida sodir bo`ladigan muammolarni echishga qaratilgan faoliyati turlicha mamlakatlarda Davlat iqtisodiyotini tartibga solish. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish, rivojlanish darajasini, aniq shakllari ko`p farqlanadi.

Tayanch iboralar:

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish. Davlatni iqtisodiy siyosati mikrodaraja, zarar, tashqi omillar, umumiste'mol tovarlar. Pul muomolalasi. Aralashishni maksimum darajasi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Davlatni iqtisodiyotiga aralashii nimadan iborat ?
2. Korxonada tashkilot darajada davlatni aralashishini zaruriyati ?
3. Makrodarajada davlatni funktsiyalari turlari qanday ?
4. Davlatni iqtisodiyotini tartibga solishning asosiy shakllari qaysilar?
5. Tashqi omillarning tasiri nimalaraning natijasidan kelib chiqadi?
6. Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning mexanizmini tushunish uchun nimalarni o`rganib chiqish lozim.
7. Makroiqtisodiy siyosatni yuritilishini asosiy sabablari ?
8. Milliy manfaatlar xalqaro darajada kanday himoya kilinadi?

Asosiy adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O`zbekiston Toshkent 2003 y.
2. «Sug`urta faoliyati to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni. «Xalq suzi». 2002 y. 28 may.
3. «Tashqi iqtisodiy faoliyat tug`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni «Xo`jalik va huquq» 2000 y. 9 - son
4. «Chet el investitsiyalari to`g`risida» gi qonun. 1998 y. 30 aprel. O`zbekiston Respublikasi
5. «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tabirlari to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
6. «Tug`ridan-tug`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ra g`batlantirish boasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Farmoni. Xalq so`zi. 2005 y. 12 aprel.
7. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «O`zbekiston ovozi» 2005 y. 29 yanvar.
8. Karimov I.A. «Erishilgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo`llarini izlab borish-asosiy vazifa» Halk so`zi 2004 y. 10 fevral.
9. Babushkina.A.I. Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. 2004g. M. Finanso`i statistika. 480. str.
10. Fareychева .G.V. Sistema obhestvenno`x potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii. M. MGU. TEIS. 2004g. 230 str.
11. N.L. Shagas., E.A. Tumanova. Makroekonomika-2. Uchebnoe posobie. Vo`pusk novo`y. Dolgosrochno`y aspekt. M. TEIS. 2004g. Ekonomicheskii fakultet im M.V. Lomonosova MGU. 122 str.

Internet ma'lumotlari.

1. www.economyta-culty.uz

2. Novosti Uzbekistana - www.uzreport.com
<<http://www.uzreport.com>>
3. Informatsiya, innovatsii, investitsii - 2004 - <http://www.informika.ru/text/exhibit/papers/2004/c11-3doc>
4. <http://www.review.uz/home/azicle.asp>
5. <http://www.biblio.rkg/enc/aztag/humanitariang/cicle.htm>
6. <http://www.vqi.freenet.ru/trudy/dratisviko.htm>
7. <http://www.yabloko.ru/themes/belorusg/belfrus-25.html>
8. <<http://www.vqi.freenet.ru/lezg/trudy/bratisviko.htm>>
9. «Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana» № 1,2. 2004
10. <http://www.aduiser.kg/scripts>

2-BOB. Iqtisodiy siyosat sub'ektlari.

2.1. Ho`jalik manfaatlarini olib boruvchilar.

Bu - bir nechta belgilar bilan bir - biridan ajralib turuvchi ijtimoiy guruhlardir: mol - mulki, tushgan daromadi, kasbi, tarmoq va hududiy qiziqishi. Bo`lar yollangan ishchilar va korxonalar egalari, fermerlar va er egalari, kichik va katta tadbirkorlar, boshqaruvchilar va aksiyadorlar, jismoniy shaxslar, davlat ishchilari, tekstilchilar va harbiy ishlab chiqarish kompaniyalari. Frantsiyadagi o`zumchilik tumanlari dexkonlari, Rur kumir basseyni aholisi va boshqalar. Bu guruhlarining a'zolari o`zlarining manfaatlari ro`znomalarda, mitinglarda o`z fikrlarini, qayg`ularini davlat tashkilotlariga, ijtimoiy - iqtisodiy siyosatni olib boruvchilardan talab qiladi. Bu davlat apparatini va boshqaruvchilarni xo`jaliklar bilan aloqa qiluvchi birinchi tizimi. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning reaksiyasi ho`jalik manfaat olib boruvchilar talablari turlicha. Frantso`z vino ishlab chiqaruvchining iqtisodiyot vazirligiga yozgan xatida Italiya arzon vinosini import qilishini ma'lum darajada cheklab qo`yishi to`g`risidagi taklifi ma'lum professional va hududiy guruhlarining taklifi deb tushinadi. Yana bir xol agarda, "Burmayer" kemasozlik kontserni bir iltimos yoki taklif bilan murojaat qiladigan bo`lsalar, ularga rad etilmaydi. Sababi katta korxonalarining milliy iqtisodiyotda tutgan o`rni va roli katta. Lekin bu bilan ularning aytganlari tez bajarilavermaydi. Chunki, bu talab va iltimos boshqa firmalarga, shaxslarga, pensionerlarga, ekologiyaga mutlak qarama - qarshi bo`lishi mumkin.

2.2. Xo`jalik manfaatlarini bildiruvchilar.

Bo`lar - profsoyuzlar, tadbirkorlar palatasi, fermerlar, sotuvchilar, studentlar, maklerlar, dorishunoslar uyushmalari va boshqalar. Ba'zi birlari esa kapitallari bilan davlat iqtisodiyotida katta rol uynaydi. Uncha ahamiyatga ega bo`lmagan tashkilotlar ham bor. M: jismoniy va yuridik shaxslar assotsiatsiyasi, ular xususiylashtirishni amalga oshiradilar. Bu tashkilotlar ho`jalik manfaatini bildiruvchilar hisoblanadi. Eng katta ho`jalik manfaatini bildiruvchilarga profsoyuzlar va tadbirkorlar palatasi kiradi. Ularda o`zlarining ijtimoiy - iqtisodiy kontseptsiyasi, moliyaviy resurslari, kadrlar tayyorlash markazlari va jamoatchilik bilan aloqalari bor. Ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy, madaniy, diniy, ekologik manfaatlari bildiruvchilarga siyosiy partiyalar kiradi. Siyosiy partiyalar hukumat tomonidan himoya qilinadilar. Partiyalarining ho`jalik manfaat bildiruvchilar bilan aloqalari yaxshi bo`ladi. Butun dunyoda ijtimoiy ? demokratik partiyalar profsoyuzlar bilan, ishbilamonlar uyushmalarini konservativ, xristian ? demokratik, liberal partiyalari quvvatlaydilar. Davlat iqtisodiy siyosati partiyaning ijtimoiy ? iqtisodiy dasto`rini o`rganib chiqsa va u parlament saylovlarida g`alaba qozonishi mumkin.

2.3. Ho`jalik manfaatlarni bajaruvchilar.

Bu ? davlat iqtisodiy siyosat dasto`rini hayotga tadbiiq etuvchilar, davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning sub'ekti bo`lgan ho`jalik manfaatlar bajaruvchilar hisoblanadi. ho`jalik

manfaatlar bajaruvchilar davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning sub'ekti - hukumatning uch hukmdan shoxi bo`lib hisoblanadi. Ierarxik asosida qurilgan va o`ziga MB oladi. Federativ uslubda qurilgan mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Indiya, Germaniya, Ispaniya, Braziliya va boshqalar) federal va mahalliy parlament hukumati ish olib borib, umumdavlat va iqtisodiy manfaatini himoya qiladilar. Markaziy organlarning roli davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning sub'ektlari orasida yaqqol ko`rinib turadi. Bu organlar konsultatsiya ishlarni olib boradilar. Bu organlarga hukumat qoshidagi xilma - xil ekspertlar, iqtisodiyot va moliya vazirligi, ijtimoiy ta'minot vazirligi, markaziy bank, davlat temir yo`l boshqarmasi, pochta va telegraflar kiradi. Bu turtinchi aloqa chizig`i bo`lib, iqtisodiy qiziqishni olib boruvchilar va davlat iqtisodiyotini tartibga solish lar o`rtasidagi chiziq. Shu yo`lda korrektirovka xususiy ho`jalik va boshqa ijtimoiy, kasbiy, ekologik guruhlar bilan bo`ladi. Ho`jalik manfaatini bildiruvchilar bilan ho`jalik manfaatini olib boruvchilar o`rtasida ko`p imkoniyatlar bor. DIS ga ta'sir ko`rsatishi uchun: matbuot, demonstratsiya, monifestatsiya, sudga murojaat va boshqa imkoniyatlarga ega. Shular ichida eng ta'sirchani sudga murojaat hisoblanadi.

2.4. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning ho`jalik manfaatini olib boruvchilar bilan qayta aloqasi:

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish bilan ho`jalik manfaatini olib boruvchilar o`rtasidagi qayta aloqa juda qattiq. Birinchidan, Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning muvaffaqiyati ho`jalik tuzilma ining yaxshilanishida, ish bilan bandlikning o`shishida, ularning to`lov balansida, inflyatsiyaning pasayishi va yashash sharoitining o`shishida bilinadi.

Ikkinchidan, Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning muvaffaqiyati ko`rsatkichlarda har doim o`lchovlarga bog`liq emas. Ijtimoiy xollarda (namoishlar, profsoyuzlar chiqishlari, savdo va ishlab chiqarish palatalarining chiqishlari) Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning matbuotdagi xoli, atrof - muhitni axvoli, shaharda yashash sharoitining sifati. Uchinchidan ho`jalik manfaatini olib boruvchilar hukumatni qo`llab quvvatlashi yoki aksincha uni rad qilishi ham mumkin. Kuchli ishbilarmonlar birlashmasi yoki profsoyuzlar davlatga o`zining noroziligini bildirishi mumkin.

2.5. Anketalash.

Qayta aloqaning bir shakli. So`roqlar har doim ilmiy tekshirish markazlarida o`tkaziladi. Bunaqa markazlar Frantsiya, Germaniya, Gollandiya va Shvetsiyada bor. Anketalashtirish kompaniyalarda, korxonalarda qiziqtiradigan savollari bo`yicha o`tkaziladi. Ishbilarmonlar o`zlarining anketadagi javoblari evaziga ilmiy markaz bilan birga ishlashadi. Anketada - o`zlarining iqtisodiy siyosati haqida konkret savollar beriladi. Davlatning aniq tartibga solish harakatidagi o`zining iqtisodiy siyosatida qanday qilib firmalarni boshqarish savollari anketalarda beriladi. Ma'lumotlarni umumlashtirish qancha ishlashdan keyin multiplikatorning samarodlik miqdorini alohida vositalarni nisbiy samaradorlik darajasi, o`zaro va birgalikdagi alohida vositalar aniqlanadi. Keyinchalik sohalar o`rtasidagi balans o`rtasida yordamida

mamlakat iqtisodiyotini boshqarishdagi potentsial ta'siri aniqlanadi. DIS birinchilikdagi maqsadlari va Davlat iqtisodiyotini tartibga solish organlari buyruqlaridagi aniq manbalar bilan bog`liq xolda iqtisodiyot va moliya vazirligiga aniq tavsiyanomalar ishlab chiqiladi. Biz Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning iqtisodiy manfaatini, bog`liqlikni va qayta aloqalar mexanizmini g`oyaviy ko`rinishini ko`rib chiqdik. Xaqiqiy hayotda modeldan juda ko`p chetga chiqishlar ko`zatiladi, qarashlarni ayrim guruhlar bilan tartibga solish tashkilotlariga ta'sir qilish uchun kurash ketadi, bo`larning ichida eng keng tarqalgani lobbizm. Bir qancha mamlakatlarda davlatni iqtisodiy siyosati (DIS) tashkilotlariga korrupsiya faktlari ma'lum.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish mexanizmi chetga chiqishlar bilan emas o`z qoidasi bilan amal qilmoqda.

Qisqacha xulosalar.

1.Davlat iqtisodiyotini tartibga solish sub'ektlari bo`lib iqtisodiy manfaat olib boruvchilar bildiruvchilar va bajaruvchilar xisoblanadi. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish sub'ektlarini bir tarafdand, maqsadliri, vositalari, ikkinchi tarafdand, turlicha to`g`ri va egri qayta aloqalari mavjud. Xo`jalik manfaatlarini olib boruvchilar

bu bir nechta belgilar bilan bir-biridan ajralib turuvchi ijtimoiy guruhlardir: mol-mulki, tushgan daromadi,kasbi,tarmoq va hududiy qiziqishi.

2.Xo`jalik manfaatlarini bildiruvchilar bo`lar profsoyuzlar, tadbirkorlarpalatasi feremerlar,sotuvchilar,studentlar,maklerlar,dorishunoslar uyushmalari va boshqalar.

3.Xo`jalik manfaatlarini bajaruvchilar-bu davlat iqtisodiy siyosat dasturini hayotga tadbiq etuvchilar ,Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning subekti bo`lgan xo`jalik manfaatlarini bajaruvchilar hisoblanadi. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish bilan xo`jalik manfaatini roib boruvchilar o`rtisida qaytaaloqa juda qattiq.

Tayanch iboralar:

Xo`jalik manfaat olib boruvchilar. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish organlarini reaksiyasi. Xo`jalik manfaat bildiruvchilar.

Xukmdorlik shoxlar. Davlat sub'ektlarini xususiy mulkdorlarni birlashishi. Soha uyushmalari. Miqdoriy aloqa. Saylovchilarni ishonchi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Xo`jalik manfaat olib boruvchilarga qanday tashkilotlar kiradi?
2. Xo`jalik manfaat bildiruvchilarga qanday tashkilotlar kiradi?
3. Xo`jalik manfaat bajaruvchilarga kiradigan uyushmalar va organlar?
4. Davlat iqtisodiyotini tartibga solishni qayta aloqasi qanday xisoblanadi?
5. Anketalashning moxiyati nimadan iborat?
6. Xo`jalik manfaatini bildiruvchilar bilan olib boruvchilar o`rtasidagi fark ?
7. Multiplikator samaradorligi kanday aniklanadi?
8. Iktisodiyotni tartibga solishning kanday modullari mavjud?

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Toshkent 2003 y.
2. «Sug'urta faoliyati to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. «Xalq suzi». 2002 y. 28 may.
3. «Tashqi iqtisodiy faoliyat tug'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Xo'jalik va huquq» 2000 y. 9 - son
4. «Chet el investitsiyalari to'g'risida» gi qonun. 1998 y. 30 aprel. O'zbekiston Respublikasi
5. «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
6. «Tug'ridan-tug'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ra g'batlantirish boasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Farmoni. Xalq so'zi. 2005 y. 12 aprel.
7. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «O'zbekiston ovozi» 2005 y. 29 yanvar.
8. Karimov I.A. «Erishilgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo'llarini izlab borish-asosiy vazifa» Halk so'zi 2004 y. 10 fevral.
9. Babushkina. A.I. Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. 2004g. M. Finanso` i statistika. 480. str.
10. Fareycheva .G.V. Sistema obhestvenno`x potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii. M. MGU. TEIS. 2004g. 230 str.
11. N.L. Shagas., E.A. Tumanova. Makroekonomika-2. Uchebnoe posobie. Vo`pusk novo`y. Dolgosrochno`y aspekt. M. TEIS. 2004g. Ekonomicheskii fakultet im M.V. Lomonosova MGU. 122 str.

Internet Malumotlar

1. www.economyta-culty.uz
2. Novosti Uzbekistana - www.uzreport.com
3. Informatsiya, innovatsii, investitsii - 2004 - <http://www.informika.rug`textg`exhibitg`papersg`2004g`c11-3doc>
4. <http://www.review.uzg`homeg`azticle.asp>
5. <http://www.biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm>
6. <http://www.vqi.freenet.g`trudyg`dratisviko.htm>
7. <http://www.yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html>
8. <http://www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisvriko.htm>
9. «Ekonomicheskii vestnik Uzbekistana» № 1,2. 2004
10. <http://www.aduiser.Kgiscrpts>

3-BOB.Davlat iqtisodiyotini tartibga solish. Maqsadlari va ob'ektlari.

3.1. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ob'ektlari.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning ob'ektlari bu - sohalar, tarmoqlar, hudud, holat, mamlakatdagi ijtimoiy - iqtisodiy shart - sharoit va xodisalar, tug`ilgan va tug`ilishi mumkin bo`lgan muammolar, bu vaqtda shu muammolarni echishda iqtisodiyotni normal ushlab turish va ijtimoiy boshqarishni qo`llab quvvatlashni talab qilish.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning asosiy ob'ektlariga quyidagilar kiradi:

1. iqtisodiy sikl; 2. Xo`jalikning sektor, tarmoq va hududiy tuzilma i; 3. Kapital yig`ish sharoiti; 4. Bandlik; 5. Pul muomolasi; 6. To`lov balansi; 7. Narh; 8. Raqobat shart - sharoiti; 9. Ijtimoiy munosabatlar (Shu jumladan ish beruvchilar va ishlovchilar o`rtasidagi aloqalar, shu bilan birga iqtisodiy ta'minot kiradi); 10.

Mutaxassislar tayyorlash va qayta tayyorlash 11. Atrof - muhit 12. Tashqi iqtisodiy aloqalar.

Demak sanab o`tilgan ob'ektlar butunlay boshqa - boshqa harakter kasb etadi. Ular quyidagi makroiqtisodiy jarayonlarni qamrab oladi:

ho`jalik sikli, kapitalni mamlakat miqiyosiga yig`ish, alohida tarmoqlar, hududiy komplekslar va yana sub'ektlar o`rtasidagi aloqalar - raqobat sharoiti, kasaba uyushmalar va uyushmalar o`rtasidagi aloqani boshlanishi, davlat iqtisodiyotini tartibga solish organlari o`rtasidagi aloqalarni boshqarish. Yuqoridagi jarayonlarni

asosiylarini ko`rib chiqamiz : Davlat antitsikllik siyosati yoki ho`jalik kon'yukturasini tartibga solishni moxiyati inqiroz va turg`unlik vaqtida tovar va hizmatlarga bo`lgan talabni muvozanatda ushlab turish, kapital joylashtirish va ish bilan ta'minlashdan iborat. Buning uchun xususiy kapitalga qo`shimcha imtiyozlar, davlat harajatlari va investitsiya ko`payib boradi. Mamlakat iqtisodiyotining o`zoq muddat va shiddat

bilan o`shishi sharoitida xavfli xodisalar tug`ilishi mumkin -tovar zahiralari tugashi, import o`shishi, to`lov balansi yomonlashishi, taklif ustidan ishchi kuchiga talab oshishi va bundan oylik maoshlarning oshishi ko`zatiladi. Bu xolda davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning vazifasi talab o`shishini, ishlab chiqarish va kapital qo`yilishini sekinlashtirish kerak, chunki imkoniyatga qarab qayta ishlab chiqarish va

mablag`ni qayta yig`ishni qisqartirish kerak. Shu yo`l bilan paydo bo`ladigan ishlab chiqarishni pasayishi, chuqurlashuvi, davomiyligini hamda investitsiya va bandlikni kamaytirish kerak.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishda tarmoq va hududiy tuzilma larga moliyaviy va davlat kapitali quyilmalarga ajratish bilan yordam berishni oshiradi, alohida tarmoqlar va hududlarga sharoit yaratishni tartibga solishni ta'minlaydi. Bir tarafdan tarmoq va hududiy birliklarni inqiroz xolatda quvvatlash kerak, boshqa tarafdan yangi tarmoq va ishlab chiqarish turlari kengayadi, tarmoq ichida taraqqiyot

bo`lishi uchun tuzilma iy o`zgarish bo`lishiga olib keladi, tarmoqlararo va butun halq xo`jaligida samaradorlik va raqobatbardoshlik oshishi kelib chikadi. Bu vaqtda ishlab chiqarishni bir joyda tuplashni favkulotda to`xtatish tadbirlari qo`llanishi mumkin.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning asosiy ob'ektlaridan biri kapital jamg`arishdir.

Ishlab chiqarishda daromadni kapital qo`yish va o`zlashtirish, bozor iqtisodiyotida ho`jalik faoliyatining bosh maqsadi bo`lib hizmat qiladi, shuning uchun DIS kapital jamg`arish kengashi, ho`jalik sub'ektlarining iqtisodiy manfaatlari bilan

birinchi o`rinda muvoffik bo`lishi kerak. Bir vaqtning o`zida davlat kapital yig`ishni tartibga soladi. Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning boshqa ob'ektlari ham bevosita hizmat qiladi. Har xil vaqtda investorlarga yoki tarmoq, hududlarning qo`shimcha imkoniyat yaratish bilan tartibga solish organlari iqtisodiy sikl va tuzilma iy ta'sir qiladi.

Bandlikni tartibga solish - bu bozor iqtisodiyoti nuqtai - nazaridan ishchi kuchiga talab va taklifni o`rtasidagi munosabatni muvofiqlashtirishga ko`maklashadi. Bilimli va tartibli ishchilar iqtisodiy talabini qondirish kerak. Oylik maoshi ularga mehnatga

etarli yondashish uchun hizmat qiladi. talab va taklif o`rtasidagi munosabat oylik ish xaqining keskin o`shishiga olib kelmasligi kerak, aks xolda bu narsa milliy riqobatbardoshlikka yomon ta'sir qilishi mumkin.

Bandlikning keskin pasayishi, bu narsa ishsizlikning keskin ko`payishiga olib keladi. Iste'molchilar talabining pasayishi, soliq tushumi, nafaqalarga harajatning o`shishi va eng asosiysi ijtimoiy xavfli axvollarga olib keladi.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning o`zgarmaydigan ob'ektlaridan biri pul muomalasidir. Pul muomolasining tartibga solishning asosiy yo`nalishi, iqtisodiyot uchun jiddiy xavf tuo`diradigan inflyatsiyaga qarshi kurashdir. Pul muomalasini tartibga solish boshqa ob'ektlarga: kapital yig`ish sharoitlari, Narhlar, ijtimoiy munosabatlarga ta'sir qiladi.

To`lov balansi mamlakat soglom iqtisodiyoti uchun asosiy ob'ektiv ko`rsatkichdir. Davlat har doim hamma mamlakatlarda bozor xo`jaliklari bilan to`lov balansini tezkor va strategik tartibga solishni eksport va importga, kapital harakatiga, milliy valyuta kursiga, savdo - sotiq shartnoma siyosatiga, halqaro iqtisodiy integratsiyaga katnashishiga ta'sir qilish yo`li bilan amalga oshiradi.

Tartibga solishning yana bir ob'ektlaridan biri Narhdir. Narh dinamikasi va tuzilmasi iqtisodiy xolatni aks ettiradi. Xozirgi vaqtda Narh ho`jalik tuzilmasi ga, kapital yig`ish sharoitiga, milliy valyuta barqarorligiga, ijtimoiy muhitga kuchli ta'sir qiladi.

Davlat tartibga solish boskichi davlat iqtisodiyotini tartibga solishning boshqa ob'ektlariga ham ta'sir etishga intiladi, masalan, xususiy firmalarni ilmiy - tekshirishni rivojlanishi va ularni natijalarini joriy etishga qiziqishiga, tovar eksportiga, kapital va uni tuplash bilimlari va tajribalari. Qonunlar Raqobat to`g`ri amal

qilishini, ijtimoiy himoyani, atrof - muhitni qo`riqlashni o`rganadi va amalga oshiradi.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish ob'ektlari ularni echiladigan masalalaridan farqlanadi.

Bu quyidagi boskichlar darajasidir: firma darajasi, hudud, tarmoq, iqtisodiy sektor (ishlab chiqarish, qishloq xo`jaligi, hizmat), butun ho`jalik (ho`jalik sikli, pul muomalasi, NIEKR, Narh), global muammolar (ijtimoiy munosabatlar, ekologiya), milliy munosabatlar.

3.2.Davlat iqtisodiyotni tartibga solishning maqsadlari.

Iqtisodiy - ijtimoiy barqarorlikni, mamlakat ichidagi qurilish va chet davlatlar bilan bo`ladigan aloqalarni mustaxkamlash, o`zgarishlar sharoitiga tez moslashishdir.

Bu maqsadlardan aniq maqsadlarga vositachilik kiluvchi bir daraxt o`sib chikadiki, kaysiki usiz bosh maqsad yuqori natijaga erishmaydi. Bu aniq maqsadlar davlat iqtisodiyotini tartibga solish bilan bog`liqdir.

Bu maqsadlar ob'ektlarga yo`naltirilgan bo`lib, iqtisodiy siklga, Xo`jalikning tarmoq va hududiy tuzilmasi ga, sektor, atrof- muhitga va xokazolarga yo`naltirilgan.

Afsuski, bu aytilgan maqsadlar birinchidan ahamiyati va mashtabi bo`yicha barobar emas. Ikkinchidan, o`zaro zich bog`langan. Shu bilan birga xech kaysi maqsad xech bir karorsiz va xech qanday yutuksiz boshqalaridan farq qilmaydi. Masalan: NIOKR ni rag`batlantirishni mablag` yig`ish uchun yaxshi sharoit yaratib bermasdan, kon'yukturani tenglashtirmasdan, iqtisodiyotning tarmoq tuzilma ini yaxshilamasdan, pul muomalasini barqarorlashtirmasdan tasavvur qilish mumkin emas.

Aniq xususiy maqsadlar hozirgi kundagi berilgan yuqori maqsadlar uchun rivojlanish vositasi bo`lib hizmat qiladi. Aniq maqsadlar kumir shaxtalarini modernizatsiyalashga (zamonaviylashtirishga) qo`shimcha mablag` yig`ishni ta'minlash quyidagilar uchun vositachilik qiladi: Kumir sanoatidagi barqarorlik va mahsulotning pasayishini olidini olish uchun, yokilgi - energetika balansini yaxshilash uchun, qattiq yonilgi importini pasayishi uchun, kumir chiqaruvchi rayonlarda tarmoq va ho`jalik kon'yukturalaridagi bandlikni quvvatlash uchun, shaxta yopilishi uchun tug`ilgan xavfni oldini olish uchun, ne'ft va gaz kompaniyalarining Narhlariga ta'sir qilish uchun.

Sanab o`tilgan maqsadlar bir - birini qisman tuldiradi, biri vaqtincha ko`proq muhim ko`rinishi va boshqasi aniq ho`jalik va ijtimoiy vaziyatga bog`liq bo`lishi mumkin. davlat iqtisodiyotini tartibga solishning sub'ektlarining bu xolatini tushinish darajasini va hukumat organlari hozirgi vaqtda muhim maqsadlar tizimlarini tartiblashi zarur. Hamma yuqoridagi maqsadlar bir - birini o`shishiga yordam berishi va tuskinlik qilishi mumkin. Shu bilan birga davlat iqtisodiyotini tartibga solishning maqsadlar daraxtiga faqat bog`liq

bo`lgan aniq maqsadlar va bosh maqsadlar o`rtasidagi aloqalar muhim emas, ya'ni eng aniq maqsadlar o`rtasidagi o`zaro bog`liqlik va tobelik aloqalari ham muhim hisoblanadi. maqsadlar daraxti ichidagi aniq maqsadlar birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi bo`ladi.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solish maqsadlar daraxtida alohida maqsadlar xolati barqaror emas. Ular doim ho`jalik xolatiga bog`liqligidan,

iqtisodiy topshiriklardan, eng muhim reja ko`rsatkichlaridan chetga chikib turadi. Inqiroz sharoitida birlamchi maqsadlar tor aniq maqsadlar inqirozini to`xtatadi - kon'yuktura jonlanadi. qolgan boshqa maqsadlar yordam beradi va unga bog`liq bo`ladi. O`zoq muddatli sharoitda to`lov balansi kamchiligi, tashqi karzlarni o`shishi, birinchi rejada maqsadlar valyuta rezervlarini kamaytirish, milliy

Raqobatbardoshlikni jahon bozorida kuchaytirishdan iborat.

Qisqacha xulosalar

1.Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning asosiy ob'ektlari iqtisodiy sikl, xo`jalik to`zilmalar, kapital jamg`arish, bandlik, pul muomolasi, to`lov balansi, IT va TKI, raqobat shartlari va boshqalar umumlashtirilganda iqtisodiyotni tarmoqlari, hududlari, sohalari va munosabatlari.

2.Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning asosiy elementi bo`lib bosh maqsadi - ijtimoiy va iqtisodiy va barqarorlik va unga erishish uchun aniq davlat iqtisodiyotini tartibga solish ob'ektlarga boqlangan maqsadlar xisobdanadi. Maqsadlarni o`rni, ustivorligi, aloqalarnii iqtisodiy sharoitga qarab o`zgaradi va shakillanadi.

Tayanch iboralar:

Asosiy ob'eklar, davriy o`zgarish siyosati. Hudud to`zilmasi. Bandlikni tartibga solish. Pul muomolasi. Bosh maqsad. Maqsadlar daraxti. Aniq maqsadlar. Maqsadlar o`rni.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. 1. Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning asosiy obektlariga nimalar kiradi?

2. 2. Asosiy obektlar qanday makroiqtisodiy jarayonlarni qamrab oladi?
3. 3. Aniq xususiy maqsadlar hozirgi kundagi berilgan qanday maqsadlar uchun rivojlanish vositasi bo`lib xizmat qiladi?
4. 4. Maqsadlar qanday sharoitlarga qarab o`zgaradi?
5. 5. Ijtimoiy munosabatlar deganda nima tushuniladi ?
6. 6. Xo`jalik kon'yukturasini tartibga solishning roli ?
7. 7. Bandlikni tartibga solishda davlatning roli ?
8. 8. Davlat iqtisodiyotini tartibga solishni o`zgaraydigan ob'ektiga nima kiradi?
- 9.

Asosiy adabiyotlar.

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O`zbekiston Toshkent 2003 y.
2. «Sug`urta faoliyati to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni. «Xalq suzi». 2002 y. 28 may.
3. «Tashqi iqtisodiy faoliyat tug`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni «Xo`jalik va huquq» 2000 y. 9 - son
4. «Chet el investitsiyalari to`g`risida» gi qonun. 1998 y. 30 aprel. O`zbekiston Respublikasi
5. «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tabirlari to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
6. «Tug`ridan-tug`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ra`g`batlantirish boasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Farmoni. Xalq so`zi. 2005 y. 12 aprel.
7. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «O`zbekiston ovozi» 2005 y. 29 yanvar.
8. Karimov I.A. «Erishilgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo`llarini izlab borish-asosiy vazifa» Halk so`zi 2004 y. 10 fevral.
9. Babushkina. A.I. Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. 2004g. M. Finanso` i statistika. 480. str.
10. Fareycheva .G.V. Sistema obhestvenno`x potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii. M. MGU. TEIS. 2004g. 230 str.
11. N.L. Shagas., E.A. Tumanova. Makroekonomika-2. Uchebnoe posobie. Vo`pusk novo`y. Dolgosrochno`y aspekt. M. TEIS. 2004g. Ekonomicheskii fakultet im M.V. Lomonosova MGU. 122 str.

Internet ma'lumotlari.

1. www.economyta-culty.uz
2. Novosti Uzbekistana - www.uzreport.com
3. Informatsiya, innovatsii, investitsii - 2004 - [http:g`g`www.informika.rug`textg`exhibitg`papersg`2004g`c11-3doc](http://g`g`www.informika.rug`textg`exhibitg`papersg`2004g`c11-3doc)

4. <http://www.review.uz/home/azticle.asp>
5. <http://www.biblio.rkg/encaztag/humanitariang/cicle.htm>
6. <http://www.vqi.freenet.trudyg/dratisviko.htm>
7. <http://www.yabloko.rug/themes/belorusg/belfrus-25.html>
8. <http://www.vqi.freenet.lezg/trudyg/bratisviko.htm>
9. «*Ekonomicheskiy vestnik Uzbekistana*» № 1,2. 2004
10. <http://www.aduiser.Kgiscripts>

4-BOB.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish vositalari

4.1. Ma'muriy vositalar.

Ma'muriy vositalar qo`shimcha moddiy rag`batlantirishni yaratish yoki moliyaviy zarar xavfi bilan bog`lanmagan. Ular davlat xokimiyati kuchiga asoslangan hamda ta'kik, ruhsat va majbur qilish choralari qamrab oladi.

Ta'kiklar va ruhsatlar bo`yicha bir necha misollar keltiramiz. Frantsiya hukumati Parij aglomeratsiyasi hududida yangi sanoat korxonalarini qurishni ta'kikladi hamda bu maqsadga erishish uchun yangi korxonalariga soliqlarni oshirish, katta jarimalar solish kabi iqtisodiy choralar ko`rish yo`lidan bormay, shunchaki yangi sanoat qurilishlariga litsenziya (ruhsatnoma) berishni to`xtatib qo`ydi. Niderlandiya hukumati sobiq harbiy dengiz bazasidan yo`lovchi tashish va savdo porti sifatida foydalanishga ruhsat berib, shu tariqa sarmoya qo`yiladigan yangi soha yaratib berdi. Natijada, port hududida ho`jalik faolligi yuksaldi. Afrika mamlakatlaridan birining hukumati davlat milliy bog`idan uyushtirilgan sayyohlik maqsadida foydalanishga ruhsat berdi. Bundan mahalliy va xorijiy sayyohlik foydalanib qolishdi.

Majbur etish choralari esa, barcha rivojlangan mamlakatlar davlat organlarining sanoat korxonalarini zimmasiga o`zida yoshlarning ishlab chiqarish ukuvini tashkil etish, ishlayotganlar uchun muayyan maishiy qulayliklar yaratish, tozalash inshaotlarini o`rnatish vazifalarini yuklashini misol qilib keltirish mumkin.

MDX mamlakatlari jamiyatining ongida, davlatning kelgusida rivojlanish istiqbollari bozor iqtisodiyoti tizimiga o`tish bilan o`zviy bog`liq degan tushunchaga keng va alohida o`rin egallaydi. Ushbu tizimga totalitar jamiyat, kuch organlariga haddan tashqari ko`p erkinlik bergan davlat sharoitida boshlashga to`g`ri keladi. Iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishi jamiyat turmushining barcha jabhalarida mantiqsizlikka olib keladi.

Ma'muriy - buyruqbozlik tizimining salbiy tomonlari eng oxiri bosqichga kelib qolgan edi: tadbirkorlikni rag`batlantiruvchi kuchlarning, samarali mehnat, innovatsion faoliyat, resurslardan unumli foydalanishning yo`qligi, mas'uliyatsizlik va boqimandalikning ildiz otib ketganligi. Iqtisodiyot va jamiyatning bunday tipi, davlatning bunday roli bozor iqtisodiyotiga o`tish jarayoni bilan uyg`unlik yarata olmadi.

Iqtisodiy islohatlar kamida 3 ta masalani echish uchun xizmat qilishlari shart. Birinchidan, g`oyaviy fikrlashning ta'minoti, erkin musobaqa va g`oyalarning taqsimlanishi uchun sharoit, nazariy fikrlar va tasviriy sur'at erkinligi, majburiy singdirilgan bitta g`oyadan voz kechish, shu qatorda davlat uslublariga ta'sirni qo`llash orqali.

Ikkinchidan, totalitar siyosiy tizimga qarshilik, harakatchan tanlovning ta'minoti, boshqaruvning taqsimlanganligi, davlat organlari ustidan demokratik nazorat, siyosiy kuchlar va partiyalar harakatining erkinligi.

Uchinchidan, iqtisodni davlat tomonidan buyruq, yo`l - yo`riq ko`rsatish yo`li bilan boshqarishdan davlatning zamonaviy aniq tartibga soluvchi vazifalari bilan ijtimoiy yo`naltirilgan bozor xo`jaligiga o`tish.

Birinchi ikki yo`nalish bo`yicha MDX mamlakatlari jamiyati tezda tavsiflandi.

Iqtisodiy islohatlarga keladigan bo`lsak, bu erda ikki diametral teskari qarashlar bor edi.

Ulardan biri bozor xo`jaligida buyruqli iqtisodiyotning doimiy o`zgartirishni ko`zatadi.

Ikkinchi qarash buyruqli iqtisodiyotni «inqilobiy» ag`darishni taklif etadi.

Ammo 1992 yilning boshida mamlakatda iqtisodiy islohatlar o`tkazilayotgan davrda hech qanday zamonaviy jahon talablariga javob bermaydigan, MDX mamlakatlari iqtisodiga to`g`ri kelmaydigan ikkinchi yo`nalish ustun keldi. Bu chuqur iqtisodiy inqirozning asosiy sababi edi.

Oxirgi yillarda iqtisodiy siyosatning asosiy tayanchlaridan biri bo`lib, davlat mulkining xususiy hisoblanadi. Xususiy mulk va xo`jaliklarni davlat tasarrufidan chiqarish zamonaviy xo`jalik tizimi tashkil topishida juda muhim shart sifatida mutloqo zarar edi.

Ikki yildan kam vaqt ichida ishlab chiqarish fondlari ko`rinishidagi taxminan 70% davlat mulkni o`zining yangi xo`jayinlari qo`liga o`tdi.

Lekin ularning ko`pchiligi strategik investorlar emas edi.

Xususiylashtirish tituli o`zgardi, lekin texnologiya, organizatsiya va boshqaruv bozor munosabatlariga o`tmadi.

Boshqaruvning administrativ-buyruqli sistemasi asosan bo`zilgandi, lekin bozorni tartibga solishning mehanizimi ishlab chiqarilmagandi.

Kapitalistik faoliyatning tanlanishi faqatgina kichik va o`rta biznes sferasida, bank-moliya sferasida va savdoda ro`y beradi. Sanoatning esa faqat tashqi bozorda ishlaydigan sohasida ko`zatildi. Davlatning rolisiz iqtisodiyotni, inqirozli holatda, boshqarishni yo`lga qo`yib bo`lmaydi. Ikkita jarayon kerak: bir tomondan, bozorni

tartibga solishning zamonaviy mexanizmiga tomon siljishi, to`la bozor tovarlari, kapital, mehnat, qimmatli qog`ozlar, ko`chmas mulk, intellektual mulk, bozor infrato`zilmalari o`rtasida raqobatni vujudga keltirish. Bu jihatdan MDX mamlakatlari hali yo`lning boshida. Boshqa tomondan, davlat tomonidan tartibga solishning shakl va uslublari tomonlari uchun jahon tajribalaridan optimal to`g`ri keladiganlarini qayta ishlab chiqish zarur. Bu esa davlatning buyruqli iqtisodiyotdaga avvalgi funktsiyalariga qaytarish emas, balki sanoat ishlab chiqarishi tipidagi bozor iqtisodiyotidagi yangi rolini o`rnatishni anglatishi kerak.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan rivojlangan mamlakatlarda ma'muriy boshqaruv vositalaridan kam miqyosda foydalaniladi. Ularning ta'sir sohasi asosan atrof - muhit muxofazasi hamda aholining nisbatan kam ijtimoiy himoyalangan katlamlari uchun eng muhim maishiy sharoitlar yaratib berish bilan cheklanadi. Birok, mushkul vaziyatlarda, masalan, urush davrida, iqtisodiyotning og`ir axvoli chog`ida ularning mavqei keskin oshadi. Urushdan keyingi Yaponiyada iqtisodiyotni tartibga solish bo`yicha eng keng miqyosli davlat ma'muriy tadbirlari pul islohoti va etakchi kontsernlarning bo`lib tashlanishidan iborat bo`lgandi.

4.2. Pul - kredit va byudjet iqtisodiy vositalari.

Davlat tartibga solishning iqtisodiy vositalari pul - kredit va byudjet siyosati vositalariga bo`linadi. Iqtisodiyotdagi davlat sektori davlat iqtisodiyotini tartibga solishning mustaqil kompleks vositasi (bir vaqtning o`zida uning ob'ekti) hisoblanadi. davlat iqtisodiyotini tartibga solishning oliy shakli - ko`psonli maqsadlar va davlat iqtisodiyotini tartibga solish vositalarining butun termasini qamrab oluvchi davlat iqtisodiy dasturlashidir. Davlat sektori va iqtisodiy dasturlash haqida quyida yana to`xtalamiz.

Asosiy iqtisodiy vositalar bu - 1. Hisobga olish stavkasining tartibga solish Markaziy Bank tomonidan amalga oshiriladi. 2. Mamlakatning moliyaviy institutlari markaziy bankda saqlashi shart bo'lgan minimal zahiralarning hajmlarining belgilab qo'yilishi va o'zgartirilishi. 3. Davla tashkilotlarining qimmat baho qog'ozlar bozorida operatsiyasi, masalan davlat majburiyati emissiyasi, ularning savdosi va sundirilishi.

Davlat mazkur vositalar yordamida moliya bozori (kapitallar ssudasi bozori) dagi talab va taklif nisbatini istalgan yo'nalishda o'zgartirishga intiladi. qo'yilayotgan kapitallarni mablag' bilan ta'minlashda bo'sh kapitallar rolining nisbatan pasayishi bilan birga hamda fond birjasi mavqeining tushishi va yirik kompaniyalarining

moliyaviy vositalari bilan o'zini - o'zi ta'minlashining o'sib borishi bilan bog'liq xolda ancha rivojlangan mamlakatlarda bu vositalar ta'sirchanligi birmuncha kuchsizlandi.

To'g'ridan - to'g'ri davlat ho'jalik boshqaruvi byudjet siyosati vositalari orqali amalga oshiriladi.

Davlat byudjeti bu markaziy hukumat va mahalliy xokimiyatlar kirimlari va chiqimlaridir.

Davlat harajatlari o'rnini qoplashga moliya vositalarining

safarbar qilinishi bosh instrumenti soliqlar hisoblanadi. Ulardan shuningdek ho'jalik sub'ektlari faoliyatiga ta'sir ko'rsatish uchun ham keng foydalaniladi. Bizni hozir birinchi navbatda soliqlarning fiksal emas, boshqaruvchi roli ko'proq qiziqtiradi. Soliqlar yordamidagi davlat boshqaruvi hal kiluvchi darajada qanday soliqlar tizimi tanlanganligi, soliqlar stavkalarining qanchalik balandligi, shuningdek soliq imtiyozlarining turlari va hajmlariga bog'liq.

Urushdan keyingi dastlabki yillarda GFR da ish bilan bandlik soligining amalga tadbqiq qilinishi - u ish beruvchilar tomonidan ish xaki va maosh summasi hisobidan to'lanardi - kompaniya sarf - harajatlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Tadbirkorlar jonli mehnatdan tejash, buning uchun asosiy kapitalni medernizatsiyalash hamda ishlab chiqarishga fan va texnikaning eng yangi yutuklarini tadbqiq etishdan manfaatdor bo'lib koldilar.

Barcha rivojlangan mamlakatlarda jonli mehnatni buyulashtirilgani bilan almashtirishni rag'batlantirish hamda yangi - yangi tarmoqlarga kapital qo'yishni qo'llab quvvatlash yo'nalishidagi kupsonli soliq isloxatlari mavjud.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishda soliqlar ikkiyoklama rol uynaydi. Bir tomondan, bu davlat harajatlarini mablag' bilan ta'minlashning asosiy yo'li, byudjet siyosatining moddiy asosi, ikkinchi tomondan, bu boshqaruv instrumenti.

Davlat byudjet organlarining vazifasi - u yoki bu mablag' tushishi manbalarini shunchaki soliqqa tortishdan iborat emas, balki yuridik va jismoniy shaxslarning ho'jalik yuritish ishiga ta'sir o'tkazuvchi nozik sozlanuvchi mexanizmni yaratishdir. Buning uchun, vaqtincha yoki saylanma (selektiv) tarzda beriladigan soliq imtiyozlari, soliqlar to'lovidan vaqtincha ozod etish kabilardan foydalaniladi.

4.3. Jadallashtirilgan amortizatsiya.

Soliqlar yordamida amalga oshiriladigan davlat iqtisodiyotini tartibga solish vositalari orasida asosiy kapital hamda u bilan bog'liq xosilalarning jadallashtirilgan amortizatsion

ro'yhatdan o'chirish va moliya vazirligi ruhsatnomalari doirasida amalga oshiriladigan yashirin rezervlar realizatsiyasi alohida o'rin tutadi. Xozirgi sharoitlarda asosiy kapitalni jadallashtirilgan amortizatsion ro'yhatdan o'chirish jamg'armalar, iqtisodiyotdagi tuzilma iy o'zgarishlarni rag'batlantirishning asosiy omili hamda ho'jalik tsikliga, bandlik va NIOKR ga ta'sir ko'rsatishning muhim vositasi hisoblanadi. Uning moxiyati - mashinalar, uskuna - Jihozlar, binolar va inshaotlar eskirishi jismoniy jarayoni ishlab chiqarilayotgan tovar va hizmatlarga aylantiriluvchi asosiy kapital ashyoviy eltuvchilari bahosi kalkulyatsiya qilinuvchi ishlab chiqarish harajatlaridan ajratib olinishidir. Amortizatsion ro'yhatdan o'chirish stavkalari va tartibini o'zgartirib, davlat boshqaruv organlari sof foydaning chiqarish sarflariga kiritish yo'li bilan soliqlardan ozod qiladi, keyin esa, kelgusida yangi kapital joylashtirishlarni mablag' bilan ta'minlash uchun amortizatsion fondga o'tkaziladigan qismini belgilab beradi. Asosiy kapitalning ashyoviy eltuvchilari ko'rinishlari (dastgoxlar, uskuna - Jihozlar, transport vositalari, binolar, tozalash inshaotlari) bo'yicha amortizatsion ro'yhatdan o'chirish meyorlari turlar bo'yicha mufaassal bo'lingan xolda moliya vazirliklari tomonidan muntazam chop etib turiladi. Foydadan soliq to'lanishi to'g'riligini tekshirish paytida soliq nazoratchilari amortizatsion ajratmalar moliya vazirligi ruhsat bergan meyorlarga muvofiq amalga oshirilgan takdirdagina ishlab chiqarish yoki hizmatlar harajatlari kalkulyatsiyasini makullaydilar.

Balans foydasi kulami, soliq stavkasi va hajmi, shuningdek to'lanuvchi dividendlar shunga qarab belgilanadi. Xozirgi vaqtda bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida amortizatsion ro'yhatdan o'chirishning quyidagi turlaridan foydalaniladi :

- To'g'ri yoki mutanosib- qo'shimcha (bunda amortizatsion ajratmalar miqdori ro'yhatdan o'chirilayotgan inshaotning boshlangich narhidan oshib ketadi)
- Maxsus (bunda ho'jalik faoliyati umuman yoki saylanma tarzda jonlantirish maqsadida vaqtincha amortizatsion ajratmalar meyorlari avval belgilab quyilgan imtiyozlardan oshirib qo'yiladi)- Dastlabki (bunda amortizatsion ro'yhatdan o'chirish mashinalar yoki inshaotlar ishlay boshlashidan oldin amalga oshiriladi)
- Degressiv (kamaya boruvchi)Evropa mamlakatlarida degressiv ajratmalar varianti - kamaya boruvchi qoldiqdan ro'yhatdan o'chirish qo'llaniladi (bunda ajratmalar asosiy kapitalning ashyoviy eltuvchilari dastlabki qiymatidan emas, balki balans qiymatidan olinadi).
- misol. Faraz qilaylik, korxonada 100 ming pul birligidagi muayyan tur Jihozlar o'rnatilgan. Moliya vazirligi uning balans qiymatidan har yili 30% ro'yhatdan o'chirishga ruhsat bergan.

Jihozlarning hizmat qilish texnik muddati 10 yil. Har yillik amortizatsion ajratmalar, ming pul birligi, quyidagi tartibda bo'ladi:

	1-yil	2-yil	3-yil
Ajratmalar miqdori	30	21	14.7
Balans koldigi	70	49	34.4

Uch yil mobaynida texnologik eskirish (10 dan uch yili - 30%) 30.0 ming bo'lgani xolda 65.7 ming ro'yhatdan uchirilgan, ya'ni 35.7 ming ishlab chiqarish harajatlarida yashiringan

sof foydadir, shu tariqa u to`lalgicha soliqlardan ozod etilib, amortizatsion jamg`armaga o`tkazilgan.

Amortizatsion jamg`arma vositalaridan faqat kapitalni joylashtirishda foydalanish mumkin. Aslida amortizatsion ajratmalar hisobiga mablag` bilan ta'minlashning yakuniy manzarasi bir muncha boshqacharak. 15.1 - misolda kurganimizdek, amortizatsion jamg`armaga ajratmalar balans koldigi kamayishi munosabati bilan yildan yilga pasayadi, shu bilan bir vaqtda balans foydasi va muvofiq tarzda, soliq to`lovlari kulamlari ortadi. Tadbirkorlar bu bilan kelisha olmaydilar. Amortizatsion jamg`armaga e'tiborimizni qarataylik. Uch yil mobaynida u erda 65.7 ming tuplanib koldi va shu uch yil mobaynida bu mablag` u erda harakatsiz yotgan. Chinakam hayotda bunday bo`lishi mumkin emas.

2 - misol. Soliq to`lovlarining usa borishi va soffoydaning kamayishidan qochish, shuningdek, amortizatsion jamg`armaga tushayotgan mablag`lardan bank foizlari olish bilan cheklanmay, undan tadbirkorlik foydasi olish imkoniyatini ishga solish maqsadlarida tadbirkorlar ro`yhatdan uchirilgan barcha vositalarni usha zaxoti yana asosiy kapitalga joylashtirishga majburlar. 1 yilda 100 mingdan 30 mingi ro`yhatdan uchiriladi va usha zaxoti yana investitsiya qilinadi, oqibatda balans koldigi - 100 ming. 2 yilda 100 mingdan yana 30 ming ro`yhatdan uchiriladi va usha zaxoti investitsiya qilinadi, shu tariqa har yili shunday davom etaveradi. Natijada amortizatsion jamg`armalarga har yillik ro`yhatdan o`chirishlar hajmi hamda unda yashirilayotgan foydalar hajmi, shuningdek, sof xaqiqiy foyda qisqarmaydi, asosiy kapital qiymatining balans kolidigi ham kamaymaydi. Uch yil ichida ro`yhatdan uchirilgan mablag` va asosiy kapitalga joylashtirilgan yalpi sarmoyalar 15.1 - misoldagi kabi asli 30 minglik eskirishda 65.7 mingni emas, 90 mingni tashkil etadi. Degressiv variantlardan biriga AQSh da qabo`l qilingan va rakamlar yigindisi deb ataluvchi tizim kiradi. Bu

tizimni misol orqali tushintirib beramiz.

3 - misol. Faraz qilaylik, asosiy kapitalning biror elementi 7 yil hizmat qiladi. Hizmat muddati rakamlarini tartib bilan yozamiz: 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7 ularning yigindisini hisoblaymiz - 28. Tartib rakamlari teskari tomondan boshlab ularning umumiy yigindisiga bo`linadi, ya'ni birinchi yil dastlabki qiymatining $7:28$ qismini ro`yhatdan o`chirishga ruhsat beradi, ikkinchi yil $6:28$ qismini, uchinchi yil $5:28$ qismini va xokazo. Xuddi, balans qiymatini ro`yhatdan o`chirishdagi kabi, bu ro`yhatdan o`chirish ham imkon darajasida mumkin bo`lgan stavkada o`tkaziladi, chunki amortizatsion jamg`armaga ajratilgan mablag`lar u erda o`zoq kololmaydi - bundan manfaat yo`q, kolaversa, ko`rib turganimizdek, ro`yhatdan o`chirish meyorlari ham yildan yilga kamayib boradi. Ajratilgan mablag`lar taqsimlanmagan foyda bilan birga yana eng qisqa muddatlarda asosiy kapitalga joylashtiriladi va yil ichida yana birinchi yil stavkasi bo`yicha ro`yhatdan uchiriladi. Amaliyotda juda kam qo`llaniladigan to`g`ri yoki mutanosib ro`yhatdan o`chirish ham hozirgi sharoitlarda moliya vazirligi ruhsati bilan jismoniy va ma'naviy eskirishi chinakam davriga nisbatan qisqartirilgan muddatlarda o`tkazilgani bois, odatda, jadallashtirilgan hisoblanadi. Qarshimizda investitsiyalarning davlat tomonidan boshqariluvining kudratli richagi turibdi - bu foydalarning soliqlardan ozod qilinishi, ularni amortizatsion jamg`armalarga yashirish hamda yangi kapital joylashtiruvlari uchun majburiy foydalanishdir (bu mablag`lardan boshqa maqsadlarda foydalanib bo`lmaydi, ularni harakatsiz koldirish ham mumkin emas).

4.4 Jadallashgan amortizatsiya samarasi.

4.5

Asosiy kapitalni tezlashgan amortizatsiyalarini hisobdan chiqarish me'yorlarini o'zgartirib turilishi barcha rivojlangan mamlakatlarda davlat kon'yuktura va to'zish siyosati vositasi sifatida keng miqyosda foydalaniladi, shuningdek tabiatni muxofaza qilish tadbirlarini moliyaviy ta'minlash uchun, ilmiy tadqiqotlarni rambatlantirish va ularni natijalarini joriy etish uchun. Me'yoriy amortizatsiya chegirmalarini o'zgartirishning samarasi kon'yuktura uchun qulay bo'lgan yillarda seziladi, ya'ni inqiroz va pasayish davrlarida amortizatsiyadan foydalanish siyosati kuchsiz bo'ladi.

Kon'yuktura qanchalik yomon bo'lsa, shunchalik foydadan ishlatish qiyinlashadi, o'z - o'zini moliyaviy ta'minlash uchun imkoniyatlar kamayadi, davlat tomonidan beriladigan amortizatsiya imtiyozlari esa xususiy investitsiya beruvchilarni o'ziga kamroq tortadi. To'lashgan amortizatsiya hisobdan chiqarish bo'yicha imtiyozlar - davlat byudjetiga foyda soli g'idan tushuvchi mablag'larni qisqarishi bilan bir xildir. Ularning natijasi boshqa soliqlarning oshishi yoki davlat karzining o'sishi bo'lishi mumkin. Davlat boshqaruvining vositasi sifatida byudjetning ho'jalik maqsadlaridagi harajatlari ham foydalaniladi. Bu birinchi navbatda, davlat kreditlari, subsidiyalar va kafolatlari, shuningdek, mahsulotlarni sotib olishga ketgan harajatlar va xususiy sektordagi hizmat ko'rsatishlardir.

4.5 Davlat sektori.

Davlat sarmoyasini sarflash kengrok darajada Davlat iqtisodiyotini tartibga solishda muhim rol uynaydi. U bir vaqtning o'zida xususiy Xo'jalikka ta'sir ko'rsatuvchi ob'ekt va vosita hisoblanadi. Davlat sektori - markaziy va mahalliy davlat organlariga butunlay yoki qisman tegishli bo'lgan ho'jalik ob'ektlari majmuasini tashkil etadi. Davlat sektori - kapitalizm rivojlanishiga kadam kupchilik mamlakatlarda bor bo'lgan, pochta, qisman transport hizmati, kuro'l - yorog'larni tayyorlash va boshqalar ham kiradi. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish tizimi o'rnatila borishi jarayonida davlat qurilish olib bordi, xususiy mulkdorlardan ob'ektlarni, ayniksa infratuzilma sohasida, og'ir sanoatni kaysiki ularning faoliyat ko'rsatishi mamlakat iqtisodiyoti uchun har doim foydali va zarurlarni sotib oldi. Ba'zi bir mamlakatlarda davlat sektori tarmoqlar bilan korxonalarini milliy lashtirish (Frantsiya, Italiya, Velikobritaniya, Avstriya) natijasida, boshqa davlatlarda esa (AQSh, FRG, Shvetsiya, Yaponiya) qurish yoki inqirozga uchragan ho'jalik ob'ektlarini sotib olish natijasida vujudga keldi. Birinchi guruhga kiruvchi mamlakatlarning milliy boyligida davlat sektorini ulushi ikkinchi guruhga nisbatan yuqoridir. Davlat sektorining sezilarli qismi - infratuzilma ob'ektlari bo'lib ko'p xollarda norentabeldir. Ikkinchi qismi xom ashyo va energetika tarmoqlaridagi davlat korxonalarini bo'lib unda katta investitsiyalar talab qilingan xolda sarmoyaning aylanishi ancha sustdir. Davlat firmalarining rentabelligi xususiy firmalarga qaraganda odatda past bo'ladi. Davlat sektorining bozor xo'jaligi sharoitida faoliyat

ko`rsatishi tamoillari xususiy firmalarning tamoillaridan bir qancha farq kiladi va davlati sektorini umumdavlat iqtisodiy masalalarini hal etishga qaratilgan va xususiy xo`jaliklar daromadini oshirishga imkoniyat yaratishga qaratilgan. Yakka xokimli foyda, ko`pincha umuman foydaning o`zi infratuzilma

, energetika, xom - ashyo tarmoqlari, NIOKR xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda, atrof - muhitni himoya qilish sohalari davlat sektorining birinchi darajali maqsadi hisoblanmaydi. Negaki ushbu sohalardan yuqori foydani xech kim talab qilmaydi, zararlar esa byudjet hisobidan qoplanadi. Shu sababli davlat sektori arzon hizmatlardan kelib chiqib xususiy sektordagi chiqimlarni kamaytiradi.

Davlat sektori aktiv ravishda iqtisodni davlat vositalari orqali boshqarishda qo`llaniladi. Chunki, kon'yukturani yomonlashgan sharoitida, depressiya yoki inqiroz xolatida, xususiy sarmoya sarflash qisqarganda davlat sektoriga investitsiyalar o`sishi ko`payadi. Shunday qilib, hukumat organlari ishlab chiqarishni pasayishi va ishsizlikni o`sishiga qarshi harakat qilishga intiladi.

Davlat sektori davlatning to`zilish siyosatida muhim rol uynaydi. Davlat yangi ob'ektlarni tashkil etadi yoki eskilarini kengaytiradi va qayta kuradi. Ushbu faoliyat sohalari, tarmoqlar yoki regionlarda kuchonki u erga xususiy sarmoya etarli darajada etib bormasa. Shunday qilib davlat sektori NIEKR xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlashda katta rol uynaydi. Davlat firmalari tashqi savdo, chet etga sarmoyalarni chiqarish, kupincha milliy sarmoyani kaysi bir mamlakatga joylashtirish yoki kiritishda pioner rolida chiqishadi. Masalan: Folsvagen Germaniyaning kontserni hukumatning federal va er mulki tuzilma ida qisman bo`lgan kontserni Chexiyaning avtomobil sanoatidagi ishtiroki. Davlat sektorining ulchami, uning milliy iqtisodiyotdagi xissasi nafaqat yangi qurilishlar, sotib olishlar natijasida o`zgaradi, balki davlat sektorini rentabeli va qayta qurilgan ob'ektlarni xususiylashtirish va xususiy sarmoyalarga sotish oqibatidir.

4.6 Tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning sanab o`tilgan vositalari qatoridan tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish vosita bo`lib xisoblanadi. Amalda mamlakat ichidagi qayta ishlab chiqarish jarayonida ta'sir kiliuvchi hamma richaglar tashqi iqtisodiy aloqalarga asosiy ta'sirini o`tkazadi. Hisob stavkalarini o`zgarishi, soliq undirish, yangi engilliklar va asosiy kapitalga investitsiya subsidiyalar berish va boshqa. Ammo tashqi chegara bilan ho`jalik aloqalariga o`zluksiz ta'sir etuvchi maxsus vositalar bor. Bu birinchi navbatda tovarlar va hizmatlar, kapital rag`batlantirishni ilmiy - texnik va ma'muriy usullarini tadbiq etish, eksportni kreditlashtirishda eksport va investitsiyalarga chet elda kafolat berish, miqdoriy chegarani kiritish yoki bekor qilish, tashqi savdodagi to`lovlarini o`zgarishi, mamlakat iqtisodiyotiga chet el kapitalini kiritishni chegaralash yoki qiziqish o`lchovlari, boshqa mamlakatga kuchib ketganlarga quyilgan sharoitlarni o`zgarishi, sifatli saralash (selektsiya soha yo`nalishi va texnik daraja nuqtai - nazarida) sifatida chet eldan kiruvchi kapitallar, chet el ishchilariga mamlakatda qiziqish, halqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo`lish, davlatlararo integratsion uyushmalarga a'zo bo`lish. Davlat iqtisodiy siyosatini alohida vositalari har xil maqsadlarda, har xil birikmalarda, har xil jadallikda qo`llaniladi. Maqsadlar harakteri bilan bog`liq xolda u

yoki boshqa vositalar davlat iqtisodiyotini tartibga solish manbalari arsenalida aniq davrlarda o`zgaradi.

Qisqacha xulosalar

1. Davlat iqtisodiyotini tartibga solish vositalari ma'muriy va iqtisodiyolarga bo`linadi. Ma'muriy vositalar davlat hokimiyati kuchiga asoslangan hamda taqiq, ruxsat va majbur qilish choralarini qamrab oladi.
2. Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning iqtisodiy vositalari pul-kredit va byudjet siyosati vositalariga bo`lishadi.
3. Davlat boshqaruvida soliqlar ikkilanma rol o`ynaydi. Bir tomondan bu davlat xarajatlarini mablag` bilan taminlashning asosiy yo`li, byudjet siyosatining moddiy asosi, ikkinchi tomondan, bu boshqaruv instrumentidir.
4. Iqtisodiy vositalarga o`z navbatida fiskal, monitar va tashqi alorqalar siyosatidan iborat. Keng foydalanadigan siyostalardan biri bo`lib byudjetni tartibga solish xisoblanadi - soliq tizimini o`zgartirish, soliq imtiyozlari, asosiy kapitalni jadallashgan amortizatsiyasini, ko`rinmas zahiralari balansdan chiqarishdagi imtiyozlar.

Tayanch iboralar:

Ta'qiq etish. Ruxsat berish. Majbur etish. Fiskal siyosat. Monitor siyosat. Jismoniy eskirish amortizatsiyalash turlari, degressiv usul, jadallashgan amortizatsiya meyorlari. Davlat sektori, eksportni rag`batlantirish.

Nazorat va muhokama uchun savollar:

1. Ma'muriy vosita tushunchasi nima ?
2. Iqtisodiy vosita turlariga nimalar kiradi?
3. Jadallashgan amortizatsiya mohiyati nima ?
4. Davlat sektorini vazifasi nimalardan iborat?
5. Tashqi aloqalarini tartibga solish usullaridan nechta ?
6. Iqtisodiy islohotlar xizmatiga nimalar kiradi ?
7. Byudjet - siyosati vositalari nimadan iborat ?

Asosiy adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O`zbekiston Toshkent 2003 y.
2. «Sug`urta faoliyati to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni. «Xalq suzi». 2002 y. 28 may.
3. «Tashqi iqtisodiy faoliyat tug`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni «Xo`jalik va huquq» 2000 y. 9 - son
4. «Chet el investitsiyalari to`g`risida» gi qonun. 1998 y. 30 aprel. O`zbekiston Respublikasi

- 5.«Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
- 6.«Tug`ridan-tug`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ra`g`batlantirish boasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Farmoni. Xalq so`zi. 2005 y. 12 aprel.
- 7.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «O`zbekiston ovozi» 2005 y. 29 yanvar.
8. Karimov I.A.«Erishilgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo`llarini izlab borish-asosiy vazifa» Halk so`zi 2004 y. 10 fevral.
- 9.Babushkina.A.I.Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. 2004g. M. Finanso` i statistika. 480. str.
- 10.Fareycheva .G.V. Sistema obhestvenno`x potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii.M. MGU. TEIS. 2004g. 230 str.
- 11.N.L.Shagas., E.A.Tumanova. Makroekonomika-2. Uchebnoe posobie. Vo`pusk novo`y. Dolgosrochno`y aspekt. M. TEIS. 2004g. Ekonomicheskii fakultet im M.V. Lomonosova MGU.122 str.

Internet ma'lumotlari

- 1.WWW. economyta - culty. uz.
- 2.Novosti Uzbekistana - www.uzreport.com
- 3.Informatsiya, innovatsii, investitsii - 2004 - [http:g`g` www.informika.rug`textg`exhibitg`papersg`2004g`c11-3doc](http://www.informika.rug/textg/exhibitg/papersg/2004g/c11-3doc)
- 4.[http: g`g` www. Review.uz g`homeg`azticle.asp? mq62Rio\)q177](http://www.Review.uz/g`homeg`azticle.asp?mq62Rio)q177)
- 5.[http: g`g` www. Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm](http://www.Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm)
- 6.[http: g`g` www. vqi.freenet. g`trudyg`dratisviko.htm](http://www.vqi.freenet. g`trudyg`dratisviko.htm)
- 7.[http: g`g` www. Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html](http://www.Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html)
- 8.<[http:G`G` www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisviko.htm](http://www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisviko.htm)>
- 9.«Ekonomicheskii vestnik Uzbekistana» № 1,2. 2004
- 10.[httpg`g` www.aduiser.Kgiscriptsg`foxweb.exe g`baseg`list-trem?nbq18sl](http://www.aduiser.Kgiscriptsg`foxweb.exe g`baseg`list-trem?nbq18sl)

5-BOB.Davlatning Iqtisodiy Dasturi

5.1.Dasturlarning turlari

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishning yuqori shakli davlatning iqtisodiy dasturi hisoblanadi. Uning maqsadi global maqsadlarda davlat iqtisodiyotini tartibga solishning

hamma elementlaridan har tomonlama foydalanish. Hukumat xo`jalikni tartibga solishda masalani murakkabligi o`lchoviga ko`ra qisqa muddatli, o`rta muddatli va o`zoq muddatli masalalardan tashkil topgan. Ularni echimini va organini aniqlash, bu echimlarni bajarishdagi javobgarlik, kerakli mablag`lar ajratish va moliyaviy tartiblashni aniqlash. Shunday maqsadli dasturlarni ob'ektlari odatda sohalar bo`ladi. Kupincha qishloq xo`jaligi, ijtimoiy, hududlar sohalari bo`ladi.

Dasturlar odatdagi va favkulodda bo`ladi. Edatdagi o`rta muddatli umum iqtisodiy dastur qonun bo`yicha besh yil har yili to`g`rilab turish va bir yilga o`zaytirishdan tashkil topadi. Favkulodda dasturlar nixoyatda og`ir xolatlarda ishlab chiqariladi. M: krizis sharoitlarida, xavfli investitsiyalar, ommaviy ishsizlik va xokazo.davlatning dasturlari rivojlanish darajasi har xil mamlakatda turlicha. Amalda hamma davlatlarda bozor iqtisodiyoti maqsadli dasturlarda amalga oshadi. Shu maqsadli dasturlarni eng eskilaridan - AQSh da Tejssi basseynini hududiy energetik o`zlashtirish, Frantsiyada yadro energetikasini rivojlantirish dasturi, Janubiy Italiyaning xo`jaligini rivojlantirish kabilar shular jumlasidandir. Janubiy Koreya urushdan keyingi iqtisodiyotini tiklash, yangi erlarni xususiylashtirish va tuzilma viy qayta tiklash umummilliy favkulotdagi dasturlar sifatida ma`lum. 60 yillar oxirida maqsadli va favkulotdagi milliy dasturlar tajribalari bazasida bir qator mamlakatlar umummilliy o`rta muddatli dasturga o`tishdi, halq xo`jaligida muhim ko`rsatkichlarga erishildi, bu mamlakatlarga Frantsiya, Yaponiya, Niderlandiya, Skandinaviya mamlakatlari, Janubiy Koreya kiradi. Yuqorida sanab o`tilgan mamlakatlardan tashqari Germaniya, Avstriya, Ispaniya, Finlyandiya, Xindiston, Turkiya, Kuvayt, bir qator Lotin Amerikasi davlatlarida umumiqtisodiy o`rta muddatli dasturlar kuchli rivojlanishga olib keldi. Bozor iqtisodiyoti tayanchi AQSh da - umummilliy dastur yo`q, ammo maqsadli va favkulotdagi dasturlar keng qo`llaniladi. Alohida mamlakatlarda dasturlashni davlat oldidagi iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatga ko`ra rivojlanish darajalari turlicha bo`lishi, masala harakteri va maosh tabiga bog`liq bo`ladi.

5.2.Iqtisodiy dasturlash sub'ektlari

Iqtisodiy dasturlash sub'ektlari - dastur to`zishga javobgar, ularni o`zluksiz amalga oshirishni nazorat qiluvchi davlat organlaridir. Dastur maxsus davlat organi tomonidan ishlab chiqiladi, agar u bo`lmasa unda iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligi yoki maxsus vazirliklar o`rtasidagi organda amalga oshiriladi. Buning uchun iqtisodiyot vazirligi qoida bo`yicha loyixani o`zi tayyorlaydi, alohida tadbirlarni ketma - ketli, muddatli, maqsadli amalga oshirishda ierarxiyani tashkil ettiradi, bajarishga javobgarlik beruvchi boskich deb ataladi. Moliya vazirligi dasto`rni moliyalashtirish rejasini ishlab chikadi. Dasto`rni ishlab chiqishda markaziy bank, tadbirkorlar uyushmasi, savdo va sanoat palatalari, kasaba uyushmalari vakillari keng jalb qilinib, har xil komissiya va ekspertlar uyushmasi to`ziladi. Dastur va moliyaviy reja har yili parlament tomonidan tasdiklanadi, shu bilan birga yil davomida ularni bajarilishi hisobotlari eshitilib turiladi.

5.3.Samaraliylik chegaralari.

Samaraliylik chegaralari - davlatning iqtisodiy dasturi ho`jalik va ijtimoiy masalalarni echishda etarlicha foydalidir, ammo bu foydalilikni ob'ektiv chegaralari mavjud. Bozor iqtisodiyoti sharoitida dasturlashtirish faqat indikativ bo`lishi mumkinligi butun tavsiviy rag`batlantirish harakteriga olib keladi. Shu bilan birga u har xil darajalarda ho`jalik masalalarini echishga etarli foydali. Agar davlat dasturi tezda va to`liq amalga oshmasa, ular shunga qaramay istalgan yo`nalishli iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydilar. Bu xolat juda ham muhim emas. Dasturlash davlat iqtisodiyotini tartibga solish ning hamma manbalaridan sintetik foydalanishi, alohida davlat organlari tomonidan boshqarib turilgan tadbirlardagi qarama -qarshilik va norozilikdan qochish imkonini yaratadi.Davlatning moliya rag`bati, buyurtmalar va sotib oluvlari, iqtisodiy dastur chegarasida sezilarli va teng bo`lmagan ta'siri alohida kompaniyalar Raqobatdardoshligida, sohalar xolati, hududiy xolati, ijtimoiy guruhlar xolatida bilinadi va manfaatlari qarama - qarshilikka chaqiradi. Davlat dasturlovchi organlari shuning uchun doimo alohida guruhlar, jamoat kuchlari, siyosiy partiyalarda aks etuvchi qarama - qarshi qiziqishlar qarama - qarshi ta'sirda bo`ladi.

Qisqacha xulosalar

Davlat boshqaruvining eng yuqori shakli bo`lib, davlat iqtisodiy dasturlari xisoblanadi. Dasturlar odatdagi va favqulotda bo`ladi. Iqtisodiy dasturlar sub'ektlar dastur to`zishga javobgar, ularni o`zluksiz amalga oshirishni nazorat qiliuvchi davlat organlaridir. Dastur maxsus davlat organi tomonidan ishlab chiqilida, agar u bo`lmasa unda iqtisodiyot vazirligi va moliya vazirligi yoki maxsus vazirliklardagi organlarda amalga oshiriladi. Samaralilik chegaralari davlatning dasutri xo`jalik va ijtimoiy masalalarni echishda etarlicha foydalidir, ammo, bu foydalilikni ob'ektiv chegaralari mavjud.

Tayanch iboralar.

Milliy dastur. Odatdagi dastur. Favqulotdagi dastur. Maqsadli dastur. Dastur sub'ekti. Moliya rejasi. Samara. Davlat rag`batlantirishi.

Nazorat va muhokamalar uchun savollar

- 1.Dasturlar turlari?
- 2.Dastur ishlab chiqaruvchilar?
- 3.Dastur samarasi nimadan iborat?
- 4.Davlatning iqtisodiy dastur ob'ektlariga nimalar kiradi ?
- 5.Davlatning iqtisodiy dasturlari kimlar tomonidan tuziladi ?

Asosiy adabiyotlar.

- 1.O`zbekiston Respublikasining Konstituttsiyasi. O`zbekiston Toshkent 2003 y.

- 2.«Sug`urta faoliyati to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni. «Xalq suzi». 2002 y. 28 may.
- 3.«Tashqi iqtisodiy faoliyat tug`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni «Xo`jalik va huquq» 2000 y. 9 - son
- 4.«Chet el investitsiyalari to`g`risida» gi qonun. 1998 y. 30 aprel. O`zbekiston Respublikasi
- 5.«Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tabirlari to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
- 6.«Tug`ridan-tug`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ra g`batlantirish boasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Farmoni. Xalq so`zi. 2005 y. 12 aprel.
- 7.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «O`zbekiston ovozi» 2005 y. 29 yanvar.
8. Karimov I.A.«Erishilgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo`llarini izlab borish-asosiy vazifa» Halk so`zi 2004 y. 10 fevral.
- 9.Babushkina.A.I.Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. 2004g. M. Finanso` i statistika. 480. str.
- 10.Fareycheva .G.V. Sistema obhestvenno`x potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii.M. MGU. TEIS. 2004g. 230 str.
- 11.N.L.Shagas., E.A.Tumanova. Makroekonomika-2. Uchebnoe posobie. Vo`pusk novo`y. Dolgosrochno`y aspekt. M. TEIS. 2004g. Ekonomicheskiy fakultet im M.V. Lomonosova MGU.122 str.

Internet ma'lumotlari

1. WWW. economyta - culty. uz.
2. Novosti Uzbekistana - www.uzreport.com
3. Informatsiya, innovatsii, investitsii - 2004 - [http:g`g`www.informika.rug`textg`exhibitg`papersg`2004g`c11-3doc](http://g`g`www.informika.rug`textg`exhibitg`papersg`2004g`c11-3doc)
4. [http://g`g`www.Review.uz`homeg`azticle.asp?mq62Rio\)q177](http://g`g`www.Review.uz`homeg`azticle.asp?mq62Rio)q177)
5. <http://g`g`www.Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm>
6. <http://g`g`www.vqi.freenet.g`trudyg`dratisviko.htm>
7. <http://g`g`www.Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html>
8. <<http://G`G`www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisvriko.htm>>

6-BOB. Mintaqaviy iqtisodiyotni tartibga solish

6.1.Hududiy rivojlanishning ayrim umumiy kontseptsiyalari. Mintaqaviy iqtisodiyot

Davlatning hududiy rivojlanishni tartibga solishi rivojlanish qonuniyatlari va ishlab chikarish kuchlarining taqsimotiga asoslangan. Bunda hududiy rivojlanish hamda taqsimotning qonuniyati bo`lmish Federatsiyaning barcha sub'ektlari ho`jaligining kompleks rivojlanishi, hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tenglashtirish, hududlar bo`yicha mehnatni oqilona hududiy taqsimoti muhim ahamiyat kasb etadi. Bu qonuniyatlarning mazmuni quyidagilardan iborat. Iqtisodiy rayonlar ho`jaligining kompleks rivojlanishi umumdavlat ahamiyatiga ega bo`lgan bozor maxsuslashishi yo`nalishlarini, hududiy kompleksni to`ldiruvchi yo`nalishlarni, infrastrukturani moslashuvini anglatadi. Tartibga solishning vazifasi bo`lib bu uch yo`nalishning mutanosib rivojlanishini ta`minlash, ular o`rtasidagi aloqani mustahkamlash, shuningdek ,har bir hudud o`zi bilan mustaqil hududiy-ishlab chiqaruvchi kompleksni namoyish eta olishi, o`zining rivojlanish davrida ichki hududiy masalalarni hal etganda imkon boricha aholini ko`prok tovar va xizmatlar bilan ta`minlashga xarakat qilish kerak. Hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tenglashtirish davlatning hududiy rivojlanishni tartibga solishdagi doimiy va istiqboldagi vazifasi xisoblanadi. Tabiiy-geografik, tarixiy, iqtisodiy, ijtimoiy-demografik va boshqalar sababli hududlarning o`zini-o`zi ta`minlash sharoitlari turlicha bo`ladi. Shuning uchun davlatning hududiy rivojlanishini mukammallashtirishdagi strukturaviy, moliyaviy, ijtimoiy, bozor iqtisodiyotiga o`tishdagi tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish, rivojlanish uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish hamda ularni haetga tatbiq etish kabi funktsiyalarini amalga oshirishda asosiy yo`nalish hududlarning xususiyatini xisobga olish muhimdir. Bozor iqtisodiyotiga o`tishda quyidagi asosiy hududlarini ajratish lozim:

- Mehnat resusrlari ortikcha-masalan, Shimoliy Kavkaz rayonlari
- sanoatlashgan rayonalar- Moskva, Sankt-Peterburg, Nijegorod viloyati, Ural Federatsiyasi sub'ektlari, Sibirning sanoatlashgan janubiy tarmoklari.
- Katta mikdordagi xususiy mulkka ega rayonlar- Chernozem zonasining agro-sanoatlashgan hududiyari, Sibir xamda O`zok Sharkning janubiy kismllari.
- Depressiv regionlar- Chekka Shimol, Sibir (Tuva, Buryatiya, Chitin viloyati) xudulari.

Davlat tartibga solish funktsiyasini bajarar ekan, u Federatsiyaning xar bir konkret sub'ektining hududiy rivojlanish xususiyatlarini xisobga olishi va ularni iqtisodiy rivojlanish darajasini tenglashtirishga xarakat qilishi kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnatni hududlar bo`yicha oqilona taqsimoti hududiy rivojlanish uchun zarurdir. Davlat hududiy

rivojlanishni tartibga solishda, shuni nazarda to`lishi lozimki xar bir hudud bozor iqtisodiyotiga o`tishda o`ziga xos yo`llarini shakllantiradi va iqtisodiy aloqlar asosida boshqa hududlar bilan mahsulotlarni o`zaro almashtirishi mumkin, xar bir rayon o`zining hududiy bozori bo`lishi va shu paytning o`zida MDX mamlakatlari va jaxon bozoriga etakchi ishlab chikaruvchilar mahsuloti bilan chiqishi kerak. Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy etapida hududlar bo`yicha mehnat taqsimotini yo`lga qo`yishni, ularni birlashtirish va mehnatini o`zaro moslashtirish orqali, takomillashtirish muhimdir. Davlat va Federatsiya sub'ektlari kizikishlarini moslashtirishda samarali faoliyat yurituvchi davlatning hududiy rivojlanishni tartibga solish funkatsiyasining ahamiyati katta.

Bozor munosabatlari sharoitida radikal iqtisodiy islohotlarni utkazish, Federatsiya sub'ektlarini suverenlashtirishda hududlarning aloxida xususiyatlarini e'tiborga olgan xolda anik hududiy siesat ishlab chikarish lozim. Bozor islohotlarini utkazishda hududiy siesat MDX mamlakatlari iqtisodiyoti integratsiyasiga, kat'iy federal solik siesatini utkazishga, davlatl xisobidan tabiiy resurslarni o`zlashtirishga, eng muhim bo`lgan hududiy maksadli dasturlarni tashkil etish va realizatsiya qilishga yo`naltirilishi kerak. Katta masshtablil hududiy dasturlarni davlat tomonidan tartibga solish hududiy rivojlanishning maxsus fondlarini yaratishga, xususiy mahalliy va xorijiy investorlarni jalb etishni ragbatlantirish, ekologik tozza mahsulotlarga ragbatlantiruvchi narxlarni joriy etishni nazarda tutadi.

Hududiy dasturlarni boshqarishda federal va hududiy organlar xukuklarini ajratish ayniqsa muhim. Shunday kilib federal organlar o`zlashtirilaetgan rayonlarda yaratilaetgan yangi ishlab chikarish protsesslarini tartibga solishi, regionlararo iqtisodiy aloqlarni tashkil etishi kerak. Hududiy organlar boshqarmasi esa oqilona ho`jalik strukturasi yaratishga, lokal resurslarni ishlatishga, ijtimoiy-demografik va ekologik muammolarni hal qilishga, iqtisodiy islohotlar utkazilishiga o`z e'tiborini qaratishi kerak. Bunda davlatning tartibga solish funktsiyasini hududiy rivojlanishni rejalashtirish va prognozlashtirish bilan tor yo`sinda bog`lash kerak. Mamlakatning yagona iqtisodiy muxiti mustaxkamlash hududiy siesatining muhim vazifasidir. Bu vazifani hal etish kapital bozorini, ya'ni aksioner kompaniyalar tizimini, fond birjalarini, tijorat banklarini, tovar va xom-ashyo resurslarini rivojlantirish yo`li bilan amalga oshiriladi.

MDX mamlakatlarida hali chukur inkiroz sharoitidan chikib ketilmaganligi sababli yagona iqtisodiy muxit dezintegratsiyasi kuchaymokda, davlatning barcha ijtimoiy-iqtisodiy protsesslarni uta kattik kullik bilan tartibga solishga, sharoitni stabillashtirish uchun choralar kurishga, mamlakat barcha regionlarida, ayniksa Shimoliy Kavkaz, Kalmo`kiya, Tuvada axolini bandligini oshirish bo`yicha ishlarni amalga oshirishga zaruriyat tugdirmokda. Shunday kilib, bozor iqtisodiyotiga o`tish sharoitida, MDX mamlakatlarida ning hududiy siesati vazifasi bo`lib xar bir regionda axolini yashash darajasini kutarish, uni sekinlik bilan tenglashtirish xisoblanadi. Lekin uning eng asosiy vazifasi MDX mamlakatlarida ni butunligini saklab kolish, uni suveren territoriyalarga ajralib ketishiga yo`l quymaslik. Buning uchun MDX mamlakatlarida va hududiy kizikishlar urtasida balansni topish muhimdir. Shuningdek mamlakatning aloxida regionlaridagi tushkunlik xolatini bartaraf etish, Shimolda va ekstrimal tabiiy sharoitli rayonlarda ijtimoiy iqtisodiy sharoitni stabillashtirish lozim. Ishlab chikarishkuchlarini taksimlashda eng asosiy muammo bo`lib shimoliy va sharkiy rayonlardagi unikal tabiiy boyliklarni o`zlashtirish

xisoblanadi. Bunda chegara oldi rayonlarni kayta maxsuslashtirish, yangi davlatlar bilan chegaralarni kayta ta'minlash, erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish kerak bo`ladi. Xududiy rivojlanishga bog`lik bo`lgan muammolarni hal etish, chora tadbirlari kurish xududlarning o`ziga tegishli bo`lishi lozim. Shu bilan birga davlatning boshqaruv organlari tomonidan ularni tartibga solish, nazorat qilish va boshqarish lozim. Bunda barcha hududlar bozorga o`tishga bir xil darajada tayar emasligini nazarda to`tish kerak. Ularning kupchiligi iqtisodi rivojlanmaganligi sababli berk tizimga intiladilar va o`zlarining hududiy bozorini yaratishga xarakat kiladilar. Aksincha, sanoati rivojlangan hududlar ochik iqtisodiyot printsiplariga amal qilishiga qaramasdan, o`z mahsulotlarini O`zbekiston ichki bozoriga emas, balki chet mamlakatlarga chikarishni afzal kuradilar. Masalan neft bilan shugullanuvchi hududlar neftni ichki bozorda emas, balki jaxon bozorida sotadi, chunki u erda neftning narxi yukorirok. Bozor iqtisodiyotiga o`tish omadi va MDX mamlakatlarida da iqtisodiy islohotlar utkazish samaradorligi boshqaruv organlarining aloxida xududlarning muammolarini konkret hal qilish uslublariga bog`lik. Davlatning hududiy rivojlanishni tartibga solish hududlarda iqtisodiy reformalarni utkazishning unifitsial yo`lini inkor etadi, u hududiy siesatni utkazishda elastiklikni va shu paytning o`zida bozorning amal qilish umumiy printsiplarini birligini talab etadi. Hududiy rivojlanishni tartibga solishning asosiy ro`chaglari bo`lib mamlakat ba'zi regionlarini byudjet va byudjetdan tashkari moliyalashtirish, davlat, xususiy, xorijiy investitsiyalar, dotatsiyalar xisoblanadi. Tartibga solish hududlarga federal byudjet va boshqa manbalardan kelib tushaetgan mablaglar sarfini nazorat qilishni xam nazarda tutadi. Shuni ta'kidlab o`tish lozimki, davlat nisbatan rivojlangan hududlar federal organlaridan ho`jalik boshlanishlarini ragbatlantirishni, ularni mustaxkamlashni talab etadi. Rivojlanmagan hududlarda esa markazlarni strukturaviy kayta kurilish, bush ish joylarini yaratish, axolini yashash turmushini yaxshilash uchun moliyaviy erdamlar berish chora tadbirlarini utkazish dasturlarida ishtirok etishni tavsia etiladi. Davlat organlari kaysi soxa bilan shugullanmasin, iqtisod, ijtimoiy soxa, ekologiya, davlat xavfsizligi bo`lishidan kat'iy nazar uni hududiy soderjaniyasi bo`lishi lozim. Hududiy siesatni kurishda birlik va kup turlilik printsiplariga asoslanish lozim. Davlatning hududiy rivojlanishini tartibga solish ob'ekti bo`lib kup sonli va turli toifadagi federal, hududiy, munitsipal darajalarning taksonomik birliklari xisoblanadi, ularning muammolari echimlari kabi turli tumandir. Barcha taksonomik birliklar hududiy ho`jalik tashkilotining yagona murakkab tizimini tashkil etadi. Hududiy ho`jalik tashkiloti ostida turli hududiy tashkilotlar ho`jalik kompleksi - iqtisodiy rayonlar, turli darajadagi hududiy-ishlab chikaruvchi birlashmalar, yagona halk ho`jaligi tizimida faoliyat kursatuvchi sanoat markazlari tushuniladi. Hududiy ho`jalik tashkiloti halk ho`jaligini hududiy boshqarishda asos xisoblanadi, uning asosiy kismi esa federal okrugni tashkil etadi. Iqtisodiy rayonlashtirish hududiy iqtisodni rivojlanishini mukamallashtirishda asosiy yo`nalishdir va davlatning tartibga solish funksiyasini tashkil etishda birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy rayonlar tizimi maksadli va hududiy dasturlarni yaratishda moddiy va boshqa balanslarni kurish asosi xisoblanadi.

6.2. Iqtisodiy rayon va maqsadli rivojlanish dasturlari; iqtisodiy regionni tartibga solish shakli sifatida.

Zamonaviy iqtisodiy rayon-bu o`zining ishlab chikarish yo`nalishiga, mustaxkam iqtisodiy aloqlariga ega mamlakat halk ho`jaligining butun hududiy kismidir.

Iqtisodiy rayon mamlakat boshqa kislmlari bilan hududiy mehnat taqsimoti orqali bog`lik.

Iqtisodiy rayonlarining vujudga kelishi- hududiy mehnat taqsimotining tarakkieti va iqtisodiy, milliy va administrativ printsiplar asosida vujudga keladigan ob'ektiv

jaraendir. RFning zamonaviy iqtisodiy rayonlashtirishi o`zika uch buginni

oladi: rayonlashtirishning oliy bugini-federal okruglar; urta bugin- viloyatlar, respublikar; quyi rayolar- administrativ-ho`jalik rayonlar. Xar bir iqtisodiy rayon hududiy tarakkietda

o`zining belgilangan vazifalarini bajaradi. Shunday kilib rayonlashtirishning oliy bugini-federal okruglardan - federal organlar orqali umumdavlat hududiy iqtisodini boshqarish,

hududiy tarakkietning yirik dasturlarini yaratish va prognozlashtirish uchun

foydalaniladi. Rayonlashtirishning urta bugini, Federatsiyaning konkret sub'ektlari, davlat boshqaruvining bazasi bo`lib xisoblanadi.

Rayonlashtirishning quyi bugini, ya'ni shaxar va administrativ rayonlar, urta bugin rayonlari va mahalliy administratsiya asosida

faoliyat kursatadi. Federal okruglar va quyi rayonlar bugini territoriyasida, hududiy ho`jalikni

tashkil etishning samarali formalari bo`lmish hududiy-ishlab chikaruvchi komplekslarning maqsadli dasturlari ishlab chikilmokda. Ular ixcham territoriyada joylashgan va o`zinin

bozor spetsalizatsiyasiga ega iqtisodiy va texnologik tomondan bir biriga bog`lik korxonalar majmuini tashkil etadi.

Hududiy-ishlab chikaruvchi komplekslar unikal tabiiy boyliklar eki muhim ahamiyatga ega sanoat ob'ektlari, masalan elektrostantsiyalar, bazasida yaratiladi. Hududiy-ishlab

chikaruvchi komplekslarning maqsadli dasturlarini rivojlantirish dasturlari davlat mikesida to`ziladi va kabo`l kilinadi, ular federal byudjet tomonidan moliyalashtiriladi. Ular asosida

yangi iqtisodiy rayonlar shakllanadi. Hududiy prognozlar kabi hududiy tarakkietning maqsadli dasturlari davlat tomonidan tartibga solish shakli xisoblanadi. Prognozlar o`z

ichiga anik hududiy muammolarini hal qilishni ta'minlaydigan iqtisodiy, ilmiy-texnik tadbirlarni oladi. Bunga ho`jalik oborotiga kiritish uchun yangi samarali tabiiy resurslarni

kiritish, eki shu davrda davlat uchun muhim muammolarni hal etish kiradi. Xozirda iqtisodiy rayonlashtirish asosiga 7 ta federal okrug - Shimoli-Garb, Markaziy, Janubiy, Ural,

Privoljsk, Sibir, O`zok Sharkiy, urta rayon bugini-viloyatlar, respublikalar, Federatsiya sub'ektlari kiradi. Moskva va Sankt-Peterburg iqtisodiy rayon statusiga ega, iqtisodiy

rayonlashtirish tizimiga urta rayon buginiga kiruvchi administrativ ho`jalik quyi rayonlari xam kiradi. Bozor iqtisodiyotiga o`tish davri hududiy ho`jalikning yangi shakli - federal

markaz tomonidan rivojlanishi ragbatlantirilaetgan erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish bilan xarakterlanadi. O`zok Sharkdagi

«Naxodka», Kaliningrad viloyatidagi «Yantar», Moskvadagi «Zelenograd», «Sankt - Peterburg» va boshqa iqtisodiy erkin zonalar rivojlanmokda. Iqtisodiy erkin zonalar

boshqa hududiy tashkilotlardan moliyalashtirilishi, infrastruktura tarakkietining yukori darajasi bilan ajralib turadi.

Biz yukorida, bozor iqtisodiyotiga o`tish davrida iqtisodiy islohotlarni va ayniksa markaz xamda regionlar urtasidagi aloqlarni davlat tomonidan tartibga solish rolini nakadar kattaligi

ta'kidlab utgan edik. Barcha regionlar bir xil sharoitda emas, ularning bir qismi davlatdan kushimcha xukuk va ragbatlarni olishga erishganlar. Shunday kilib, bir kator respublika va viloyatlar eksportdan tushgan valyutani

ahamiyatli kismini o'z ixtieri bilan ishlatish xukukiga ega, lekin bunda tenglik mavjud emas. Hududlarda iqtisodiy bozor islohotlari sekin va notekis ketmokda. Moskva, Sankt-Peterburgda va ba'zi boshqa regionlarda ular nisbatan tez va samarali ketmokda.

Islohotlarning unifitsial uslub bilan utkazilishi ular yo'lini tuxtatmokda. Xar bir region xususiyatlarini e'tiborga olish juda muhimdir. Markaz va aloxida milliy avtonomiyali regionlar, boy tabiiy resurslarga ega regionlarning urtasidagi o'zaro aloqlari tugrisida xususiy kelishuvlarni to'zish amaliyeti o'zini oklamagan usul bo'lib chikdi.

Davlat tomonidan hududiy rivojlanishni tartibga solishni mukkamallashtirish bo'yicha tadbirlar avvalambor hududlarda ijtimoiy iqtisodiy protsesslar boshqaruvini kayta ta'minlashga qaratilishi kerak. Buning uchun, Federatsiya sub'ektlarining islohotlar utkazish bo'yicha ma'suliyatini oshirish va iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishning nazoratini federal darajadan hududiy darajaga utkazish, hududiy byudjet va hududiy byudjetdan tashkari fondlarni oshirish kerak. Makroiqtisodiy tartibga solish mikroiqtisodiy tartibga solish bilan tuldirilishi kerak, bu islohotlarni boshqarish protsesslarini markazlashishini bartaraf etadi, joylarda iqtisodni aktivlashtiradi,

ayniksa tadbirkorlikni, mulkchilikning turli shakllarini, rakobatga asoslangan bozor muxitini yaratishga undaydi. Davlat hududiy tarakkietini tartibga solishning birlamchi tarkibi bo'lib, joriy balanslashtirish muammolarini hal qilishga, iqtisodiyotni barkarorlashtirishga, ishlab chikarish tempi susayishini oldini olishga, iksodni moliyaviy soglomlashtirishga yo'naltirilgan, administrativ va xukukiy tartibga solish xizmat qilishi kerak. Iqtisodiy rivojlantirishni tartibga solishda o'zok va urta muddatli strukturaviy dasturlar muhim rol uynaydi. Dasturlarni byudjet bilan moslashtirish kerak. Dasturlar kiymati moliyalashtirish chegaralaridan oshmasligi kerak, aks xolda ularning bajarilishi noreal bo'lib koladi. Davlat hududiy dasturlarining boshqarish bo'yicha asosiy ish ijro etuvchilarga yuklatilganligi sababli, tartibga soluvchi

funksiyalarning bir kismini bajaruvchi dasturlarga utkazish lozim. Shu maksadda davlat, xususiy, aralashgan kompaniya va agentliklar yaratish

ko'zda tutiladi. Dasturlar bilan birgalikda, davlat hududiy tarakkietini tartibga solishning muhim yo'nalishlari bo'lib, rivojlanishning kompleks prognozlar va MDX mamlakatlarida ishlab chikaruvchi kuchlarini kiska va o'zok muddatlarga joylashtirish xisoblanadi. Ikkinchi tarkibi bo'lib iqtisodiy tartibga solish xisoblanadi.

Davlat tomonidan hududiy tarakkietni tartibga solishda rayonlarni mikro- va makrodarajada tipologizatsiyalash zarurdir. Bunda regionning geografik sharoitini, tabiiy-rusurlari potentsialini, ijtimoiy iqtisodiy rivojlanganligini, ho'jalik strukturasi, infrastruktura va nixoyat tashki iqtisodiy aloqlar rivoji darajasini e'tiborga olish

zarur. Davlat tomonidan hududiy tarakkietni tartibga solishni mukkamallashtirish uchun boshqaruvning yagona tizimini shakllantirish kerak. Xozirda Federatsiya va regionlarning kizikishini ko'zda tutadigan hududiy boshqaruv tizimi yaratilmaganligi sababli, sekinlik bilan mahalliy boshqaruvni davlat xukmidan chikarish kerak. Buning uchun bir tomondan konstitutsion normalar va umumdavlat qonunchiligini, ikkinchi

tomondan Federatsiya sub'ektlari qonunchiligini nazarda tutadigan yagona normativ xukukiy tizimni yaratish kerak. Yukorida ta'kidlangani dek, bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida

davlat tomonidan hududiy rivojlanishni tartibga solishning asosiy usuli bo`lib dasturlar ishlab chiqish va ularni tatbik etishdir. Bo`lar ichida ayniksa Sibir, O`zok Shark, Chekka Shimol bo`yicha dasturlar kupdir, Shimolning kam sonli axolisi bo`yicha dasturlarga «Deti Severa» va boshqalar kiradi. Markaziy regionlar bo`yicha xam bir kator dasturlar ishlab chikilgan: Tver, Pskovsk viloyati, Mordaviya Respublikasi, shuningdek Povoljya, Ural, Shimoliy Kavkaz regionlari va boshqalar. Aloxida yo`nalishlar bo`yicha dasturlar kabo`l kilingan: «Konversiya oboronnoy promo`shlennosti», «Toplivo i energiya», «Razvitie elektronnoy texniki» va boshqalar, shuningdek bir kator ijtimoiy dasturlar: «Migratsiya», «Jile», «Deti Chernobo`lya» va boshqalar. Shu katorda shuni ta'kidlash lozimki, territoriyalarni

ekologik soglomlashtirishni ko`zlovchi dasturlar xam mavjud. Lekin davlat va hududiy miqyosda kabo`l kilingan dasturlar tulik darajada bajarilmaydi. Buning sababi moliyalashtirishni tulik emasligi, investitsiyalarni pasayishi, va albatta dasturning bajarilishini etarli darajada nazorat kilinmasligidir. Dasturlar bajarilishiga quyidagi faktorlar salbiy ta'sir kiladi:

- etarlicha ishlab chikilgan davlat va hududiy dasturlarning yukligi, ularning bajarilishini etarlicha asoslanmaganligi, ketma ketligi yukligi
- davlat yo`nalishli dasturlarning hududiy aspektlarini sust ishlab chikilganligi
- yo`nalishli dasturlar aspektlarining monitoringini yukligi
- zudlik bilan joriy etilishni talab kilmaydigan, ikkinchi darajali kup dasturlarni federal maksadli dasturlar tarkibiga kiritilganligi
- federal va hududiy dasturlarning joriy etilishining sust mexanizmi ishlab chikilganligi
- dasturlar bajarilishini etarlicha nazorat kilinmasligi

Davlat tomonidan hududiy tarakkietni tartibga solishni mukammallashtirishda administrativ reshenie emas, balki iqtisodiy regulyatorlar ahamiyatga egadir.

Federatsii sub'ektlari ichida tushkunlik chegaralarini va krizisli areallarning analizlashtirish maksadida mikrodarajali rayonlashtirish maksadga muvofik. Buning maksadi federal byudjetdan adresli erdamni birinchi urinda shu rayonlarga yo`naltirishdir. Hududiy tarakkietni tartibga solishning yangi shakli bo`lib fondlar yaratish, hududiy dasturlarning realizatsiyasi xisoblanadi. Bu kabi fondlar RFning bir kator regionlarida mavjud. Davlat va hududiy kapital ishtirokidagi hududiy korporatsiyalar, shuningdek xususiy va xorijiy kapitallar mamlakat sharqiy va shimoliy regionlarining unikal resurslarini o`zlashtirishning mexanizmlaridan biridir. Hududiy iqtisodiy va boshqaruv muammolar chukur ilmiy izlanishlar asosida urganish bilangina davlat tomonidan hududiy tarakkietni tartibga solishning samarali tizimi yaratiladi.

Qisqacha hulosalar

1. Mintaqaviy iqtisodiyotni tartibga solish bu hududlarning rivojlanish qonuniyatdari va ishlab chiqarish kuchlarining taqsimotiga asoslanadi. Hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini tenglashtirish davlatning mintaqaviy rivojlanishini tartibga solishdagi doimiy va istiqbol vazifasi hisoblanadi.

2. Iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy bosqichida hududlar bo'yicha mehnat taqsimotini yo'lga qo'yishni, ularni birlashtirish va mehnatni o'zaro moslashtirish orqali takomillashtirish muhimdir.

3. Iqtisodiy hududlar mamlakatning boshqa qismlar bilan mintaqaviy mehnat taqsimoti orqali bog'liq bo'ladi va ularni vujudga keltirish mintaqaviy mehnat taqsimotining taraqqiyoti iqtisodiy milliy va boshqaruv printsiplari asosida namoyon bo'ladigan ob'ektiv jarayondir.

Tayanch iboralar.

Hududiy rivojlanish, iqtisodiy rayonlar, mehnat taqsimoti, tabiiy geografik, mehnat resurslari, ho'jalik tashkiloti.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Davlatning hududiy rivojlanishini tartibga solish ob'ekti bo'lib nimalar hisoblanadi?
2. Hudud taraqqiyotini tartibga solishning yangi shakillari qanday olib boriladi?
3. Hudud ho'jalik tashkiloti kompleksiga nimalar kiradi?
4. Radikal iqtisodiy islohotlar tushunchasiga nimalar kiradi?
5. Hududiy rivojlanishning asosiy richaglariga nimalar kiradi?
6. Makroiqtisodiy va mikroiktisodiy tartibga solishning farqi?
7. Dasturlarning bajarilishiga kanday omillar salbiy ta'sir qiladi ?

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Toshkent 2003 y.
2. «Sug'urta faoliyati to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. «Xalq suzi». 2002 y. 28 may.
3. «Tashqi iqtisodiy faoliyat tug'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Xo'jalik va huquq» 2000 y. 9 - son
4. «Chet el investitsiyalari to'g'risida» gi qonun. 1998 y. 30 aprel. O'zbekiston Respublikasi
5. «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tabirlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
6. «Tug'ridan-tug'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish boasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Farmoni. Xalq so'zi. 2005 y. 12 aprel.

7.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «O`zbekiston ovozi» 2005 y. 29 yanvar.

8. Karimov I.A.«Erishilgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo`llarini izlab borish-asosiy vazifa» Halk so`zi 2004 y. 10 fevral.

9.Babushkina.A.I.Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. 2004g. M. Finanso` i statistika. 480. str.

10.Fareycheva .G.V. Sistema obhestvenno`x potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii.M. MGU. TEIS. 2004g. 230 str.

11.N.L.Shagas., E.A.Tumanova. Makroekonomika-2. Uchebnoe posobie. Vo`pusk novo`y. Dolgosrochno`y aspekt. M. TEIS. 2004g. Ekonomicheskiiy fakultet im M.V. Lomonosova MGU.122 str.

Internet ma'lumotlari.

- 1.Informatsiya, innovatsii, investitsii - 2004 - <http://www.informika.ru/text/exhibit/papers/2004/c11-3doc>
- 2.<http://www.review.uz/home/azticle.asp>
- 3.<http://www.biblio.rkg/enc/aztag/humanitariang/cicle.htm>
- 4.<http://www.vqi.freenet.trudyg/dratisviko.htm>
- 5.<http://www.yabloko.ru/themes/belorus/belfrus-25.html>
- 6.<<http://www.vqi.freenet.lezg/trudyg/bratisvriko.htm>>
- 7.«Ekonomicheskiiy vestnik Uzbekistana» № 1,2. 2004
- 8.<http://www.aduiser.Kgiscripts>

7-BOB.Resurslar bozori va uni tartibga solish.

7.1. Resurslarni chegaraviylik daromadliliigi.

Alohida bir firmaning resurslarga bo`lgan ehtiyoji qanday aniqlanadi. Bu, ushbu resurs yordamida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotga bo`lgan talabga bog`liqdir,shuning uchun, mahsulotga bo`lgan talab qancha katta bo`lsa, uni ishlabchiqarishga zarur bo`lgan resurslarga ham samarali foydalanish natijalariningo`zgarishini hisobga olgan xolda ehtiyoj katta bo`ladi. Mana, misol uchun, rivojlangan mamlakatlarda energoresurslarga bo`lgan talab juda sekinko`tarilmoqda. Talabga ta'sir qiladigan boshqa omillardan biri, bu resursning

narhidir. Resurs sotib olishga qaratilgan firmaning mablag`lari uning ishlab chiqarish qoldiqlariga kiradi, shuning uchun ham firma resurslarni maksimal foyda olish imkonini beradigan miqdor va ishlatishga harakat qiladi.

Firma ishlatayotgan resurslarning miqdori ularning kaytimiga yoki unumdorligiga bog`liq. Oxirgisi kamayuvchi kaytim qonuniga aloqadordir. Shuning uchun firma resurslarning ishlatilishini, har bir qo`shimcha resurs, uning foydasini yana katta darajada (qoldiqlardan ko`ra) oshirginigacha kengaytiraveradi.

Qanday qilib qo`shimcha resurslarning ishlab chiqarishga kiritilishi firmaning foydasiga ta'sir qiladi. Har qanday resursning ishlatilishini oshirish mahsulot ishlab chiqarishini ko`paytiradi, bu esa firmaning foydasini oshirishi deganidir.

Firma faqat bitta o`zgaruvchan resurs ishlatadi deb faraz qilaylik. Bo`lar, mehnat, alohida bir turi va boshqarlar bo`lishi mumkin. Mahsulot ishlab chiqarishini berilgan resursning ishlatilishini ko`paytirishi yo`li bilan natural manoda oshirishni, eng oxirgi mahsulot deb atadik. Firma foydasining berilgan resursning qo`shimcha yordamida oshirish resursning eng yuksak foydaliligi yoki eng oxirgi mahsulot daromadi deb ataladi. Eslaylik-chi, eng oxirgi mahsulot avval oshadi, keyin esa kamayib boruvchi qaytim qonuniga binoan kamayishini boshlaydi. X firmasi resursining eng yuksak foydaliligini ko`rib chiqaylik. Agarda firma mukammal raqobat shartlari ostida faoliyat ko`rsatayotgan bo`lsa, ishlab chiqarilgan mahsulot narhi o`zgarmas bo`ladi va ishlab chiqarish hajmiga bog`liq emas, Agarda o`sha firma mukammal raqobatli bo`lmasa, sotish hajmini kengaytirganda narhni tushirishga majburdir.

Shunga mos ravishda nomukammal raqobatchi va raqobatchi firmaning firma resursining eng yuksak daromadliligi bir-biriga to`g`ri kelmaydi. Bu xolat firma uchun zarurdir, chunki eng yuksak foydali firma ishlatadigan resursning miqdorini belgilaydigan omillardan biri hisoblanadi.

Lekin berilgan resurslarning ishlab chiqarishda ishlatilishini kengaytirish uchun, firmaga qo`shimcha resursning uning foydasining oshishiga qanday ta'sir qilishini bilishi etarli emas. U har doim qoldiqlarni foyda bilan takkoslaydi va daromadni belgilaydi. Shuning uchun, qo`shimcha resurs ishlatilishini sotib olish qoldiqlarning ko`payishiga ta'sirini aniqlashi kerak.

7.2. Resurslarning chegaraviy xarajatlari

Harajatlarning ishlab chiqarishga qo`shimcha o`zgaruvchan resurslarning ko`shilish hisobiga oshishiga resurslarning chegaraviy harajatlari deyiladi. Firma resurslar bozorida mukammal raqobat sharoitlariga duch kelganda, uning resursga bo`lgan chegaraviy harajatlari ushbu resursning narhiga teng bo`ladi. Misol uchun, agarda bir firma buxgalter yollamoqchi bo`lsa, u xolda unga ish xaqi bozor stavkasiga binoan beriladi. Firmaning talabi, butun buxgalterlarga bo`lgan talabning oz bir qismini tashkil etganligi uchun, ularning ish xaki darajasiga ta'sir qilmaydi. Firma uchun mehnatga xaq to`lash uchun ajratilgan chegaraviy harajatlar gorizontal chiziq shaklida ko`rinadi.

7.2. Resurslarga bozor talabi

Agar firma soʻra qabat bozorida faoliyat koʻrsatayotgan boʻlsa, yoki boshqacha qilib aytganada, berilgan resursning umumiy isteʼmol hajmida uning ulushi juda kam boʻlsa va shuning uchun uning bozor narhiga taʼsir kila olmasa, unda uning resursga talab egri chizigʻi resursning chegaraviy daromadliligi egri chizigʻi bilan mos tushadi.

Bunda bozor berilgan resursdan ishlab chiqariladigan tayyor mahsulot bozori boʻladimi, monopol yoki raqobatli bozor boʻladimi, buning ahamiyati yoʻk. Oxirgisi faqat firma tomonidan resursga boʻlgan talab egiluvchanligiga taʼsir qiladi (monopolist talabi kamrok egiluvchan).

Resursga bozor talabi berilgan resursdan ishlab chiqarish jarayonida foydalanuvchi turli tarmoqlardagi barcha firmalar talablari yigʻindisini oʻzida ifodalaydi.

Resursga talabning tarmoqda shakllanish jarayonini koʻrib chiqamiz. Tarmoqda berilgan resursga koʻplab isteʼmolchilar mavjudligini hamda unga talab tayyor mahsulotga boʻlgan talabga bogʻliqligini hisobga olib, tarmoqda resursga talab egri chizigʻi resurs narhining oʻzgarishi tayyor mahsulot narhining oʻzgarishi tayyor mahsulot narhining oʻzgarishiga olib kelishi yoki olib kelmasligiga bogʻliq boʻladi.

1. Agar tayyor mahsulot Narhi oʻzgarishsiz qolsa, tarmoq talab egri chizigʻi tarmoqqa kiruvchi barcha firmalar yigʻindisi sifatida aniqlanishi mumkin.

2. Agar resurs narhining tushishi natijasida tayyor mahsulot narhi tushsa, tarmoq talab egri chizigʻi tarmoqqa kiruvchi barcha firmalar talabi yigʻindisidan kam boʻladi. Nima uchun bunday boʻladi. Harajatlarning kamayishi tarmoq taklifining koʻpayishiga olib keladi, bu oʻz navbatida, muvozanat narhini tushiradi. Agar narh oldingi xolatida kolsa edi, ishlab chiqarishning kengayishi ancha sezilarli boʻlardi va uni taʼminlash uchun koʻprok resurs talab qilinardi.

Shuning uchun resursga tarmoq talabi alohida firma talabiga nisbatan kamrok egiluvchan. Iqtisodiyotda resursga talabni berilgan resursdan foydalanadigan barcha tarmoqlarning shu resursga talabini jamlab topish mumkin. Talab egiluvchanligiga nima taʼsir qiladi. Resursga boʻlgan talab egiluvchanligiga taʼsir kiluvchi omillarni belgilaymiz: Resurs chegaraviy daromadliligining oʻzgarishi. Agar chegaraviy daromadlilik asta-sekin pasaysa, unda resursga talab nisbatan egiluvchan. Va aksincha, daromadlilikning pasayish tezligi yuqori boʻlsa, talab nisbatan noegiluvchanlik yoʻnalishiga ega boʻladi. Resurslarning oʻzaro oʻrinbosarliligi. Agar berilgan resurs boshqasi bilan oson almashtirilishi mumkin boʻlsa, unga talab nisbatan egiluvchan. Firma harajatlari resurslar ulushi. Bozor iqtisodiyoti

sharoitida korxonada tuzilma ida berilgan resurs qancha katta ulushni egallasa, resursga talab egiluvchanligi shuncha yuqori boʻladi. Masalan, energetik resurslar narhining oshishi unga ishlab chiqaruvchilar isteʼmolining qisqarishiga, energiyani tejavchi uskunalarni qoʻllashga olib keldi. Boshqa tomondan, kantselyariyaga tegishli harajatlar firma harajatlari ulushida juda kichik ulushga ega va ularning qimmatlashuvi ularni isteʼmiol qilish hajmiga taʼsir qilmaydi.

Berilgan resursdan ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotga talab egiluvchanligi. Isteʼmol mahsulotlari -sut, goʻsht, non kabilarga talab nisbatan noegiluvchan, shuning uchun ularni ishlab chiqarish uchun ham ashyoga talab ham noegiluvchanlik yoʻnalishiga ega boʻladi. Alohida firma tomonidan resursga talab egiluvchanligi ham

tayyor maxsulolar bozori tuzilma iga bog`liq. Agar tayyor mahsulotlar bozori sof raqobatli bo`lsa, unda firmaning resursga talab egiluvchanligi nomukammal raqobat sharoitiga nisbatan yuqori bo`ladi. Resursga bo`lgan talabga nima ta'sir qiladi.

Narhdan tashqari talabga qanday omillar, uning egri chizig`ini O`ngga yoki chapga surib, ta'sir qiladi? Resursga talabning narhsiz omillariga quyidagilar kiradi:

Berilgan resursdan ishlab chiqariladigan tayyor mahsulotga talabning o`zgarishi. Bunday o`zgarishlar iste'molchilar daromadining o`shishi yoki kamayishi, yangi tovarlar va yangi iste'molchilar didining paydo bo`lishi va hokazolar natijasida yuz berishi mumkin. Masalan, sog`lom hayot targ`iboti iste'molchilar talabini past kaloriyalı iste'mol maxsulolarini sotib olish tomoniga o`zgarishiga olib keldi, bu tuzilma ida ko`p miqdorda kand moddasi bo`lgan konditer mahsulotlariga

talabni kamaytirdi. Bu esa o`z navbatida ozik-ovqat tarmog`i tomonidan shakarga bo`lgan talabning kamayishiga ta'sir qildi. Boshqa resurslar narhi. Agar qandaydir boshqa resurs berilgan resursga o`rinbosar bo`lsa va uning narhi tushsa, boshqa sharoitlar bir xil bo`lganda berilgan resursga talabning pasayishiga olib keladi. Agar

ikkita bir-birini o`rnini bossa, unda ulardan birining narhini tushishi boshqasiga talabni oshiradi. Masalan, 70-yillarda neft narhining oshishi narhi oldingi darajada qolgan boshqa energoresurslarga talabning ko`payishiga olib keldi. Bir vaqtning o`zida benzina talabning kamayishi ko`zatildi. Ishlab chiqarish texnologiyasidagi o`zgarishlar. Yangi texnologiya barcha turdagi resurslarni tejashga, ularni iste'mol qilishni kamaytirishga imkon beradi. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot birligidagi barcha resurslarga harajatlar qisqaradi. Lekin ishlab chiqarishning resurs sig`imini qisqarishi mahsulot chiqarishni kengaytirish bilan

koplanadi va talab qilinadigan resurslarning umumiy hajmi ko`payishi mumkin.

Qisqacha xulosalar.

1. Iqtisodiy resurslar o`z ichiga oladi: tabiiy (er, er osti, suv, o`rmon) resurslarni, mehnat, investitsiya (ishlab chiqarish binolari, dastgoxlar, xom ashyo, materiallar va xokazo) resurslarini, ishbilarmonlik kobilyatini. Resurslar uchun to`lov yoki baho bo`lib, mos ravishda renta, ish xaki, foiz va ishbilarmonlik daromadi hisoblanadi.

1. Alohida firma tomonidan resursga talab ularning chegaraviy daromadliligi bilan aniqlanadi. Har qanday o`zgaruvchi resursning chegaraviy daromadliligi kaytimning kamayib borishi qonuniga muvofiq asta-sekin kamayib boradi. Firma to resursning chegaraviy daromadliligi uning chegaraviy harajatidan yuqori bo`lgandan bu ikki ko`rsatkich tenglashguncha resursdan foydalanish hajmini kengaytirib boradi. Qachonki firmaning resursga talabi unga bozor talabining kichik ulushini tashkil qilsa, berilgan firma uchun chegaraviy harajatlar unga teng.

3. Firma o`ziga minimal harajatlarni ta'minlaydigan foydalaniladigan resurslar birikuvini tanlashga intiladi. Bu agar har bir resursning chegaraviy daromadliligi uning narhiga mutanosib bo`lsa, mumkin.

4. Bozor talabi berilgan resursdan foydalaniladigan barcha firma va tarmoqlarning talablari yig`indisini ifodalaydi. Resursga bozor talabi alohida firma talabi alohida firma talabiga

nisbatan kamroq egiluvchanlik yo`nalishiga ega bo`ladi. Narhga bog`liq egiluvchanlik resursning chegaraviy daromadlilikiga, o`rinbosar resurslarning mavjudligiga, firma harajatlari berilgan resursning ulushiga hamda tayyor mahsulotga narhli egiluvchanlikka bog`liq.

Tayanch iboralar

Chegaraviy daromadli, egiluvchanli, firma harajatlari, egri chiziq, korxonalar tuzilmasi, energetika resurslar.

Nazorat va muhoka uchun savollar:

1. Alohida bir firmaning resurslarga bo`lgan ehtiyoji qanday aniqlanadi?
2. Qanday qilib qo`shimcha resurslarning ishlab chiqarishga kiritilishi firmaning foydasiga ta'sir qiladi?
3. Resurslarning chegaraviy harajatlari nimalarga deyiladi?
4. Talab egiluvchanligiga nima ta'sir qiladi?
5. Narxdan tashqari talabga qanday omillar ta'sir qiladi?
6. Resurslarning chegaraviy xarajatlari deb nimaga aytiladi.
7. Firma resurslar bozorida mukammal rakobat sharoitlariga duch kelganda uning resursga bo`lgan chegaraviy xarajatlari nimaga teng bo`ladi ?

Asosiy adabiyotlar.

1. O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O`zbekiston Toshkent 2003 y.
2. «Sug`urta faoliyati to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni. «Xalq suzi». 2002 y. 28 may.
3. «Tashqi iqtisodiy faoliyat tug`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni «Xo`jalik va huquq» 2000 y. 9 - son
4. «Chet el investitsiyalari to`g`risida» gi qonun. 1998 y. 30 aprel. O`zbekiston Respublikasi
5. «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
6. «Tug`ridan-tug`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ra`batlantirish boasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Farmoni. Xalq so`zi. 2005 y. 12 aprel.
7. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «O`zbekiston ovozi» 2005 y. 29 yanvar.
8. Karimov I.A. «Erishilgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo`llarini izlab borish-asosiy vazifa» Halk so`zi 2004 y. 10 fevral.
9. Babushkina. A.I. Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. 2004g. M. Finanso`i statistika. 480. str.
10. Fareycheva .G.V. Sistema obhestvenno`x potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii. M. MGU. TEIS. 2004g. 230 str.

11.N.L.Shagas., E.A.Tumanova. Makroekonomika-2. Uchebnoe posobie. Vo`pusk novo`y. Dolgosrochno`y aspekt. M. TEIS. 2004g. Ekonomicheskii fakultet im M.V. Lomonosova MGU.122 str.

Internet ma'lumotlari

1. WWW. economyta - culty. uz.
2. Novosti Uzbekistana - www.uzreport.com
3. Informatsiya, innovatsii, investitsii - 2004 - [http:g`g`www.informika.rug`textg`exhibitg`papersg`2004g`c11-3doc](http://www.informika.rug/textg/exhibitg/papersg/2004g/c11-3doc)
4. [http: g`g` www. Review.uz g`homeg` azticle.asp? mq62Rio\)q177](http://www.Review.uz/g`homeg`azticle.asp?mq62Rio)q177)
5. [http: g`g` www. Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm](http://www.Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm)
6. [http: g`g` www. vqi.freenet. g`trudyg`dratisviko.htm](http://www.vqi.freenet.g`trudyg`dratisviko.htm)
7. [http: g`g` www. Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html](http://www.Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html)
15. <[http:G`G`www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisviko.htm](http://www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisviko.htm)>

8-BOB.Mehnat bozorini davlat tamonidan tartibga solish yo`nalishlari va shakllari.

8.1.Davlat tomonidan mehnat bozorini tartibga solishning asosiy yo`nalishlari

Mehnat bozorini tartibga solish davlatni sotsial-iqtisodiy jarayon tartibga soluvchi alohida sfera va shaklini taqdim etadi. Davlatni tartibga solishni bu sohasini o`rganish uni vositalari va qarashlarini ko`p qirrali ekanligini to`laroq tasavvur qilishga yo`l qo`yadi. Mehnat bozorini tartibga solish aniq sotsial-iqtisodiy

sharoitlarda bandlik darajasini mutanosib yutuqlari kasbiy strukturadagilarni ish o`rinlarini egallab turgan kasbiy strukturadagi band bo`lganlariga nisbati ishsizlik oqibatini yumshatishga qaratilgan. Ishchi kuchiga talabning kattaligi to`zilmasiga ta'sir ko`rsatuvchi davlat chora - tadbirlari - bu mavjud ish o`rinlarini qisqartirish hisobiga yangi ish o`rinlarini yaratishdir. Umumiy yo`naltirilgan ma'muriy chora tadbirkorlar ishlash va dam olish rejimini tartibga solishga olib keladi. Qonun chiqaruvchi davlatlardagi mamlakatlar - ish haftasining maksimal davomiyligini o`rnatadilar. Bu kattalik ish o`rinlarining soniga ta'sir ko`rsatada, haftaning maksimal davomiyligini qisqartirish qo`shimcha ish o`rinlarini tashkil topishiga olib keladi.

MDX mamlakatlarida sharoitida bunday choralar ma'lum darajada ehtiyotkorlikni talab qiladi, bir tomondan u ham ishlayotganlar uchun ishsizlik darajasini pasaytirishga va mavjud ishsizlikni kamaytirishga imkon beradi, ikkinchi tomondan umumiy iqtisodiyotning samaraviyligiga salbiy ta'sir ko`rsatishi mumkin.

Aholini alohida guruhlariga o`zining ta'sirini ko`rsatuvchi, tartibga solishning ma'muriy ixtisoslashgan chora - tadbirlari orasida nogironlar uchun ish o`rinlarini chegaralashni alohida ajratib o`tishi lozim. Bu ish beruvchilarni teskari munosabatini keltirib chiqaradi, shuning uchun bunday himoyalangan ma'muriy chora - tadbirlar odatda ma'lum odamlar guruhiga ish taklif qiluvchi tadbirkorlarga iqtisodiy raqobatlantirish ta'siri bilan to`ldiriladi. Bu avvalambor soliq imtiyozi va subsidiyalar to`lashdir.

Davlat iqtisodiyotini tartibga solishni umumiy iqtisodiy yagona-tadbirlari orasida quyidagilarni ajratish mumkin:

- Korxonani ochish uchun yordam.
- Ishlab chiqarishni kengaytirish uchun davlat subsidiyasi.
- Yangi davlat korxonalarini ochish.
- Iqtisodiyotni pasayishi davrida davlatni sanoat ishlab chiqarish qonunlarini taqdim etish.
- Jamoa ishlarini tashkillashtirish.

Ixtisoslashtirilgan iqtisodiy chora - tadbirlar qatorida alohida e'tibor nogironlar uchun tashkilotlarni yaratib berishga qaratilgan.

Bunday tashkilotlarning raqobatbardoshligi kamroq, shuning uchun davlat tomonidan moliyaviy yordamga muhtoj.

Jamoa ishlarini tashkillashtirish - mehnat bozorida o`zini amalda qo`llanilmaganlar uchun vaqtinchalik ish o`rinlarini yaratish usulidir.

Davlat ishchi kuchi taklifini to`zilishi va kattaligini tartibga solishni iqtisodiy vositalariga ega. Soliqlar dastagi ishchi kuchi taklifini rag`batlantirishga yoki chegaralashga imkoniyat yaratadi. Ishchi kuchi taklifini rag`batlantirishga yoki chegaralashga imkoniyat yaratib beradigan soliqlar dastagi o`zi bir guruhni ifodalaydi, qaysiki uni ham iqtisodiy ham ma'muriy xarakterlash mumkin. Kishining ishlayotgan joylari soniga qarab oshuvchi daromad solig`ining stavkasi ish bilan

band bo`lganlar tomonidan ish o`rinlariga bo`lgan talabni pasaytirishga imkoniyat yaratib beradi. Taklifni to`zilishini tartibga soluvchi iqtisodiy chora-

tadbirlarga bandlik fondi hisobidan aholini qayta tayyorlash tashkiloti kiradi. Ish haqiga ta'sirni talab va taklifni ma'lum darajada tartibga solishni umumiy iqtisodiy usuli sifatida qarash mumkin. Ishchi kuchi taklifiga ta'sir ko`rsatish aniq, chunki ish hiqining yuqoriligi ko`proq mehnatni ishlatish sohasini hamda bir necha joyda ishlashga intilishni aniqlaydi.

Boshqa tomondan davlat ish haqi doirasida aniq siyosatni olib borishi yoki qo'llab-quvvatlashi ishchi kuchi o'sishi va talab strukturasi ta'sir qilishi mumkin. Uning aralashuvi ma'muriy yoki iqtisodiy bo'lishi mumkin. Ish vaqtining davomiyligiga ta'siri va ish vaqtining birligiga to'lov odatda ma'muriy xarakter kasb etadi, ko'pchilik rivojlangan davlatlarda ish haftasini maksimal davomiyligi va minimal ish haqini reglamentlash qiladilar. Shunday tarzda MDX mamlakatlarida bandlik sohasidagi davlat siyosati ish haqini tartibga solish, yangi ish o'rinlarini yaratishni rag'batlantirish va tadbirkorlikni rivojlantirish, ishsizliklarga o'z ishlarini tashkil etishlari uchun yordam ko'rsatish, nogironlar bandligini himoyalovchi tashkilotlar tarmoqlarini, ishchilarini etkazib beradigan tashkilotni, jamoa ishlari tashkilotini to'zish, ishsizlik bo'yicha nafaqa to'lashni o'z ichiga oladi. Bo'larning hammasi nazariyada, amaliyotda esa tartibga solish instrumentlari yoki amal qilmaydi yoki kam effektidir. Rivojlanishning bu bosqichida MDX mamlakatlarida uchun bandlik jarayonlarini faqatgina mehnat bozori va raqobat orqali tartibga solish mexanizimiga qayta yo'naltirish befovdadir. Bunday mehanizm ish haqini yashash minimumidan juda pastligi dam olish va sog'liqni tiklashni, turar joy va transport qiymatliligi, ishchi kuchini erkin ko'chishini qiyinlashtirishi sababli effektiv ishlay olmaydi. Oxirgi vaqtda aholini yashash sifati darajasini aniqlovchi MDX mamlakatlarida iqtisodiyotini o'sishini hal qiluvchi olish bo'lib hisoblanuvchi bandlik va jamoa tashkilotiga etarliga baho berilmagan. Makroiqtisodiy jarayonlarni tartibga solish mexanizmini integral bo'lagi ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni echishni aktiv vositasi sifatida bandlikni roliga ham etarlicha baho berilmagan. Bandlik siyosati MDX mamlakatlarida ni ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishi va islohatlar strategiyasiga etarlicha kiritilmagan va uning tadbiriq etish choralari kuchsiz amalga oshgan. Shuning uchun 1992-1999 yillarda bandlik jarayonlari faqatgina katalizator bo'libgina qolmay xuddi shunday islohatlar tormog'i ham bo'lgan. Bandlik siyosatini asossizligini mehnat bozoridagi ko'rsatkichlardan biri bo'lgan ishsizlikda ko'rish mumkin. U oxirgi sakkiz yil davomida deyarli 3 barobarga oshgan. Buni grafikda ko'rish mumkin. Mehnat bozoriga ichki ta'sir etuvchi omillar xilma-xilligi va ijtimoiy nuqtai nazardan ahamiyatga molikligi uni yuqori darajada boshqarishni talab kilinadi. O'zbekistondagi xozirgi kungi dolzarb muammo bu bandlik sohasida islohotlarni amalga oshiruvchi tizimni yaratishdir. Va bu borada maolum ishlar bajarilgan deyish mumkin. Bandlik to'g'risida qonun qabo'l kilindi, mehnat birjalari to'zilmoqda, ishsizlarni ro'yxatdan o'tkazish boshlandi Lekin bu faqat boshlanishdir. Albatta bu muammoni hal etishda rivojlangan mamlakatlar sinovdan o'tgan tajribalariga murojaat etish lozim.

.Davlatni tarttibga solish asosiy yo'nalishlari.

Mehnat bozorini tartibga solish 4 xil asosiy yo'nalish bilan olib boriladi. Birinchidan bandlikni o'sishini rag'batlantirish va davlat sektorida ishchi o'rinlarni ko'paytirish dasturi. Ikkinchidan ishchi kuchini tayyorlash va qayta tayyorlash dasturi. Uchinchidan ishchilarni ishga kirish erdamidagi dasturi. Bundan tashqari davlat ishsizlarni ijtimoiy himoyalash dasto'rini yaratadi, ya'ni ishsizlikdan nafaqa uchun mablag' ajratadi. Bu programmaga amal qilingan xolda AQShda davlat sektorida yuz minglab ish o'rinlari ochildi (jamoat hizmati,

ta'lim, tibbiy xizmat, kommunal ho`jalik bundan tashqari qurilish va tamirlash sohalorida). Va oqibatda 70 yillar oxirlariga kelib ishsizlik darajasi suniy ravishda 0,8%ga tushirildi. AQShning ishga joylash xizmati 2500 agentga ega va bu agentlar ishsizlarni ro`yxatga olish, ishsizlarga loyiq ish joylari topish va ishga joylashmochi bo`lganlarni testlardan o`tkazish bilan shug`ullanadilar. Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash esa AQShda o`rta va oliy ta'lim muassasalari, o`quv kurslari va xususiy korporatsiyalar malaka oshirish markazlari faoliyat ko`rsatadi. Yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda davlat sektori nisbatan pastrok rivojlangan.

8.2 Mehnat bozorini tartibga solishning kontseptual asoslari.

Mehnat bozorida davlatni islohotlarini kontseptual asosi bo`lishini ko`p yillar (70-yillargacha) aktiv davlat siyosati tarafdorlari (keynschilar va institudonamistlar) yoklab kelishar edi. 80-90 yillarga kelib esa g`arbdagi iqtisodiy islohotlar shu jumladan mehnat bozridagi islohotlar o`zlariga talab-taklif iqtisodiyotchilarining fikrlarini qamrab ola boshladi. Bo`lar davlatni iqtisodiyotga aralashuvini cheklash va ishsizlikka odatiy va mukarrar xol sifatida qarash kabilardir, chunki ishsizlik insonning o`ziga bog`liq bo`lgan narasidir. Bu kontseptsiyaga asoslangan xolda AQSh hukumati 80-yillarda mehnat bilan ta`minlash dasturlariga federal harajatlarni kamaytirdi. Bozor iqtisodiyotidagi mamlakat uchun mehnat bozorini tartibga solish ishsizlik va ish xaki o`rtasidagi bog`liqlik orqali amalga oshadi. Bu erda gap Filipp egri chizig`i haqida ketmokda. Bu egri chiziq yuqoridagi ikki faktorning chiziqsiz bog`liqligini ko`rsatadi. Agar ish xaki va narhlarning oshishi bir xil nisbatda deb faraz kilsak bu ko`rsatkichni bandlik va Narh-navo oshish surati orasidagi bog`liqlik bilan ham ifodalash mumkin. Filippning egri chizig`i bizga ikki variantni tavsiya etadi. Yuqori bandlik va maksimal iqtisodiy o`shish lekin narhning tez oshish xolati, yoki barkaror narhlar lekin yuqori miqdorda ishsizlik xolati. Ko`p yillar Filippning egri chizig`i AQSh va Evropa davlatlarida ijtimoiy-iqtisodiy boshqarish asosi bo`lib keldi. Ko`pgina g`arb iqtisodchilari xozir ham ish xaki va narhlar bir yo`nalishda ishsizlik bilan esa har xil yo`nalishli harakat mavjudligini eotirof etadilar. Ammo ishsizlik va inflyatsiya teskari yo`nalishli emas balki tug`ri yo`nalishli bo`lganligi va ishsizlikning o`shishi bilan narhlarning ham o`shishiga ko`pgina misollar keltirish mumkin. Bu esa Filipp egri chizig`ining asossizligi haqida tankid kelib chiqishiga sabab bo`lmoqda.

8.3 Ishchi kuchi bozorini bilvosita tartibga solish.

Ko`rsatilgan yo`nalishlar davlatni mehnat bozoriga ta'siri vositasini hammasi emas. Bo`lar bilan bir katorda ishchi kuchini egri boshqarish turlari mavjud. Bo`larga soliq, pul-kredit, va amortizatsiya siyosatlar misol bo`la oladi. Bundan tashqari mehnat bozoriga ijtimoiy mehnatni himoyalash, mehnat aloqalari, grajdanlarning teng huquqlari qonunlar ham ta'sir qiladi. Masalan AQShda bu kabi qonunlar 30-yillarda qabo`l qilingan. Ishchi kuchi bozorini egri tartibga solish choralari ayni vaqtda

umumiqtisodiy boshqarish usullariga kiradi, konoyunkturaga ta'sir qilish orqali bandlik va ishsizlikning dinamikasiga ta'sir qiladi. Xulosa qilib aytganda davlatning mehnat bozorini boshqarishi bir talay mamuriy, iqtisodiy, qonunchilik, tashkiliy va boshqa usullarni talab qiladi.

8.4 Mehnat birjalari va xususiy vositachi firmalar.

Mehnat birjalari mehnat bozorini tartibga solishda ho`jalik mexanizmini asosiy tuzilma i hisoblanadi. U ish kuchi bozorida vositachilik vazifasini bajaruvchi alohida bir tashkilotdir. Ko`pgina davlatlarda mehnat birjalari davlat tasarrufida bo`ladi va mehnat vazirligi yoki unga aloqador tashkilot tarafidan boshqariladi. Mehnat birjalarini faoliyatirig asosiy yo`nalishlari

(vazifalari):

Ishsizlarni ro`yxatga olish

Ish (vakansiya) joylarini ro`yxatga olish

Ishlash istagida bo`lgan ishsizlarni ish bilan ta'minlash

Mehnat bozori konoyunkturasi o`rganish va u xakda ma'lumotlar to`plami

Ishga kirishni istovchilarni testlardan o`tkazish

Professional yo`naltirish va professional qayta tayyorlash

Nafaqalarni to`lash

Shuni aytib o`tish kerakki xozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda fukarolarning ko`pchilik qismi ishga joylashishda mehnat birjasiga nisbatan ko`prok xususiy vositachilik agentliklari va korxonalarni kadr hizmatlari murojaat qiladilar. Dunyodagi eng katta ishga joylash hizmatlarini ko`rsatuvchi firma Makpauer turli dunyo mamlakatlarida 1350 o`z bo`limlariga ega bo`lib yilda 700 ming kishini ishga joylaydi

va 300 ming firmaga hizmat ko`rsatadi. Bu bilan bir katorda ko`pgina mamlakatlarda mehnat birjalari faoliyati nafaqalarni to`lash, ishga joylash, qayta tayyorlash ko`zga tashalanarlidir. AQShda bu kabi yordamlar yiliga 6-8 mln. kishilarga ko`rsatiladi.

Ko`pgina davlatlar qonunchiligi ishsizlik nafaqasi haqida kat'iy shartlar keltiradi. AQShda nafaqa olishning eng o`zoq muddati 26 xafta (baozi xollarda yana 13 xaftaga cho`zdirilishi mumkin), xaftali nafaqa (har xil shtatlarda bu ko`rsatkich fakrlidir) 1992 yilda 170 dollarni tashkil etgan. Xozirgi kunda g`arb tajribasi kundan-kunga ortmokda va ish kuchi banklari deb nomlangan dastur amalda qo`llanilmoqda. AQShda bu tizim mehnat birjasi va ishga joylash agentliklari orqali tashkil qilingan va AQShning mehnat vazirligi tarafidan boshqariladi. Bunday bankning kompyuter markaziga ish joylari va ishchi kuchi takliflari haqidagi axborotlar yig`iladi. Bu axborotlar tadbirkorlarga va ishsizlarga tarkatiladi.

Murakkab tizimlarda esa mansabga layokatlarini o`lchash va solishtirish EXMga topshiriladi. AQShda bunday ishchi kuchi banklari 300 dan oshik va butun AQShni qamrab olgandir. Bundan tashqari umummilliy ishchi kuchi banklari ham mavjud. Ular asosan yuqori malakali kadrlarga hizmat qiladi. G`arbda ishsizlarni sug`urtalashning turli usullari taklif qilinmoqda. Bo`lardan biri, masalan iqtisodiy konoyunkturaning nomutanosib bo`lgan vaqtlarda tadbirkorlar o`z ishchilarini ishdan bushatmaydilar balki ish vaqtlarini qisqartiradilar. Bu xolatda ishchiga ish xaqining bir qismini (ishlamagan soatdagi ish xaqini) davlat to`laydi. Bunday moliyaviy yordam bo`lsa ishsizlarga to`lik ishsizlik nafaqalarini

to'lashga nisbatan ancha kam mablag` talab qiladi. Ayni shunday yangiliklar AQShning Kaliforniya, Arizona, Oregon va Washington shtatlarida qo'llanilgandir. Ko'pgina iqtisodchilarning fikrlariga ko'ra ishsizlik va boshqa ishchi kuchi bozorida nomutanosibliklarni yumshatish faqatgina turli vositalarni kombinatsiyasi bilan amalga oshadi. Bo'lar iqtisodiy o'sishni muvofiqlashtirish, ish xaftasini qisqartirish, kadrlarni qayta tayyorlashning samarali tizimini yaratish. Bozor iqtisodiyotida barcha turdagi resurslarning narhlari tayyor mahsulot Narhlari singari talab va taklif o'zaro ta'siri orqali vujudga keladi.

Qisqacha xulosalar.

1. Davlatni mehnat bozorini tartibga solishda asosiy o'rni kontseptual yo'nalishini ajratish mumkin. Ish bilan bandlikni rag'batlantirish va ish o'rinlarini ko'paytirish. Kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlash dasturi.
2. Ish kuchini ishga joylashtirishga ko'maklashish dasturi. Ishsizlikni ijtimoiy bozorida faoliyatini asosini iqtisodni rivojlantirish bunga Kenschilarni, 80 yillardan esa klassiklar maktabini nazariyasi tashkil etgan.
3. Ishchi kuchi bozorini egri tartibga solish choralari ayni vaqtda umumiy iqtisodiy boshqarish usullariga kiradi, konoyunkturaga ta'sir qilish orqali bandlik va ishsizlikning dinamikasiga ta'sir qiladi. Xulosa qilib aytganda davlatning mehnat bozorini boshqarishi bir talay mamuriy, iqtisodiy, qonunchilik, tashkiliy va boshqa usullarni talab qiladi.
4. Bozor iqtisodiyotida barcha turdagi resurslarning narhlari tayyor mahsulot Narhlari singari talab va taklif o'zaro ta'siri orqali vujudga keladi.

Tayanch iboralar

Mehnatni rag'batlantirish, ishsizlikni sug'urtalash. Kadrlarni tayyorlash, Mehnatni tartibga solishni kontseptsiyasi. Fillip egri chizig'i. Ijtimoiy ta'minlash. Birja faoliyati. Vositachi agentlik.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Davlatlarla qanday yo'nalishlar mavjud
2. Davlatni tartibga solishning yo'nalishlari qaysilar?
3. Ishchi kuchi bozorini egri tartibga solish choralari ayni vaqtda qanday boshqarish usullariga kiradi?
4. Mehnat birjalari, mehnat bozorini tartibga solishda ho'jalik mehanizmini qanday tuzilmasi hisoblanadi?
5. Jamoa ishlarini tashkillashtirish kanday ish o'rinlarini yaratish usuli.
6. Mehnat bozorini tartibga solishga nimalar o'rtasidagi bog'liklik orkali amalga oshiriladi.
7. Mehnat bozoriga ichki ta'sir etuvchi omillar kaysilar ?
8. Davlatning mehnat bozorini boshqarish kanday usullarini talab kiladi ?

Asosiy adabiyotlar

- 1.O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O`zbekiston Toshkent 2003 y.
- 2.«Sug`urta faoliyati to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Qonuni. «Xalq suzi». 2002 y. 28 may.
- 3.«Tashqi iqtisodiy faoliyat tug`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni «Xo`jalik va huquq» 2000 y. 9 - son
- 4.«Chet el investitsiyalari to`g`risida» gi qonun. 1998 y. 30 aprel. O`zbekiston Respublikasi
- 5.«Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tabirlari to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
- 6.«Tug`ridan-tug`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ra g`batlantirish boasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Farmoni. Xalq so`zi. 2005 y. 12 aprel.

7.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «O`zbekiston ovozi» 2005 y. 29 yanvar.

8. Karimov I.A.«Erishilgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo`llarini izlab borish-asosiy vazifa» Halk so`zi 2004 y. 10 fevral.
- 9.Babushkina.A.I.Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. 2004g. M. Finanso` i statistika. 480. str.
- 10.Fareycheva .G.V. Sistema obhestvenno`x potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii.M. MGU. TEIS. 2004g. 230 str.

11.N.L.Shagas., E.A.Tumanova. Makroekonomika-2. Uchebnoe posobie. Vo`pusk novo`y. Dolgosrochno`y aspekt. M. TEIS. 2004g. Ekonomicheskii fakultet im M.V. Lomonosova MGU.122 str.

Internet ma'lumotlari

- 1.WWW. economyta - culty. uz.
- 2.Novosti Uzbekistana - www.uzreport.com
- 3.Informatsiya, innovatsii, investitsii - 2004 - [http:g`g` www.informika.ru](http://www.informika.ru)
g`textg`exhibitg`papersg`2004g`c11-3doc
- 4.[http: g`g` www. Review.uz](http://www.Review.uz) g`homeg`azticle.asp?mq62Rio)q177
- 5.[http: g`g` www. Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm](http://www.Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm)
- 6.[http: g`g` www. vqi.freenet. g`trudyg`dratisviko.htm](http://www.vqi.freenet. g`trudyg`dratisviko.htm)
- 7.[http: g`g` www. Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html](http://www.Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html)

8.<<http://www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisvriko.htm>>

9-BOB. Davlat byudjeti

9.1.Davlat byudjeti ahamiyati va byudjet operatsiyalari turlari

1.Davlat byudjeti har yili yuqori qonunchilik bilan tasdiqlanuvchi va qonun kuchiga ega davlatning asosiy moliyaviy rejasidir. Davlat byudjeti o`zida markazlashgan pul vositalari fondini va milliy daromadlar taqsimotini ifodalaydi. Davlat byudjeti muhim ahamiyatga ega bo`lib, ko`p davlatlar iqtisodiyotida katta o`rin tutadi va hukumat byudjet ustidan nazoratga ega. Davlat byudjeti rivojlangan chet davlatlarda qo`yidagi asosiy funktsiyalarni bajaradi:

- 1.Milliy daromadni qayta taqsimoti ;
- 2)Davlat nazorati va iqtisodiyotni stimullashtiradi;
- 3)Ijtimoiy siyosatni moliyaviy ta'minlanishi;
- 4)Markazlashgan pul vositalaridan foydalanishni nazorat qilish;

Byudjet operatsiyalarini xarakteriga ko`ra qo`yidagi 6 asosiy guruhga bo`lish mumkin:

- 1.To`lov tizimi. Byudjet muomalari byudjetga mablag`lar tushumini yoki byudjetdan ularni to`lovini anglatadi. Ba'zi mamlakatlarda tushumlar (Q)belgisi, to`lovlar esa (-) belgisi bilan belgilanadi.

2.Qoplanadigan - qoplanmaydigan muammolar. To'lovning sharnomaviy majburiyati ro'y berganda to'lov qoplanadigan hisoblanadi.

3.Ta'minlanadigan - ta'minlanmaydigan muammolar. Tovar va xizmatlar o'rniga olib kelinsa yoki teskarisi bo'lsa to'lanmagan mablag'lar to'langan hisoblanadi.

4.Joriy kapital muammolari. Joriydan farqli ravishda kapital muammolari ishlab chiqarish jarayonida 1 yildan ortiq muddatda foydalanishni mumkin bo'lgan tovarlarning xaridi yoki sotuvidir

5.Moliyaviy aktivlar, moliyaviy passivlar. M-A hukumat oldida kimningdir majburiyatlari bo'lsa, M. passivlar hukumatning biror shaxsga bo'lgan majburiyatlari.

6.Davlat siyosati maqsadidagi muammolar - likvidlikni boshqarish maqsadidagi muomalalardir. Ko'p hollarda davlat xarajatlari davlatning siyosatini muayyan maqsadlariga erishish maqsadida amalga oshiriladi. (xavfsizlikni ta'minlash aholi salomatligini asrash va boshqalar) Lekin aniq hollarda ular likvidlikni tartibga solish vositasi bo'lib qolishi mumkin. Davlat qarzlarini moliyalashtirish maqsadlarida davlat tomonidan xazina vekselarini chiqarish yo'li bilan pul likvidligi tartibga solinadi.

9.2.Byudjet kompozitsiyasi

2.Har 1 mamlakatda byudjet tushunchasi turlichadir. Biroq MVF tavsiya qilgan uslubga binoan har qanday byudjetni qo'yidagicha tasniflash mumkinki ularni barchasini qo'yidagi guruhlardan biriga kiritish mumkin bo'lsin - tushumlar, grantlar, xarajatlar, kreditlar, minus subsidiyalar, moliyalashtirish.

1-Jadval

Hukumat operatsiyalari

Jami tushumlar va grantlar

Jami tushumlar

Joriy tushumlar

Soliqdan tushumlar: Tushum, foyda va kapital o'sishiga soliq Ijtimoiy sug'urta to'lovlari.

Ish haqi fondi va ishchi kuchiga soliq Mulk solig'i Tovar va xizmatlarga ichki soliq,

Tashqi savdo va kelishuvlar solig'i Boshqa soliqlar Soliqdan tashqari tushumlar

Tadbirkorlik va mulkdan tushumlar Ma'muriy yig'imlar va to'lovlar Penya va jarimalar

Hukumat pensiya fondiga to'lovlar Boshqa soliqdan tashqari tushumlar Kapital

tushumlari Asosiy fondlar Zahiralar savdosi Er va eskirmaydigan aktivlar savdosi

Grantlar Chetdan keluvchi Milliy hukumatni boshqa jabhalaridan Halqaro

tashkilotlar tomonidan Halqaro tashkilotlar shtab-

kvartiralar tomonidan

2.Barcha chiqimlar va kreditlar tashqari savdodan Barcha chiqimlar Joriy xarajatlar:

Tovar va xizmatlar xarajatlari Ish haqi Ish beruvchilar vzoislari Foiz to'lovlari: mamlakat ichkarisiga Chet elga Savdodan tashqari barcha kreditlar: Mamlakat ichiga

Boshqa davlatga

Umumiy taqchillik Barcha moliyalashtirish Ichki moliyalashtiri Hukumatning boshqa

tomonidan Pul vositalari orqali Depozit qabo'l qiluvchi banklar tomonidan Boshqa ichki

moliyalashtirish Tashqi moliyalashtirish Halqaro rivojlanish institutlari tomonidan Tashqi

hukumatlar tomonidan Chet eldan olingan boshqa qarzlar hisobidan zahiradagi qimmatli

qog`ozlar va naqd depozitlarni ayirboshlash orqali Byudjet xarajatlariga joriy va kapital xarajatlarni moliyalashtirish uchun sarflanadigan va qoplanmaydigan xarajatlarni kiradi. Davlat xarajatlari davlat kreditlaridan shartnomaviy majburiyatlarga bo`ysunmasligi bilan farq qiladi. Halqaro klassifikatsiyaga asosan xarajatlarni joriy va kapitalga ajratiladi. Joriy xarajatlarga davlat ishlarida ishlovchilar uchun ish haqi to`lovlari, ijtimoiy pensiya fondlariga to`lovlar, ichki va tashqi qarzlarni fozlariga to`lovlar, subsidiyalar va transfert to`lovlari kiradi. Joriy byudjet xarajatlariga davlat tomonidan ishchilar uchun sug`urta va pensiya fondlariga ajratmalar ham hisoblanadi. O`tish iqtisodiyotidagi ayrim davlatlarda subsidiya va joriy (xarajatlarni) o`tkazmalar joriy xarajatlarni asosiy qismini tashkil etadi.

Qaytarilmaydigan va qoplanmaydigan xarajatlarni xususiy va davlat korxonalariga kiritiluvchi subsidiyalar ko`rinishida namoyon bo`ladi.

Davlat ichidagi muammolar markazlashgan hukumat mahalliy jamoat organizatsiyalariga soliq tushumlarini qayta taqsimoti, davlat qo`llab-quvvatlash kerak hisoblaydigan alohida jamiyat a'zolari, yordamida muhtoj shaxslar uchun xizmat qiladi. Tashqi o`tkazmalar chet el hukumatlariga, halqaro tashkilotlarga bo`lishi mumkin. (masalan, ustav kapitaliga ajratmalar yoki yillik a'zolik xarajatlari) Kapital xarajatlari ishlab chiqarish vositalari, qimmatli qog`ozlar, er, ichki va tashqi kapital transfertlariga erishish uchun qilingan chiqimlardan tashkil topadi. Byudjet kapital xarajatlari ishlab chiqarishga xizmat qiluvchi va

qonunchilik bilan belgilab qo`yilgan qiymatdan ortiqcha qoldiqqa ega bo`lgan, 1 yildan ortiq xizmat qiluvchi asosiy fondlarni sotib olish chiqimlariga aytiladi. Davlat byudjet hisobiga strategik materiallarni zahira qiladi, kutilmagan holatlarni oldini olish va ta'minlash, tabiiy qazilmalar, er, o`rmon, ichki suv zahiralarni asrash uchun xarajatlarni qiladi va bu kapital xarajatlari hisoblanadi.

Nihoyat, davlat kapital transfertlarini mamlakat ichiga va chetga asosiy fondlarni asosi uchun sarflanish mumkin. Masalan, hukumat transfertlarni yo`l, maktab, shifoxona, ko`priklar qurilish uchun mahalliy byudjetlarga o`tkazilishi mumkin.

To`lovdan tashqari kreditlar - chiqimlarni bo`limi. U davlat siyosati maqsadida (likvidlikni boshqarmaslik) hukumat organlari tomonidan ajratiluvchi yalpi kreditlardir. Kredit tushunchasiga qarzlarni, hukumat tomonidan berilgan, ega bo`lingan aksiyalar kiradi. Aktsiya foyda keltirgan taqdirda byudjetni daromadlar qismida o`z ifodasini topadi. Davlat kreditlarni moliyaviy natijalarga erishish uchun emas, balki jamiyat uchun muhim bo`lgan masalalar echimi uchun, uy-joy qurilishi, urush va aloqlar oqibatini yo`qotish, tez foyda beruvchi loyihalarni moliyalashtirish uchun beradi. Agar davlat qisman majburiyatli bo`lsa, barcha hukumat to`lovlari ushbu bo`limga kiritiladi.

1 chi jadvaldan ma'lumki, kirimlar joriy va kapital bo`lishi mumkin.

Joriy daromadlar o`z ichiga soliqlarni yig`indan tushgan va soliqsiz kirimlarni oladi.

Soliqlar - jismoniy va yuridik shaxslarning majburiy to`lovlari hisoblanib (ular belgilangan vaqtda va qonunchilikka asosan davlat ruxsati bilan x-tashkil topgan. yu.sh., t.sh.). Soliqlar jamoat ehtiyojlarini qoplash uchun yig`im olinadigan qaytarilmaydigan va to`lanmaydigan mablag`dir. Hozirda soliqlar aholi daromadining 40% gacha olinadi, 2jahan urushi oxirlarida 12-20 % ni tashkil etgan bo`lsa, hozirda YaMM

tarkibida soliqlar hissasi 18 dan 30-50% ga o'sadi. Zamonaviy soliq tizimi yakka soliqlar va to'lovlar bilan ifodalanadi. Soliqlar yana alohida ko'zdan o'tkaziladi. Byudjet nosoliq daromadlari o'z ichiga davlat faoliyatidan keluvchi foydani oladi. O'z vakolatidan kelib chiqib davlat aksiyalar uchun dividend, davlat eri ijarasi uchun renta, davlat kapitali kiritilgani uchun foizlar undirishi mumkin. Ma'muriy yig'imlar va vzoslar o'z ichiga davlat mulkini sotish

(ko'riksionlardan o'rmonlarni) kabi turli faoliyat turlari orqali yig'iladigan mablag'larni oladi. Barcha jarimalar vaqtida to'lanmagan soliqlarga qo'shiladigan jarima va peniyalar bo'lib, bu modda tufayli ko'pgina davlatlar byudjeti foyda ko'radi. Markaziy hukumat pensiya fondiga vzoslar davlat xodimlari yoki mahalliy hukumat tomonidan byudjet daromadlari deb tan olinadi. Kapital daromadlari o'z ichiga davlat asosiy fondlarini - binolar, asBOB.- uskunalar, strategik materiallar zahirasini, ko'tilmagan holatlarga ta'sir qilmaydigan zahiralarni, erni, o'rmon, er osti boyliklari, tabiiy resurslarni sotish orqali keladigan daromadni oladi. Grantlar daromadlarni 1 qismi hisoblanib, qaytarib berish shartisiz halqaro organizatsiyalar yoki chet davlatlar hukumati tomonidan byudjetga kiritilgan daromaddir. Agar grantlar ishlab chiqarish vositalari sotib olish uchun belgilangan bo'lsa, bu kapital qo'yilma hisoblanadi. Barcha boshqa grantlar qarzlardan olingan summani shartnomaviy majburiyat bo'yicha qaytarish sharti yo'qligi bilan ajralib turadi. Ko'pincha grantlar chetdan keladi, chet davlatlar yoki halqaro tashkilotlar tomonidan chet valyutada yoki milliy valyutada yueriladi. Markaziy hukumat mahalliy hukumatdan qaytarilmaydigan ajratmalar olishi mumkin va bu grant hisoblanadi.

9.3. Byudjet taqchilligi tushunchasi. Umumiy taqchillik.

Davlat byudjeti balans usuliga asosan to'ziladi, unda daromadlar va xarajatlar teng bo'lishi kerak. Taqchillik yoki ortiqchalik. Hajmi qanday xarajatlar taqchillikni keltirib chiqarishi va qaysi daromad turlari moliyalashtiradi degan savolga javob topishiga bog'liq. To'lov balansiga asosan daromadlarni yuqorida, xarajatlarni pastda qoldirib chiziq tortish masalani echimidir. Soliq tushumlarining betuxtov o'sishiga qaramasdan etakchi chet el davlatlarida xarajatlarning daromadlar ustidan doimiy o'sishi qoidaviy hisoblanadi, ya'ni byudjetda doimiy taqchillik juda kam hollarda, alohida yillar uchun ayrim davlatlarda ijobiy qoldiq mavjud bo'ladi. Byudjetning standartlashtirilgan tasvirida, XVF tomonidan ishlatiladigan defitsit qo'yidagicha aniqlanadi: Defitsit q (daromadQgrantlar)- (xarajatlarQkreditlar-to'lovlar) ortiqchaligi agar defitsit bo'lsa manfiy son bilan (musbat bo'lsa) ortiqchalik bo'lsa musbat bilan ko'rsatiladi. Defitsit G' ortiqchalik moliyalashtirishga teskari belgi bilan teng, misol uchun - 250 mln. byudjet defitsitida, moliyalashtirish Q250 mln. ni tashkil etadi. Defitsitni aniqlash amaliyoti turli davlatlarda qattiq farq qiladi. Masalan, davlatning xazina veksellari sotuvi davlatning krediti hisoblanishi mumkin va byudjet chizig'idan yuqorida «kreditlar ayruv to'lovlar» moddasiga kiritiladi va byudjet chizig'idan pastda moddasida moliyalashtiriladi. Chet eldan hukumatlaro kreditlar olishi ham bir xil mamlakatlarda defitsitni qisqartiruvchi, daromadlar moddasi hisoblanadi, boshqalarida esa defitsitni moliyalovchi

hisoblanadi. Kreditlar bo'yicha foiz to'lovlari xuddi hozirgi kundagiday, ma'lum mamlakatda qabòl qilinan metodlogiyalarning xarajatlar qismining kapital operatsiyalariga bog'liq bo'lishi mumkin. Byudjetning analitik tahlilini ta'minlash va uni bashoratlash uchun uni dastlab standart ko'rinishiga keltirish kerak. Alohida davlatlarda qabòl qilingan uslublar orasidagi tafovut asosan u yoki bu byudjet tushumlarini daromad yoki moliyalashtirish qaysi bo'limiga tegishligi munosabati bilan vujudga keladi. Byudjet defitsitining eng ko'p uchraydigan boshqa kontseptsiyalari qo'yidagilardir:

Kamomad defitsit - bu to'lov foizlarini davlat qarzlarini bo'yicha xarajatlar bo'limidan moliyalashtirish bo'limiga o'tkazish yo'li bilan amalga oshirishga hisoblangan defitsitdir. Tulov foizlari moliyalashtirish bo'limida bo'lishi kerak deb hisoblanadi, chunki ularni to'lash davlat byudjetini kredit vositalari hisobiga moliyalashtirish imkonini beradi. Aks holda davlatning qimmatbaho qog'ozlariga hech kim egalik qilmagan bo'lardi. Dastlabki defitsit - bu davlat qarzlarini bo'yicha oldingi yilda yuzaga kelgan foizlar byudjetiga ta'sir ko'rsatishni bartaraf etish maqsadida shakllangan to'lov foizlaridan mustasno faqat joriy yildagi fiskal (moliyaviy) ahvolni baholashga xizmat qiladigan defitsitdir. Ichki va tashqi defitsit - bu alohida xukumat operatsiyalari bo'yicha davlatning ichida va chet davlatlar bilan munosabatini aks ettiradigan defitsit. Agar xukumat chet davlatlar bilan kredit olish yoki kredit berish, shuningdek grant yoki investitsiyalardan foyda olish bilan bog'liq yirik operatsiyalarni amalga oshiradigan bo'lsa, unda odatda tahliliy maqsadlarda hukumatning ichki va halqaro operatsiyalarning alohida byudjetlari to'zib chiqiladi. O'shanda hukumatning faqatgina ichki operatsiyalar byudjetidan ichki kreditga bo'lgan talab va pul massasining oshishiga ta'sir qilishini aks ettiradigan tahlilni yuzaga keltirish uchun foydalaniladi. Halqaro operatsiyalar byudjetini to'zishni engillashtirish uchun ko'pgina rivojlanmagan davlatlar rezident va norazidentlarga tegishli bo'lgan daromad va xarajatlarni alohida qayd etadilar. Bunday byudjetning eng oson yo'l bilan hisoblanishi qo'yidagi sxemada ko'rsatilgan:

Chet eldan kelgan daromadning chet el grantlari - chet el to'lovlari
- joriy chet elga pul o'tkazmalari - chet elga kapital o'tkazmalar - chet el qarzlarini minus to'lovlari - va boshqa chet el xarajatlarning tashqi defitsit: chet eldan moliyalashtirish ortiqchaligi (profitsiti). Byudjet defitsitini moliyalashtirish - bu ijobiy saldo natijasida yuzaga kelgan byudjet defitsit yoki resurslarni taqsimlashni qoplash bilan bog'liq bo'lgan xukumat xatti-xarakatlari. Byudjet chizig'idan yuqorida bo'lgan barcha moddalardan farqli o'laroq moliyalashtirish likvidlikni boshqarish maqsadida amalga oshiriladigan davlat passiv va aktivni o'z ichiga oladi, davlat dasturlarini amalga oshirish bundan mustasno.

Yuqorida aytib o'tilganidek, moliyalashtirish byudjetning defitsiti yoki profitsitiga teskari ishora bilan bog'liq bo'lishi kerak. Moliyalashtirish hukumat tomonidan qabòl qilingan qarzlar qiymatiga minus davlat oldingi qarzlariga (amortizator) minus likvidlikni boshqarish maqsadida davlat tomonidan beriladigan sof kreditlar qo'shuv davlat kassalardagi naqd pul zahirasini qisqartirishga teng. Qarzning asosiy qismining amortizatsiyasigina moliyalashtirishga kiritiladi, qarzlar bo'yicha foiz to'lovlari esa byudjetning xarajatlar qismiga tegishli hisoblanadi.

Ba'zi davlatlarda xukumat depozitlarni qabo`l qilib bank faktori funktsiyasi qisman bajaradi. Bunday holatda bunday denozitlar byudjet defitsitini moliyalashtirish maqsadida ular xukumatining bank sistemasi oldidagi qarz sifatida ko`rsatiladi.

Millatning butunlikdagi rivoji. Sanoatning ustivor tarmog`i mamlakatni yanada industriallashtirishga erishishiga ko`maklashishi kerak. Masalan, Janubiy Koreya 5ta besh yillik rejasi fan-texnika taraqqiyotini mamlakat kelajagi farovonligi zarur asosi sifatida aniqladi. Demak, ustunlik mamlakat fan va intellektual potentsialini ko`tara oladigan tarmoqlarga berildi. Xom-ashyo va energiya importiga bog`liqlikni kamaytirish, mamlakat resurs sig`imini qisqartirish. Mamlakat tovar balansidagi kamomadni minimallashtirish. qulay qo`shimcha samara. Agar berilgan tarmoq tezlashtirilgan rivoji boshqa sektor yoki tarmoq ishlab chiqarish samaradorligi oshishini ta'minlasa, u ham ustun (nufo`zli) soha sanalishi kerak. Ustun sohalari aniqlanib va zarur aktseptlar ko`yilgach, tuzilmaviy siljishlar rejasi ishlab chiqish va amalga oshirish boshlanadi. Tuzilmaviy siyosatni amalga oshirishning o`ziga xos xususiyatlari. Turli mamlakatlarda tuzilmaviy siyosatni amalga oshirish o`ziga xos xususiyatlarga ega. AQShda tuzilmaviy siyosatida anoanaviy tartibga solish richaglari qo`llaniladi: kredit va soliq imtiyozlari, tashki iqtisodiy tarif siyosati. Bu mamlakatda boshqa g`arb davlatlari kabi (masalan, Buyuk Britaniya xokimiyatiga M. Tetcher kelgach) hukumat iqtisodiy siyosati tushkunlikdagi tarmoqlar (metallurgiya, kemasozlik, tekstil) ishlab chiqarishlari manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan. Bundan maqsad ularni sekin, emirilishlarsiz qisqartirish. AQShda soliq va kredit imtiyozlari (Reygan maomuriyati 80-yillar boshida krizisni bartaraf etish uchun keltirgan) hamma sohalarga tarqalgan. Moliyaviy yutukning katta qismi avvalo sanoatning kapital talab tarmoqlariga tushdi. Kongressning import tariflari sohasidagi siyosati AQShda dunyo bozorida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarini saqlashni rahbatlantirdi. Yaponiya va kator o`zga Osiyo mamlakatlariga yanada aktivrok tuzilmaviy siyosat xos. 50-yillar boshida Yaponiyada iqtisodiy kiyinchilik, ishlab chiqarishning to`xtash va pastlashni boshdan kechirayotgan tarmoqlar tushkunlik karteli yaratila boshladi. Bundan maqsad ahamiyatini yo`qotgan ishlab chiqarish tarmoqlarini umumiy hajmini kamaytirishdir. Yaponiya tashki savdo va sanoat vazirligi ko`mir sanoati keyingi rivojini maqsadga nomuvofiq sanab, 60-yillarda shaxtalarni qisqartirish va bo`shatilgan shaxtyorlarni professional qayta tayyorlash davlat dasturi yuzaga keldi. 70-yillar oxirida faqat yuqori samarali shaxtalar ishlardi, ko`mir sanoati ishchilari soni 10 marta kamaydi. Tekstil sanoati ish xaki harajatlari oshgach, u ham o`zining avvalgi ustunligini yo`qota bordi va Yaponiyada bu tarmoqni qisqartirish dasturi qabo`l kilindi. Faqat 70-yillarning birinchi yarmida bu tarmoqda 42% band bo`lgan 800 dan ziyod fabrika yopildi. 70-yillar kemasozlikda mehnat sig`imi ortdi va ishlab chiqarish samaradorligi o`shish suroati sekinlashdi. Buning izidan

Yapon kemasozligida kotib qolish boshlandi. Energiya manbalari bahosi oshganidan alyumin sanoati kam rentabelli sanoatga aylandi va 85 yil 15%ga to'xtatildi. Shu vaqtning o'zida avtomobilsozlik, elektron sanoati, sintetik materiallar ishlab chiqarish tezlik bilan rivojlana bordi. Bo'lar hammasi davlat ko'magida amalga oshirildi. 1978 yil «Sanoatning baozi tushkunlikdagi tarmoqlarini barqarorlashtirishning maxsus choralari tug'risida»gi qonun paydo bo'ldi. 1983 yil uni «Sanoatning baozi tarmoq to'zilmalarini mukammallashtirishning maxsus choralari tug'risida»gi qonun almashdi. 1983 yilgi qonunga muvofiq hukumat ITTKI o'tkazishga kredit, subsidiya berish yo'li bilan ko'maklashuvi natijasida 26 sanoat tarmog'i tubdan yangilandi. Rivojlangan mamlakatlar tuzilmaviy o'zgarishlar tajribasi shundan dalolat beradiki, u davlat tashkiliy ko'maklashuvidagi sharoitda yuqori samara beradi.

11.8 O'zbekiston iqtisodiy tuzilmasini qayta qurish yo'nalishlari.

O'zbekiston oldida tuzilmaviy siyosat sohasida favkulodda muhim va zarur masalalar turibdi. Ular hamma soha bo'yicha tuzilmani tubdan o'zgartirishi kerak. Ijtimoiy to'zilma mulkchilik tizimiga o'zgartirishlar keritishni talab qiladi. (korxonalarni xususiylashtirish, demonopollashtirish, kichik korxonalarni rivojlantirish, shu jumladan fermer xo'jaliklarni tez o'stirish). Tarmoq tuzilmasi harbiy sanoatni keskin o'zgartiradigan extiyot predmetlarini ishlab chiqarish ustivor rivojlanishi tomonga o'tishi kerak. Bir vaqtning o'zida bugungi kun texnikaviy rivojlanish darajasiga mos keladigan tarmoqni rivojlantirish (ko'p xollarda yangidan kiritish) asosiy masaladir. Ularga quyidagilar kiradi: EHMning beshinchi va keyingi avlodlarini, axborot tarmoqlarini, telekommunikatsiyani, dastur ta'minotini, hisoblash texnikasini, mikroelektronika vositalarini ishlab chiqarish. Tuzilmani qayta qurish masalalari MDX mamlakatlari dagi barcha iqtisodiy islohotlar dasturida o'z ifodasini topgan. Xususan, iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish dasturida MDX mamlakatlari

Federatsiyasi hukumati o'zining maxsus «Tuzilmaviy siyosat»iga ega. Unda aytilishicha, tuzilmani qayta qurishning 1-boskichida investitsion resurslar etishmovchiligi kuchli seziladi, moliyaviy bozorning etilmaganligi institutsional investorlar samarasi yo'qligi kapital harakatini sustlashtirishni, mavjud investitsional resurslari samaradorligini oshirishga tuskinlik qiladi. Shuning uchun tuzilmani yaxshi tashkil qilish mavjud imkoniyatlarni katoiy chegaralashni, tarmoqlararo va tarmoq ichida resurslarni qayta taqsimlashni o'zgarib turishni talab qiladi. Bu dasto'rni amalga oshirish boshqa islohot dasturlari katori halq xo'jaligida kator chuqur o'zgarishlarni boskichma-boskich amalga oshirishni talab etadi va ko'p yillarga mo'ljallanadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida to'zilma ijobiy o'zgarishlari barcha bozor suboektlarini nafaqat makro, balki mikro darajada aktiv faoliyat ko'rsatishiga qaratilgan. Xususan, ko'p narsa alohida birlashma va firmalar faoliyatiga bog'liq. Mamlakatda o'tkazilayotgan tuzilmaviy siyosatni hisobga olib har bir ho'jalik suboekti o'zining istikbolini belgilab olishi kerak. Bir kator xollardamaolum egiluvchanlik va moslashuvchanlikka erishish uchun o'z ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish zaruratini keltirib chiqaradi. Bu erda davlat tuzilmani qayta qurish dasturi imtiyozlaridan foydalana olish, hamda davlat tuzilmaviy dasturida foydalanayotgan tartibga solish regulyatoriga aktiv ta'sir o'tkazish muhimdir. Tuzilmaviy qayta qurishda asosiy rol ni korxonalar va firmalar tashki

iqtisodiy faoliyati o`ynaydi. Bu faoliyat tashki iqtisodiy aloqalar samarasini yuqori darajada ta'minlovchi yo`nalishda aktivlashtirilsa, ular makro va mikro darajada ko`prok foyda keltiradi.

Qiskacha xulosalar.

Jamiyat iqtisodiy rivoji uning kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bazasida yuruvchi ishlab chiqarish kuchlari va munosabatlari evolyutsiyasidir. Iqtisodiy rivojlanish dinamikasi ko`rsatkichlari ko`psonli, ular hamma vaqt ham sonli baholashga bo`ysunmaydi va ko`pincha turli yo`nalishda harakat

qiladi. iqtisodiy rivojlanish jarayonini o`lchashdagi kiyinchiliklar tufayli maroiqtisodiyotda iqtisodiy o`shish taxlil kilinadi. iqtisodiy o`shish moddiy va qiymat ko`rinishida o`lchanishi mumkin. iqtisodiy o`shish ishlab chiqarishning kator omillari bilan aniqlanadi: mehnat, er, kapital, tadbirkorlik kobiliyati. Ular o`z navbatida yanada mayda omillar (elementlar)dan tashkil topadi. Ularning tashki va ichki iqtisodiy omillar yoki o`shishning ekstensiv va intensiv omili sifatida guruhlaymiz. iqtisodiy o`shish agarda ishlab chiqarish omillarini ko`paytirish hisobiga erishilsa ekstensiv va agar ular sifatini mukammallashtirish va yanada oqilona foydalanish hisobiga bo`lsa intensiv bo`ladi. iqtisodiy o`shishning etakchi elementibo`lib xozirgi davrda FTT hisoblanadi. FTT yutuklari rivoji va ularni o`zlashtirish bilan intensiv omillar ko`paymoqda. iqtisodiy o`shishning zamonaviy nazariyalari neoklassik va keynschilik yo`nalishida rivojlanmokda va Davlat jamiyat iqtisodiy rivoji strategiyasi, davlat iqtisodiy o`shishni tartibga solish shakl va uslublarida o`z aksini topmokda. Halq xo`jaligi bir-biri bilan jins aloqadagi ko`plab makroiqtisodiy elementlardan tashkil topgan murakkab tizimdir. Bu elementlar orasidagi munosabatlar iqtisodiy tuzilmani tashkil etadi. Odatda ijtimoiy, tarmoq, ishlab chiqarish, hududiy va tashki savdo to`zilmalari ajratiladi. Ijtimoiy tuzilma tadbirkorlikning turli tashkiliy-huquqiy shakllari orasidagi o`zaro munosabatlarni va aholi turli guruhlari daromadlari xilma-xilligini aks ettiradi. Tarmoq tuzilmasi turli tarmoqlararo, tarmoq ichidagi o`zaro munosabatlarni ifodalaydi.

Halq xo`jaligi juda murakkab tizim bo`lib, juda ko`p makroiqtisodiy elemntlardan iborat. Odatda ijtimoiy tarmoq, takror ishlab-chiqarish, hududiy va savdo tuzilmani ajratishadi.

Tayanch iboralar

Halq ho`jalik balansi, qazib oluvchi tarmoqlar, to`zumlik samara, tarmoklarni birlashishi, daromadlarni diferentsiallash, kichik korxonalar, xom-ashyo tarmoklari, fesh talab kiluvchi tarmoklar, yangi industrial mamlakatlar, arzon ish kuchi, I,II bo`limlar investitsiyani kiskartirish, infrastruktura tarmoklari, ishlab chikarishni joylashishi, tashqi savdo, bozor munosabatlari, davlat tomonidan tartibga solish, ustivor tarmoklar.

Nazorat va muxokama uchun savollar

1. Iktisodiy tuzilmaning mohiyati ?
2. Tuzilmaviy samara tushunchasi?
3. Ijtimoiy tuzilmaning mohiyati ?
4. Tarmok tuzilmasiga imalar kiradi

5. Takror ishlab chikarish tuzilmasi kanday
6. Hududiy tuzilmalar tarkibi kanday
7. Iktisodiy rivojlanishida siyosat tuzilmasining ahamiyati
8. Iktisodiy tuzilmaga ta'sir etuvchi vositalarga nimalar kiradi.

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O'zbekiston Toshkent 2003 y.
2. «Sug'urta faoliyati to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. «Xalq suzi». 2002 y. 28 may.
3. «Tashqi iqtisodiy faoliyat tug'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni «Xo'jalik va huquq» 2000 y. 9 - son
4. «Chet el investitsiyalari to'g'risida» gi qonun. 1998 y. 30 aprel. O'zbekiston Respublikasi
5. «Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
6. «Tug'ridan-tug'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ra g'batlantirish boasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasining Farmoni. Xalq so'zi. 2005 y. 12 aprel.
7. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «O'zbekiston ovozi» 2005 y. 29 yanvar.
8. Karimov I.A. «Erishilgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo'llarini izlab borish-asosiy vazifa» Halk so'zi 2004 y. 10 fevral.
9. Babushkina. A.I. Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. 2004g. M. Finanso` i statistika. 480. str.
10. Fareycheva .G.V. Sistema obhestvenno`x potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii. M. MGU. TEIS. 2004g. 230 str.
11. N.L. Shagas., E.A. Tumanova. Makroekonomika-2. Uchebnoe posobie. Vo`pusk novo`y. Dolgosrochno`y aspekt. M. TEIS. 2004g. Ekonomicheskii fakultet im M.V. Lomonosova MGU. 122 str.

Internet ma'lumotlari

1. WWW. economyta - culty. uz.
2. Novosti Uzbekistana - www.uzreport.com
3. Informatsiya, innovatsii, investitsii - 2004 - <http://www.informika.ru>
4. <http://www.Review.uz> g`homeg`azticle.asp?mq62Rio)q177
5. <http://www.Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm>
6. <http://www.vqi.freenet.g`trudyg`dratisviko.htm>
7. <http://www.Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html>
8. <http://www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisviko.htm>

12-BOB. Moliyaviy bozorni tartibga solish.

12.1 Moliyaviy bozorning tarkibi

Har qanday zamonaviy iqtisodiy to`zumning amal qilishini ta'minlashda muhim rol davlatga tegishlidir. Davlat butun bir tarix davomida tartibni, qonunchilikni saqlash, milliy xafsizlikni ta'minlash masalalari bilan bir qatorda iqtisodiyot sohasida ham muayyan funksiyalarni bajarib kelgan. Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi o`zoq tarixga egadir. Evropada kapitalizmning dastlabki davridanoq baholar, tovarlar va xizmatlar sifati, foiz sifati va tashqi savdo ustidan markazlashtirilgan nazorat mavjud edi.

Hozirgi sharoitda har qanday davlat milliy iqtisodiyotini tartibga solib turadi. Ayniqsa, iqtisodiy inqiroz sharoitlarida iqtisodiyotni tartibga solishda davlatning roli oshadi. Jahon tajribasi inqirozdan davlat jamiyatining qattiq markazlashtirish va iqtisodiy o`shishni ta'minlash bo`yicha o`ziga xos tadbirlarni o`tqazish orqaligina chiqish mumkinligini ko`rsatdi. Urushdan keyingi davrlarda G`arbiy Evropa mamlakatlari va yaqindagina Lotin Amerikasi davlatlari bilan shunday bo`ldi.

solinishi - davlatning eng muhim va qiyin vazifalardan biri. Moliya sohasidagi yaxshi o`ylangan va to`g`ri tashkil etilgan siyosat har qanday mamlakat iqtisodiyotining muvaffaqiyatli rivojlanishining muhim omilidir. Bizning mamlakatimizda hozirgi kundagi inqirozning asosiy sabablaridan biri - davlatning moliya sohasidagi o`ylanmagan siyosatidir. Moliya bozori bu qisqa, o`rta va o`zoq muddatli kreditlar va fond qimmatliklari, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa qimmatbaho qog`ozlar bozoridir. Moliya bozorining asosiy segmentlari quyidagilar: pul kapitalining bozori, qimmatbaho qog`ozlar bozori va valyuta bozoridir. Moliya bozorining barcha segmentlari bir-biri bilan juda mahkam bog`langan. Biridagi judayam oz o`zgarishlar shu ondayoq boshqalarining o`zgarishlariga olib keladi. Masalan, davlat obligatsiyalarining markaziy Bank tomonidan sotilishi (qimmatbaho qog`ozlar bozoridagi operatsiyalar) pul bazasining qisqarishiga olib keladi va pulni qadrliroq qiladi. Bu esa o`z navbatida kreditlar bo`yicha foiz stavkalarini oshiradi, ya'ni pul kapitali bozorida o`z aksini topadi. Moliyaviy bozorning asosiy ishtiroklari quyidagilardir: davlat, jismoniy shaxslar, korxonalar, banklar, pensiya fondlari, sug`urta kompaniyalari, investitsiya fondlari.

12.2 Pul kapitali bozorining asosiy tushunchalari.

Kredit - bu pul kapitalining harakati bo`lib, u ta'minlanganlik, tezkorlik qaytarishlik va to`lovdan boshlanishda amalga oshiriladi. U xo`jalik subektlari o`rtasida mablag`larni qayta taqsimlash funksiyasini bajaradi, muomala xarajatlarini iqtisod qilishga (tejashga) ko`maklashadi, kapitalni bir joyga yig`ish va markazlashtirishni tezlashtiradi, hamda ilmiy-texnik taraqqiyotni rag`batlantiradi. Moliyaviy bozorlardan biri bo`lgan pul kapital bozorini pul kapitali aylanishini ta'minlash jarayoni bilan bog`liq bo`lgan moliyaviy munosabatlarning biri, alohida sferasi sifatida belgilash mumkin. Bu bozorning asosiy

ishtirokchilari: birlamchi investorlar, pul kapitalida aylantiriladigan va banklar tomonidan har xil boshlanishlarda tashkil qilinadigan bo'sh moliyaviy resurslarning egalari; kredit-moliya tashkilotlari ko'rinishidagi maxsus vositachilar. Ular pul mablag'larini jalb qiladi, ularni pul kapitalida aylantiradi. Bank tomonidan ajratiladigan kredit resurslarining maqsadli yo'nalishidan kelib chiqqan holda pul kapitali bozori 4 ta asosiy segmentlarga bo'linadi: pul bozori - qisqa muddatli kredit operatsiyalarining yig'indisi. Bu aylanma vositalar harakatida xizmat qiladi; kapital bozori - avvalam bor asosiy vositalar harakatiga xizmat qiluvchi o'rta va o'zoq muddatli operatsiyalar yig'indisi; fond bozori - qimmatbaxo qog'ozlar bozoriga xizmat qiluvchi kredit operatsiyalarining yig'indisi; ipoteka bozori - ko'chmas mulk bozoriga xizmat qiluvchi kredit operatsiyalarining yig'indisi; Yuqoridagi sanab o'tilgan bozor segmentlarining har biri uni tashkil etilishi va amal qilishda maxsus xususiyatlariga ega. Bu esa amaliyotda banklarini, ixtisoslashgan moliya-kredit institutlarini barpo etishga olib keldi. Xozirgi davrda bank xizmatlari sohasida ozgina o'zgarishlar bor. Endi bank to'ri (set) asosan faqatgina filiallar to'g'ri o'sishi hisobiga rivojlanmoqda. Shuningdek banklarni sezilarli darajada yiriklashuvi ko'zatilmoqda. Buni quyidagi diagrammada ko'rish mumkin. Kreditlash hajmining sezilarli o'sishiga qaramay kredit tuzilmasining yomonlashuvi ko'zatilmoqda. Afsuski, o'zoq muddatli kreditlar hissasining doimiy kamayishi ancha sezilarli. Bu esa ishlab chiqarish sohasida kreditlashga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Davlat tartibga solishining asosiy vazifasi bo'lib, banklarni o'zoq muddatli kreditlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

12.3 MDX mamlakatlari banklarining banklar faoliyatini tartibga solishdagi tajribasi.

Banklar faoliyatini tartibga soluvchi asosiy organi MDX mamlakatlari Markaziy banklaridir. MDX mamlakatlari banklarini tartibga soluvchi va kredit tashkilotlarining faoliyatini ko'zatuvi organi. U kredit tashkilotlarining banklar qonunchiligi, MDX mamlakatlari banklari normativ aktlari, xususan, ular o'rnatgan majburiy normativlarga amal qilishini ko'zatatadi.

Banklarni tartibga solishdan asosiy maqsad - bank tizimining barqarorligini qo'llab-quvvatlash, omonatchilar va kreditorlarning manfaatlarini himoya qilish.

MDX mamlakatlari banklari kredit tashkilotlari uchun majburiy bank operatsiyalarini o'tkazish, buxgalteriya hisobini olib borish, buxgalteriya va statistik hisob-kitoblarni to'zish hamda taqdim etish qoidalarini belgilaydi. MDX mamlakatlari banklari o'z funktsiyalarini amalga oshirish uchun kredit tashkilotlaridan ularning faoliyatlari to'g'risida kerakli axborotlarni so'rash va olish huquqiga ega. MDX mamlakatlari banklari kredit tashkilotlarini kredit tashkilotlarining qayd qilish davlat Kitobida ro'yxatdan o'tkazadi, kredit tashkilotlariga bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziyalar beradi va bekor qiladi. MDX mamlakatlari federal

qonunlariga ko'ra ijroya organlari boshqaruvchilariga, shuningdek, kredit tashkilotlarining bosh buxgalteriga kvalifikatsion talablar qo'yishga haqlidir.

Kredit tashkilotlarining mustaqilligini ta'minlash maqsadida - MDX mamlakatlari banklari uchun majburiy normativlar belgilashi mumkin:

yangi tashkil etilayotgan kredit tashkilotlari uchun ustav kapitalining minimal kattaligi, faoliyat yuritayotgan kredit tashkilotlari uchun o'z mablag'larinig minimal kattaligini;ustav kapitalining pulsiz bo'lgan qismining chegaraviy kattaligi;bitta qarz oluvchi yoki bog'langan qarz oluvchilar guruhiga to'g'ri keladigan xavfning kattaligi; katta kredit xavfining maksimal kattaligi;bitta kreditorga to'g'ri keladigan xavfning maksimal kattaligi;kredit tashkilotlarining likvidlik normativlari; kapitalning etarli normativlari;aholining jalb qilingan pul qo'yilmalarining maksimal kattaligi;valyuta, foiz va boshqa xavflarining kattaligi; yuqori xavfli aktivlar ostida tashkil etiladigan rezervlarining minimal kattaligi;boshqa yuridik shaxslarda ulushga ega bo'lish uchun banklarning o'z mablag'laridan foydalanish normativlari;banklarning o'z qatnashchilariga taqdim etgan kreditlar, kafolatlar ishonchlilik maksimal kattaligi;MDX mamlakatlari banklari ko'zatish va tartibga solish borasidaga vazifalarini amalga oshirish uchun kredit tashkilotlari va ularning filiallari ustidan tekshirish o'tkazadi, ular faoliyatidagi kamchiliklarni bartaraf etish haqidagi bajarishlari majbur bo'lgan talablarni yo'naltiradi va qonun bo'zuvchilarga nisbatan qonunlarda belgilangan talablar qo'llaniladi.MDX mamlakatlari banklari kreditorlarning (omonatchilar) qonuniy manfaatlarini , umuman, bank tizimining barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi holatlarni ko'rib chiqish maqsadida kredit tashkilotlarining faoliyatini tahlil qiladi.

Kreditorlar, shu jumladan omonatchilar manfaatlarini himoya qilish maqsadida MDX mamlakatlari banklari bank operatsiyalarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziyalari bekor qilingan kredit tashkilotlariga MDX mamlakatlari banklari ishonchli vakilini ta'yinlash huquqiga ega.MDX mamlakatlari banklari pul kapital bozoriga ta'sir qilishning asosiy richaglari bo'lib, hisob stavkalari va tijorat banklarining majburiy rezervlari kattaligini , shuningdek, davlatning qimmatbaho qog'ozlar bozorida muomalalar hajmini tartibga solish hisoblanadi.Agar davlat Markaziy Bank nomidan pul kapitali taklifini kamaytirishni xoxlasa, u holda u davlat obligatsiyalarini sotadi, tijorat banklarining majburiy rezervlari normasini yoki Markaziy Bank hisob stavkasini oshiradi. Bundan tashqari bu tadbirlar ish faolligini pasaytirishga olib keladi.Pul kapitali taklifining o'sishi uchun teskari harakatdagi tadbirlar olib boriladi.Bank sohasi ko'proq inqirozdan zarar ko'rdi. Afsuski, bugungi kunda banklar holati haqida statistik ma'lumotlar mavjud emas. Biroq to'liq ishonch bilan aytish mumkinki, Markaziy Bank raisi Geraktsenko V.V. fikricha, banklar soni 200-300 tagacha qisqaradi.Bank-moliya inqirozini engish uchun MDX mamlakatlari banklari tomonidan bir qator tadbirlar ishlab chiqilgan.Birinchi navbatdagi tadbirlar qatoriga bank institutlari tizimining normal ishlashini tiklash maqsadida bo'lgan mamlakat kredit tashkilotlarini qayta to'zishni kiritish mumkin.

Bank tizimini qayta to'zishning yaqin yarim yillik maqsadlari quyidagilar:

bank tizimining xizmatlar bazaviy majmuasini bajarish layoqatini tiklash;bank tizimi asosining kapitalini ko'paytirish, aktivlar sifatini yaxshilash, to'lovlarni amalga oshirish va iqtisodiyot real sektorining talablariga bank xizmat qilishi uchun o'zoq muddatli rusurslar bazasini yaratish;xususi omonatchilar va kreditorlar, shu jumladan xorijiy banklar ishonchlarini tiklash;raqobatbardosh banklar faoliyatini olib borish uchun foydalanishi mumkin bo'lgan bank texnologiyalari va mumkin majmualarining bekorga sarf etilishiga yo'l qo'ymaslik;konstruktiv ishlarga layoqati bo'lmagan bank boshqaruvi personalini

chetlatish, ularni bank aksionerlari, mijozlari, barcha kreditorlari manfaatlarini vijdonan himoya qiluvchi boshqaruvchilarga almashtirish; yangi mulkdorlarni, shu jumladan chet el investorlarini bank kapitallarida ishtirok etishga jalb etish;

moliyaviy bozorlar, shu jumladan banklararo bozorning normal faoliyat yuritishini tiklash. Mamlakatda bank sistemasining normal faoliyatini tiklash va uning samarali rivojlanishiga ko`maklashish maqsadida bank sistemasi to`lov qobiliyatini tiklash bo`yicha halqaro tajribaga tayangan holda MDX mamlakatlari banklari kredittashkilotlarini tuzilmasini o`zgartiruvchi agentlik tashkil etishga qoror qildi. Bu tashkilot MDX mamlakatlari banklari hukumati va Markaziy Bank ishtirokida to`ziladi. Agentlik oldiga quyidagi vazifalar qo`yilgan: omonatchi va kreditorlarning talablarini qonunan qondirish maqsadida bankrotlik jarayonlarini olib borishga ishtirok etish, shu bilan birga bankrotlik jarayonini samarali realizatsiya qilish uchun

shartlarni qondirish; kredit tashkilotlarining bankrotligini ogohlantirish bo`yicha davlat siyosatini yuritish; kredit tashkilotlari qarzlari va qarzdorlari bozorini shakllantirish. Agentlik Markaziy Bank ishtirokida o`z zimmasiga kredit banklari maanfaatlari himoyasi, banklarning moliyaviy barqarorligi bo`yicha kompleks tadbirlar o`tkazish yoki bo`lmasa banklarni tugatish jarayonini amalga oshirish bo`yicha bir qism ishni oladi. Qo`yilgan vazifalarni realizatsiya qilish uchun agentlik quyidagi faoliyatni amalga oshirish huquqini qo`lga kiritadi:

kapital mablag`idan ajralgan banklarning kontrol paketiga egalik qilish va ularni boshqarishni amalga oshirish; banklarning aktsiya paketini garovga olish va boshqarishni qabo`l qilish, hamda bu paketlarga egalik qilish; restrukturizatsiyaga muhtoj banklarda davlat manfaatlarini namoyon etish, ularga iqtisodiy ko`mak berish; banklarning moliyaviy sog`lomlashtirish rejalarini realizatsiya qilishga va ishlab chiqarishga ishtirok etish; kredit tashkilotlari kapitalining yo`qotilishiga sabab bo`lgan yoki uning rivojlanishiga to`sqinlik qilayotgan shaxslarni kredit tashkilotlari boshqaruvidan chetlatish. Markaziy Banki bank sistemasini tuzilmasini o`zgartirish qilish bo`yicha boshqa chora-tadbirlar ham ko`rmoqda. Ular: moliya bozorlari infrastukturasini rivojlantirish va unga ko`maklashish uchun faol siyosat olib borish;

banklar sifatini va ular faoliyatining tezkorligini oshirish yo`li bilan bank tekshiruvlarini kuchaytirish, iqtisodiy normativlar va ularning banklarga bo`lgan talabini aniqlash. Mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy holatni barqarorlashtirish bo`yicha MDX mamlakatlari banklari va Markaziy Bankining chora-tadbirlariga muvofiq davlatning banklarga bo`lgan ta`siri oshib bormoqda. Shunga binoan oxirgi vaqtlarda ko`pgina salbiy fikrlar bildirilmoqda. Ammo rivojlangan davlatlarda ham davlatning banklarga ta`siri yuqori. Masalan AQShda, garchi bank o`z binosini kengaytirmoqchi yoki yangisini qurmoqchi bo`lsa, u o`zining boshqaruv organidan ruxsat olishi kerak.

12.4. Qimmatbaho qog`ozlar bozorining davlat tomonidan tartibga solinishi

Qimmatbaho qog`oz - bu o`z egasiga dividend va foiz ko`rinishida daromad olish huquqini beruvchi mulkiy unvondir. Qimmatbaho qog`ozlar jumlasiga korporatsiya va davlatning aksiyalari, obligatsiyalari kiradi. Qimmatbaho qog`ozlar bozori birlamchi va ikkilamchi bozorlarga bo`linadi.

Birlamchi bozor deb chiqarilgan qimmatbaho qog`oz birinchi bor xaridorlarga sotilishiga aytiladi. Ikkilamchi bozor bu qimmatbaho qog`ozlarga egalik qilib turib uning savdoda ishtirok etishidir. Ular o`rtasidagi bu farq juda muhim. Agar kompaniyaning yangi chiqarilgan aksiyasi sotilsa, unda pul tushumini shu kompaniya oladi, agarda chiqarilgan va oldin sotilgan aksiya sotilayotgan bo`lsa, unda pul tushumi qimmatbaho qog`ozlarning oxirgi egasiga borib tushadi. Ikkilamchi bozorlar korporatsiyalarga yangi chiqarilgan aksiyalar va obligatsiyalarni ularning likvidligini oshirgan holda sotishga yordam beradi. Ikkilamchi bozorlar birlamchi bozorlarga qaraganda juda katta savdo oborotiga ega va shu bilan birga ancha taniqlidir. Fond birjalarida ikkilamchi bozorlar asosiy o`rin egallaydi. Birja bozoridan tashqari birja faoliyatidan xoli bozor ham mavjud. Yaqin vaqtgacha qimmatbaho qog`ozlar bozori ustidan davlat nazorati umuman yo`q edi, bu esa har xil ko`rinishdagi firibgarlikka sabab bo`lgan. Davlat nazoratining yo`qligi bu bozor rivojlanishiga to`sqinlik qilib, unga haqiqiy olib sotarlik xarakterini bergan. Qimmatbaho qog`ozlar bozorining faoliyatini solinishini belgilovchi davlatning asosiy organi bo`lib qimmatbaho qog`ozlar bo`yicha davlat komissiyasi hisoblanadi. Qimmatbaho qog`ozlar bo`yicha davlat komissiyasining 1.07.96 yil

holatiga ko`ra unga quyidagi asosiy tartibga solish va nazorat qilish funksiyalari yuklatilgan: Qimmatbaho qog`ozlar bozori rivojlanishining asosiy yo`nalishlarini ishlab chiqishni belgilash va ijro etuvchi davlat organlari faoliyatini qimmatbaho qog`ozlar bozorini tartibga solish muammolari bo`yicha koordinatsiyalish;

Qimmatbaho qog`ozlar emissiyasining standarti, emitentning qimmatbaho qog`ozlari emissiyasi prospekti, shu jumladan MDX mamlakatlari banklari qimmatbaho qog`ozlar emissiyasini amalga oshiruvchi chet el emitentlari hamda emissiyalarni ro`yxatga olish tartibini va qimmatbaho qog`ozlar emissiyasi prospektini tasdiqlash;

Qimmatbaho qog`ozlar bilan professional faoliyat yuritishni belgilash huquqiga oid yagona talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash; Qimmatbaho qog`ozlar bilan operatsiyalar o`tkazishga, qimmatbaho qog`ozlar chiqarish normasiga, ularning oshkora joylashuviga, muomalada bo`lishiga, kotirovkasiga va listinggiga,

depozitar hisob- kitob faoliyatiga yagona majburiy talablar o`rnatish; mavjud ro`yxatga olingan qimmatbaho qog`ozlarning tartibi bo`yicha yagona talablarni o`rnatish; Qimmatbaho qog`ozlar bozorida ixtisoslashuv faoliyat yuritishning har xil ko`rinishlarini

litsenziyalashning tartibi va amalga oshirilishi shamda investitsion fond dagi tegishli mulkni boshqarish va baholash bo`yicha faoliyatni, shu bilan birga qimmatbaho qog`ozlar bo`yicha MDX mamlakatlari banklari qonunchilik bo`zilgan holatda berilgan taqrizlash to`xtatish yoki bekor qilishni o`rnatish; fond bozori yuqori malakali ishtirokchilari faoliyatini

taqrizlash bo`yicha faoliyatni amalga oshirishning umumiy litsenziyasini qaytarib berish, to`xtatish yoki qaytarib olish; Qimmatbaho qog`ozlar bozorida investitsion, nodavlat pensiya, sug`urta fondlari va sug`urta kompaniyalari faoliyatining standartlarini

aniqlash; fond bozori ishtirokchilarining qimmatbaho qog`ozlar bo`yicha MDX mamlakatlari banklari qonunchilikka rioya etishi ustidan nazoratni amalga oshirish; Qimmatbaho qog`ozlar

bozorida oshkora ma'lumotlarning ommabop sistemasini yaratishni ta'minlash; Qimmatbaho qog'ozlar bozorining o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari yuqori malakali ishtirokchilarining faoliyatini tartibga

solish; MDX mamlakatlari banklari qonunchiligi qimmatbaho qog'ozlar bozori yuqori malakali ishtirokchilariga o'z-o'zini boshqarish tashkilotlarini to'zish imkonini beradi. O'z-o'zini boshqarish tashkilotlari Federal komissiya taqdim etgan taqrizga muvofiq quyidagi funktsiyalarni amalga oshiradi: o'z a'zolari uchun qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazish va qimmatbaho qog'ozlar bozorida yuqori malakali faoliyat yuritish mezonlari hamda qoidalarini o'rnatadi; qimmatbaho qog'ozlar yuzasida yuqori malakali faoliyat yuritish huquqiga taqriz olish uchun taqrizlovchi organlarga murojaatnoma beradi; vakolatlar nazoratini amalga oshiradi;

MDX mamlakatlari banklari qimmatbaho qog'ozlar bo'yicha qonunchiligining talablarini bo'zuvchi o'z a'zolariga chora-tadbirlar qo'llash va sanksiya berish;

MDX mamlakatlari banklari qimmatbaho qog'ozlarga oid qonunchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflarni Federal komissiyaga jo'natadi, shu bilan birga MDX mamlakatlari banklari qimmatbaho qog'ozlarga oid qonunchiligining amaliyotdagi holatini tahlil qiladi; Federal komissiyaning malakaviylangan talablariga muvofiq o'quv dasturlari va rejalarini ishlab chiqadi, qimmatbaho qog'ozlar bozorida mustahassislashgan faoliyat yurutuvchi tashkilot xodimlari va raxbarlarini tayyorlashni amalga oshiradi, ko'rsatilgan shaxslarning malakasini aniqlaydi va ularga kvalifikatsiya attestati beradi; O'z-o'zini boshqaruvchi tashkilotlar davlatga qimmatbaho qog'ozlar bozorining tizimini tartibga solish sistemasini rivojlantirish va

takomillashtirish masalalarini echishda, qimmatbaho qog'ozlar bozorida samarali faoliyatini ta'minlovchi qimmatbaho qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazishning mezonlari va qoidalarini o'rnatishda, qimmatbaho qog'ozlar bozori mutaxassislashgan ishtirokchilarining faoliyati ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshirishda, o'z-o'zini boshqaruvchi tashkilotlar a'zolari hisoblanuvchi qimmatbaho qog'ozlar bozori mutaxassislik faoliyat ishtirokchilarining xaridorlari va qimmatbaho qog'ozlar egalarining huquqlarini himoyalashda, qimmatbaho qog'ozlar bozorida mutaxassislik faoliyat mezonlarini oshirishda va qimmatbaho qog'ozlar bozorida mutaxassislik faoliyatning shartlarini ta'minlashda ko'mak berish uchun tashkil etiladi. Mingdan ortiq a'zolariga ega fond bozori ishtirokchilarining milliy assotsiatsiyasi MDX mamlakatlari banklari eng katta va obro'li, fond bozori mutaxassislik ishtirokchilarining o'zini- o'zi boshqaruvchi tashkiloti bo'lib hisoblanadi. Fond bozori mutaxassislik ishtirokchilarining o'z-o'zini boshqaruvchi nomdor tashkilotlardan yana biri bu depozitariylar, transfer xisobchilar ro'yxatga oluvchilarni mutaxassislik assotsiatsiyasidir. Davlatning qimmatbaho qog'ozlar bozoriga ta'siri kuchiga qaramasdan u hali ham takomillashmay qolib ketmoqda. MDX mamlakatlari iqtisodiyotidagi inqiroz unga berilgan eng katta zarba bo'ldi.

Qisqacha xulosa

1. Moliya bozori hamda pul muomilasining davlat tomonidan tartibga solishi - davlatning eng muhim va qiyin vazifalardan biri. Moliyaviy bozorning asosiy ishtiroklari quyidagilardir: davlat, jismoniy shaxslar, korxonalar, banklar, pensiya fondlari, sug'urta kompaniyalari, investitsiya fondlari.

2.Moliya bozori bu qisqa o`rta va uzoq muddatli kreditlar va fond qimmatliklari, aktsiyalar, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog`ozlar bozoridir.

Moliyaviy bozorlardan biri bo`lgan pul kapital bozorini pul kapitali aylanishini ta'minlash jarayoni bilan bog`liq bo`lgan moliyaviy munosabatlarning biri, alohida sferasi sifatida belgilash mumkin.

3.Kredit - bu pul kapitali harakati bo`lib, u ta'minlanganlik, tezkorlik, qaytarishlik va to`lovdan boshlanishda amalga oshiriladi. MDX mamlakatlari banklarini tartibga soluvchi va kredit tashkilotlarining faoliyatini ko`zatuuvchi organdir. U kredit tashkilotlarining banklar qonunchiligi, MDX mamlakatlari banklari normativ aktlari, xususan, ular o`rnatgan majburiy normativlarga amal qilishini ko`zatadi.

4.Qimmatbaho qog`oz bu o`z egasiga dividend va foiz ko`rinishida daromad olish huquqini beruvchi mulkiy unvondir. Qimmatbaho qog`ozlar jumlasiga korporatsiya davlatning aktsiyalari obligatsiyalari kiradi. Qimmatbaho qog`ozlar bozorining faoliyatini solinishini belgilovchi davlatning asosiy organi bo`lib qimmatbaho qog`ozlar bo`yicha davlat komissiyasi hisoblanadi.

Tayanch iboralar.

Moliya bozori, pul muomilasi, kreditlar, qimmatbaho qog`ozlar, aktsiyalar, obligatsiyalar, pul kapitali, foiz ko`rinishi, bank tizimi, bank sistemasi, fond bozori.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Moliyaviy bozorning tarkibini tushuntirib bering?

1. Pul kapitali bozorining asosiy tushunchalariga nimalar kiradi?
2. MDX mamlakatlari bankining banklar foliyatini tartibga solishdagi tajribasini izohlang?
3. Qimmatbaho qog`ozlar bozorining davlat tomonidan tartibga solinishini misollar bilan ko`rsating.
4. Moliya bozori hamda pul muomalasining davlat tomonidan tartibga solinishi - davlatning kandy vazifalaridan biri hisoblanadi.
5. Moliya bozori kandy bozorlarga kiradi ?
6. Moliya bozori barcha segmentlari bilan kandy boglangan ?
7. Pul kapitali bozori nechta asosiy segmentlarga bo`linadi?

Asosiy adabiyotlar1.O`zbekiston Respublikasining Konstituttsiyasi.

O`zbekiston Toshkent 2003 y.

2.«Sug`urta faoliyati to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasinig Qonuni. «Xalq suzi». 2002 y. 28 may.

3.«Tashqi iqtisodiy faoliyat tug`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni «Xo`jalik va huquq» 2000 y. 9 - son

- 4.«Chet el investitsiyalari to`g`risida» gi qonun. 1998 y. 30 aprel. O`zbekiston Respublikasi
- 5.«Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tabirlari to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
- 6.«Tug`ridan-tug`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ra g`batlantirish boasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Farmoni. Xalq so`zi. 2005 y. 12 aprel.
- 7.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «O`zbekiston ovozi» 2005 y. 29 yanvar.
8. Karimov I.A.«Erishilgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo`llarini izlab borish-asosiy vazifa» Halk so`zi 2004 y. 10 fevral.
- 9.Babushkina.A.I.Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. 2004g. M. Finanso` i statistika. 480. str.
- 10.Fareycheva .G.V. Sistema obhestvenno`x potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii.M. MGU. TEIS. 2004g. 230 str.
- 11.N.L.Shagas., E.A.Tumanova. Makroekonomika-2. Uchebnoe posobie. Vo`pusk novo`y. Dolgosrochno`y aspekt. M. TEIS. 2004g. Ekonomicheskii fakultet im M.V. Lomonosova MGU.122 str.

Internet ma'lumotlari

- 1.WWW. economyta - culty. uz.
- 2.Novosti Uzbekistana - www.uzreport.com
- 3.Informatsiya, innovatsii, investitsii - 2004 - [http:g`g` www.informika.ru](http://www.informika.ru)
g`textg`exhibitg`papersg`2004g`c11-3doc
- 4.[http: g`g` www. Review.uz](http://www.Review.uz) g`homeg`azticle.asp?mq62Rio)q177
- 5.[http: g`g` www. Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm](http://www.Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm)
- 6.[http: g`g` www. vqi.freenet. g`trudyg`dratisviko.htm](http://www.vqi.freenet. g`trudyg`dratisviko.htm)
- 7.[http: g`g` www. Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html](http://www.Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html)
- 8.<[http:G`G` www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisvriko.htm](http://www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisvriko.htm)>

13-BOB. Valyuta bozorining davlat tomonidan tartibga solinishi

13.1. Valyuta kursini tartibga solish usullari

Milliy valyutaning barqarorligi va qudrati bu inflyatsiya darajasi pasayishining, makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning va iqtisodiy o`rinishning asosiy omildir. Milliy valyutaning holati jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy valyuta kursini aniqlash «bozordagi kuchlar»ga topshirilgan davlatda inflyatsiyaning juda ham yuqori darajasi ko`zatiladi. Dunyoda valyuta kursining uch asosiy rejimi mavjud: barqaror, so`zib yuruvchi va evida so`zib yuruvchi. Kurs moslashuvini ushlab turish uchun Markaziy Bank belgilangan kurs bo`yicha chet el valyutasini sotish va sotib olish majburiyatlarini oladi. Barqaror kurs bo`yicha valyutalarga Argentina pesosi misol bo`la oladi. So`zib yuruvchi kurs rejimida pul siyosatini olib boruvchi tashkilot valyuta kursining kafolatini olishmaydi. Pulga bo`lgan talab va taklifning o`zgarishi valyuta kursi o`zgarishlarida aks etadi. Agar Markaziy Bank umuman chet valyutasini sotmasa va sotib ham ololmasa, unda bunday rejim «sof» so`zib yuruvchi rejim deyiladi. Agarda Markaziy Bank valyuta operatsiyalarini amalga oshirsa, bu rejim evida so`zib yuruvchi deb yuritiladi. Halqaro Valyuta Fondiga (XVF) a'zo 155 davlatdan faqatgina 26 tasi valyuta kursi erkin so`zib yuruvchi hisoblanadi. G`arbning mashhur iqtisodchisi P. Kumanning fikricha «boshqarilmaydigan iqtisodiyot mavjud barcha axborotlardan foydalana ololmaydi, shunday ekan valyuta kursi iqtisodiy noto`g`ri o`rnatiladi, bu esa iqtisodiy faollikning yomonlashuviga olib kelishi mumkin, bozor o`z-o`zdan himoyalaniishi kerak». Valyuta kursini rasmiy tartibga solish shunga asoslanganki, unda rasmiy hukumat bozori dan ko`ra valyuta kursi barqarorligini o`zoqroq muddatga ta'minlashni yaxshiroq uddalay oladi. Umuman, valyuta siyosati quyidagi masalalar echimiga qaratilgan bo`lishi kerak: qisqa muddatli to`satdan bo`ladigan o`zgarishlarni qisqartirish iqtisodiy holatning o`zgarishi bilan sodir bo`ladigan keng miqyosdagi olib-sotarlik to`lqinini to`xtatish; valyuta kursining maqsadli mohiyatini o`rnatish; valyuta kursining o`zgarishlari kutilgan o`zgarishlardan oshib ketganda uning oldini olish. Valyuta kursi ikki davlatga tegishli bo`lgan bahoni o`zida mujassam etadi, shuning uchun valyuta siyosati bir tomondan boshqa davlat uchun jiddiy oqibatlarga sabab bo`lishi mumkin. O`z valyutalarini nojo`ya operatsiya qilishning oldini olish maqsadida XVF unga a'zo davlatlar o`z valyuta siyosatlarini olib borish vaqtida amal

qilishlari kerak bo'lgan bir qator tavsiyanomalarni ishlab chiqdi: besamar to'lov balansiga erishish yoki halqaro raqobat kurashida manfaat ko'rish maqsadida o'z valyutasini nojo'ya operatsiya qilishning oldini olish; faqatgina o'z valyuta kursining qisqa muddatli o'zgarishlarini qisqartirish zarurati tug'ilganda valyuta bozorida intervensiyani amalga oshirish; XVFnning a'zosi o'z intervensiyasini olib borayotganda uning boshqa a'zo davlatlar valyutasiga ko'rsatadigan ta'sirini e'tiborga olishlari kerak.

XVFnning a'zosi sifatida MDX mamlakatlari hukumati ham valyuta siyosatini yurgizishda ko'rsatilgan tamoyillarni qo'llab quvvatlaydi. Valyuta bozorini tartibga solishning har-xil vositalari mavjud bo'lib, ulardan birinchisi monetar siyosatdir. Lekin faqat valyuta kursini tartibga solish maqsadida monetar siyosat yurgizish inflyatsiya va ishsizlikning kutilmagan salbiy oqibatlarini keltirib chiqarishi

mumkin. Tartibga solishning boshqa bir vositasi bu kapital harakatini cheklash yoki halqaro savdoga barerlar qo'yishdir. Hukumatning bunday harakatlari kredit berish imkoniyatlari past bo'lgan davlatlar valyuta bozorlarida barqarorlikka erishish uchun zarur bo'ladi. Valyuta kursini tartibga solishning yana bir vositasi bu valyuta bozorida to'g'ridan-to'g'ri intervensiyadir. Valyuta intervensiyasining muvaffaqiyati uning intensivligiga va shu bilan birga monetar siyosat organlariga bo'lgan ishonchga bog'liq.

13.2 Valyuta bozorining davlat tomonidan tartibga solinishi

MDX mamlakatlarida 2004 yilgacha valyuta boshqaruvi umuman yo'q edi, bu esa «rubl» qadrining chet el valyutasiga nisbatan doimiy tushushiga sabab bo'ldi. «Rubl» qadrining pasayishi faqat banklar uchun foydali edi (chunki «rubl»ning pasayishi aholini chet el valyutasini sotib olishga majbur qildi va banklar sotish va sotib olish o'rtasidagi farq hisobiga kun ko'rishdi). MDX mamlakatlari ning asosiy eksport mahsulotlari xom ashyo va ekologik mahsulotlar (metall, neft...) bo'lganligi uchun doimiy «rubl» ta'minoti mamlakat resurs bazasini talon-taroj bo'lishiga olib keldi. Bundan tashqari, davlatga eksportdan keladigan valyuta tushumi va davlatdan chiquvchi valyuta ustidan samarali nazorat umuman yo'q edi. MDX mamlakatlari 1994 yilda tovarlar eksportidan tushadigan valyuta tushumi ustidan o'rnatilgan natijasida qaytib kelmagan tushumlar hajmi 2003 yil 30-40 % dan 2004 yilda 12 % gacha va 2000-2004 yillarda boryo'g'i 4 % ga qisqardi. 2004 yilda kiritilgan valyuta

koridorlari natijasida milliy valyuta kursining barqarorlashuviga erishildi.

MDX mamlakatlari valyuta kursini tartibga soluvchi va nazorat qiluvchi organlar bo'lib MDX mamlakatlari Markaziy Banki, Davlat Bojxona komiteti, valyuta va eksport nazorati bo'yicha Federal xizmati hisoblanadi.

Qisqacha xulosalar

1. Milliy valyutaning barqarorligi va qudrati bu inflyatsiya darajasi pasayishining makroiqtisodiy barqarorlikka erishishning va iqtisodiy o'sishning asosiy omilidir. Milliy

valyutaning holati jamiyat va iqtisodiyotning rivojlanishi, taraqqiy etishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

2.Dunyoda valyuta kursining

3 asosiy rejimi mavjud. Valyuta bozorini tartibga solishning har hil vositalari mavjudbo`lib, ulardan birinchisi Monitar siyosatdir. Valyuta kursini tartibga solishning yana bir vositasi bu valyuta bozoridagi to`g`ridan-to`g`ri interventsiyadir.

Tayanch iboralar

Milliy valyuta, valyuta bozori, valyuta kursi, barqarorlik, valyuta siyosati, HVF, to`lov balansi, halqaro raqobat, valyuta interventsiyasi.

Nazorat va muhokama uchun savollar.

1. Valyuta kursining belgiluvchi omillar?
2. Valyuta kursi va foyiz stavkasi?
3. Valyuta kursini tebranishiga ta'sir etuvchi omillar
4. Egiluvchan va qayd etilgan valyuta kurslarning nisbiy samaradorligi?
5. Valyuta siyosati yordamida makroiqtisodiy tartibga solish va milliy iqtisodiyoti raqobatbardoshligini oshirishni jahon tajribasi?
6. Tug`ri va teskari katirovkalashning mohiyati.
7. Valyuta kursini tartibga solish vositalari ?

Asosiy adabiyotlar

- 1.O`zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O`zbekiston Toshkent 2003 y.
- 2.«Sug`urta faoliyati to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasinig Qonuni. «Xalq suzi». 2002 y. 28 may.
- 3.«Tashqi iqtisodiy faoliyat tug`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Qonuni «Xo`jalik va huquq» 2000 y. 9 - son
- 4.«Chet el investitsiyalari to`g`risida» gi qonun. 1998 y. 30 aprel. O`zbekiston Respublikasi
- 5.«Bank tizimini yanada isloh qilish va erkinlashtirish chora-tabirlari to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Toshkent sh. 2005 y. 15 aprel.
- 6.«Tug`ridan-tug`ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni ra g`batlantirish boasidagi qo`shimcha chora-tadbirlar to`g`risida» gi O`zbekiston Respublikasining Farmoni. Xalq so`zi. 2005 y. 12 aprel.
- 7.Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. «O`zbekiston ovozi» 2005 y. 29 yanvar.

8. Karimov I.A.«Erishilgan marralarimizni mustahkamlab islohotlar yo'llarini izlab borish-asosiy vazifa» Halk so'zi 2004 y. 10 fevral.
- 9.Babushkina.A.I.Gosudarstvennoe regulirovanie natsionalnoy ekonomiki. Uchebnoe posobie. 2004g. M. Finanso` i statistika. 480. str.
- 10.Fareycheva .G.V. Sistema obhestvenno`x potrebnostey i ee makroregulirovanie v usloviyax globalizatsii.M. MGU. TEIS. 2004g. 230 str.
- 11.N.L.Shagas., E.A.Tumanova. Makroekonomika-2. Uchebnoe posobie. Vo`pusk novo`y. Dolgosrochno`y aspekt. M. TEIS. 2004g. Ekonomicheskij fakultet im M.V. Lomonosova MGU.122 str.

Internet ma'lumotlari

1. WWW. economyta - culty. uz.
2. Novosti Uzbekistana - www.uzreport.com
3. Informatsiya, innovatsii, investitsii - 2004 - [http:g`g` www.informika.rug`textg`exhibitg`papersg`2004g`c11-3doc](http://www.informika.rug/textg/exhibitg/papersg/2004g/c11-3doc)
4. [http: g`g` www. Review.uz g`homeg` azticle.asp? mq62Rio\)q177](http://www.Review.uz/g`homeg`azticle.asp?mq62Rio)q177)
5. [http: g`g` www. Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm](http://www.Biblio.rkg`encaztag`humanitariang`cicle.htm)
6. [http: g`g` www. vqi.freenet. g`trudyg`dratisviko.htm](http://www.vqi.freenet.g`trudyg`dratisviko.htm)
7. [http: g`g` www. Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html](http://www.Yabloko.rug`themesg`belorusg`belfrus-25.html)
15. <[http:G`G` www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisvriko.htm](http://www.vqi.freenet.lezg`trudyg`bratisvriko.htm)>

14-BOB.Pul muomalasining davlat tomonidan tartibga solinishi.

14.1 Pul muomalasi va uning iqtisodiyotni funktsiyalashtirishga ta'siri

Pul harakatining naqd va naqd bo`lmagan ko`rinishda o`zining vazifalarini bajarishi pul muomalasi deyiladi.Pul muomalasining ikki xil ko`rinishi bor: naqd va naqdsiz .Naqd pul muomalasi - bu muomala jarayonida naqd pulning harakati va ikkita vazifani (to`lov vositasi va muomala vositasi) bajarishidir. Naqd pul quyidagi holatlarda ishlatiladi:Tovarlar va xizmatlarning aylanma harakati uchun;Tovarlar va xizmatlar harakatiga bevosita bog`liq bo`lmagan ish

haqi, pensiya va h.q bilan hisob-kitob qilish uchun.Naqd pul muomalasi har xil ko`rinishdagi pul: banknot, metall pullar, veksellar, cheklar, kredit kartochkalari yordamida amalga oshiriladi. Naqd pul emissiyasini Markaziy Bank amalga oshiradi.

Naqdsiz pul muomalasi - bu naqd pulning ishtirokisiz qiymatning harakatidir.

Naqdsiz pul muomalasi cheklar, veksellar, kredit kartochkalari va boshqa kredit vositalari yordamida amalga oshiriladi.Iqtisodiy kelib chiqish nuqtai nazaridan naqdsiz pul muomalasi

ikki guruhga bo`linadi: tovar operatsiyalari va moliyaviy majburiyatlarga ko`ra. Birinchi guruhga tovar va xizmatlar uchun naqdsiz hisob-kitoblar tegishli, ikkinchi guruhga byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga to`lovlar, bank ssudalarining va kreditlarning foizi uchun to`lovlar, sug`urta kompaniyalari bilan hisob-kitob qilish kiradi. Naqd va naqdsiz pul muomalasi o`rtasida bir-biriga bog`liqlik va aloqadorlik mavjud. To`lov va muomala vositasi sifatida pul o`z funktsiyalarini bajarishi uchun talab qilinadigan pul miqdori quyidagi shartlar bilan aniqlanadi: muomaladagi tovar va xizmatlarning umumiy hajmi; tovarlar bahosi va xizmatlar uchun tariflar darajasi; pul muomalasining tezligi; naqdsiz hisob-kitoblarning rivojlanganlik darajasi. Metall pul muomalasi davrida pulning miqdori jang`arish vositasida davomli tartibga solingan. Bu pul muomalasining barqarorligini ta`minlagan. Oltin pul mezoni rad etilgach, muomala uchun talab qilingan oltin pul miqdori bahosiga tenglashtirilgan belgining miqdoriy qiymatiga muvofiqlashgan qog`oz pullar qonuni muomalaga kiritilgan. Bunday holat pulning barqarorligini zaiflashtirdi, uning qadrsizlanish ehtimoli tug`ildi. Hozirda oltinni pul sifatida sharoitda, qog`oz pullar qonuni takomillashib bormoqda. Tovar va xizmatlar qiymati o`lchovi pul kapitali bo`lib qoldi. U tovarning qiymatini bozorda pulga tenglashtirish yo`li bilan emas, balki ishlab chiqarish jarayonida tovarni tovarga almashtirish orqali o`lchanadi. Demak maydalanmaydigan kredit pullarning miqdori mamlakatning butun boyliklari qiymati pul kapitali orqali aniqlanishi kerak. Umumiy pul miqdorining kredit pul ustunligi ostida doimiy boshqaruvi mavjud emas. Bundan davlatning pul muomalasini tartibga solishdagi roli kelib chiqadi. Mamlakatda ishlab chiqirilayotgan tovarlar va ko`rsatilayotgan xizmatlar hamda ularning taqsimoti va ayirboshlanishi qiymatining real hisobisiz emissiya qilingan kredit pullar birligining ortiqchaligiga va oxir oqibat uning qadrsizlanishiga olib keladi. Mamlakat pul birligi barqarorligining asosiy shartlaridan biri bu xo`jaliklarning naqd va naqdsiz pul oborotiga tushgan pullarga bo`lgan talabidir.

14.2 MDX mamlakatlari pul tizimi

Pul tizimi- bu davlatda pul muomalasining tarixan yuzaga kelgan va qonuniy mustahkamlagan mexanizmidir. MDX mamlakatlaridagi pul tizimi MDX mamlakatlari Markaziy Banki to`g`risida»gi davlat qonuniga muvofiq ishlaydi. MDX mamlaktlarining rasmiy pul birligi «rubl» hisoblanadi. MDX mamlakatlari hududida boshqa pul birligini joriy etish taqiqlanadi. «Rubl»ning oltin yoki boshqa qimmatbaho metall bilan o`zaro nisbati qonun bilan belgilanmagan. «Rubl»ning chet el pul birliklariga nisbatan rasmiy kursi MDX mamlakatlari Markaziy Banki tomonidan aniqlanadi va matbuotda e`lon qilinadi. MDX mamlakatlari hududida pulni muomalaga kiritish va chiqarish tashkilotlaridan mustasno holda MDX mamlakatlari Markaziy Banki naqd pulni emissiya qilish huquqiga ega. U davlatdagi iqtisodiy faoliyatlarning normal harakat qilishiga ko`maklashish maqsadida pul muomalasi holati uchun javobgardir.

Qonuniy to`lov kuchiga ega bo`lgan pul ko`rinishlari banknotalar va tanga pullar bo`lib, ular MDX mamlakatlari barcha aktivlari, shu bilan birga uning oltin zaxirasi, davlatning qimmatbaho qog`ozlari, kredit idoralarinig rezervlari bilan kafolatlanadi. MDX mamlakatlari hududida naqd pul muomalasini tashkil qilish

